

1-bob

Restoran xo'jayini pianinochiga qarab qo'l siltagan edi, tango sadolari darhol tindi. Tansa tushayotgan erkak bilan ayol bo'm-bo'sh zalning o'rtasida to'xtab qolishdi.

- Xo'sh, qalay? - deya so'radi ozg'ingina malla soch juvon. So'ngra sherigining quchog'idan chiqdi-da, stollardan birining chetiga omonatgina o'tirgan semiz xo'jayinning oldiga keldi.

Xo'jayin uning savoliga javoban yelka qisib qo'ya qoldi.

- Yaramaydimi? - beparvogina so'radi juvon.

- Qayoqda deysiz! O'zini tutishni mutlaqo bilmaydi. Kelishgan bo'lganida ham go'rga edi.

Haligi erkak ham ularning yoniga keldi.

Malla soch juvon unga diqqat bilan ko'z yugurtirib chiqdi. Egnidagi kostyumining ancha ohori to'kilgzn erkakning og'zi kichkina, iyagi go'shtdor bo'lib, to'kila boshlagan mallatob sochlarining o'rtasidan farqi ochib taralgan edi.

- Ilgari ham biror yerda tansa tushganmisiz?

- Yo'q. Ha, aytganday, tushganman. Faqat o'z oshnalarim orasida, albatta. Ular tansaga ancha yaxshi tushasan, deyishardi.

- Qayerda tansa tushgan edingiz? - loqaydgina surishtirgan bo'ldi xo'jayin.

Tansa boshqaruvchilikka nomzod bo'lib kelgan haligi kishi zalga ma'yus ko'z yugurtirdi.

- O'zimiz tomonda, Liskovda tushgan edim. Baqaloq kulib yubordi.

- Varshava sizga Liskov emas, azizim. Bilasizmi, bu yerda dabdaba va shukuh kerak bo'ladi. Ochig'ini ayta qolay: bizga to'g'ri keshmas ekansiz, Yaxshisi, o'zingizga boshqa ish qidirib toping.

Shunday deya u orqasiga o'girilib, bufet tomon yo'l oldi. Malla soch juvon garderobga qarab yugurdi. Pianinochi royalning qopqog'ini yopib qo'ydi.

Omad chopmagan raqqos shoshilmay plashini qo'lga tashladi-da, shlyapasini bostirib kiyib, eshik tomon yo'l oldi. Shu payt uning dimog'iga oshxonaning ishtahani qitiqlovchi hidi urildi: yonidan buterbrod to'la patnis ko'targanicha dastyor bola yugurib o'tdi.

Ko'cha quyosh nurlariga g'arq bo'lgandi. Peshin mahali yaqinlashmoqda edi. O'tkinchilar deyarli ko'rinmasdi. Dizma, ohista qadam tashlaganicha Lazenkiga jo'nadi. Penknaya muyulishiga yetgach, u to'xtab, jiletining cho'ntagidan nikel' tangani oldi.

"Oxirgisi", - deya xayolidan o'tkazdi u.

So'ng papiros sotiladigan kioska yoniga keldi.

- Ikkita "Gran-pri".

Dizma qaytimini sanab oldi-da, beixtiyor yo'lida davom etdi va tramvay bekati oldiga borib to'xtadi. Hassa tutgan allaqanday choh unga xira ko'zlarini tikib turardi. Qo'lida bir talay tugun ushlagan bashang bir xonim tramvayni kutar ekan, yo'ldan ko'zini uzmasdi. Xonimdan sal narida qo'ltig'iga kitob qistirgan bir bola chidamsizlik bilan pitirlab turardi. Uning qo'ltig'idagi narsa aslida kitob bo'lmay, kul rang polotnodan tikilgan papka edi. Bola Dizmaga orqa o'girganida papkaning og'zida xatlar va korrespondensiya topshirilgach, egasidan qo'l qo'ydirilib olinadigan bir dasta kvitansiyalar ko'rindi.

Dizma bolaga qaradi-yu, bir vaqtlar notarius Vinderning huzurida xat tashuvchi bo'lib xizmat qilganida o'zi ham shundan papka ko'tarib yurganini esladi. U paytlar hali urush boshlanmagan edi. O'shandan keyin bir oz vaqt o'tgach, Dizma Liskovda pochta chinovnigi bo'lib ishga o'tgandi. Faqat notariusning konvertlari havo rang bo'lib, bolaning papkasidagi konvertlar esa oq edi.

Bekata to'qqizinchi tramvay kelib to'xtadi. Bola tramvayning to'xtashini kutib o'tirmay, orqa eshikdan sakrab chiqqan edi, papkasi tutqichga ilinib qolib, xatlar sochilib ketdi.

"Shumtakaning omadi bor ekan - bugun yer qup-quruq", - deya xayolidan o'tkazdi raqqos, bola xatlarni qanday terib olayotganini kuzatar ekan.

Tramvay joyidan qo'zg'algan edi, bitta xat zinadan yerga uchib tushdi. Dizma oq konvertni olib, uzoqlashib borayotgan tramvay ortidan qo'l siltadi. Biroq xatlarni papkaga joylash bilan ovora bo'lib qolgan bola hech nimani sezmedi. Silliq qog'ozdan ishlangan konvertga qo'l bilan chiroyli qilib:

Pan rais Artur Rakovetskiyga

Mahalliy Uyazdovskiy xiyoboni, 7.

deb yozib qo'yilgan edi.

Og'zi yopilgan konvertga ikki buklangan bejirimgina kartochka joylab qo'yilgan ekan. Kartochkaniig bir tomoniga fransuz tilida allanimalar yozilgan bo'lib, ikkinchi tomonida, chamasi, xuddi o'sha gapning o'zi polyak tilida bayon etilgandi:

"Ministrlar Sovetining raisi zo'r mamnuniyat bilan Siz pan rais zoti oliylarini Avstriya respublikasining kansleri janobi oliylari sharafiga beriladigan banketga tashrif buyurishlarini iltimos qiladilar. Banket shu yilning 15 iyul' kuni, kech soat sakkizda, Yevropa mehmonxonasining birinchi qavatidagi salonlarda beriladi".

Kartochka pastiga mayda harflar bilan: "Frak, ordenlar", deb yozib qo'yilgan edi.

Dizma adresni yana bir marta o'qib chiqdi: Uyazdovskiy xiyoboni, 7. Olib borib bersa qanday bo'larkin? Zora bir zlotiy berishsa... Kel, undan nima ketdi, Yettinchi uy! Bu bir necha qadam narida-ku, axir.

Uyda turuvchilarning ro'yxatida "A. Rakoveskiy" familiyasining qarshisiga: "kv. B.,- 3, bel'etaj" deb yozib qo'yilgan edi.

Dizma zinadan yuqori ko'tarildi-da, bir necha marta qo'ng'iroq tugmasini bosdi. Bir ozdan so'ng darbon paydo bo'lib, pan raisning chet elga ketganini aytdi.

- Omad chopmasa shunaqa bo'ladi o'zi!

Dizma yelkasini qisdi-da, qo'lida xat bilai uyi tomon jo'nadi.

Oradan qirq minutcha o'tgach, u Lutskaya ko'chasiga yetib bordi-da, har qadamda g'ichirlyaditan taxta zinadan beshinchi qavatga chiqib, eshikni ochdi.

Ichkaridan Dizmaning dimog'ita gup etib qashshoq xonadonning isi urildi: bu yerda piyozdog'ning totli hidi bilan ho'l yo'rgakning achchiq hidi aralashib ketgandi. Burchakdan ayol kishining tovushi eshitildi:

- Eshikni yopsangiz-chi. Bolani shamollatib qo'yasiz! Dizma allanima deb to'ng'illadi-da, shlyapasini yechib, pal'tosini devordagi mixga ildi va deraza yoniga borib o'tirdi.

- Xo'sh, qalay? - so'radi ayol. - Ish topdingizmi?

- Hozircha yo'q.

- Eh, pan Dizma! Bu yerlarda bekorga ovora bo'lib yuribsiz. Sizga necha marta aytdim axir! Qishloqda rizqi ro'zni topish osonroq bo'ladi. Erkaklarning hammasi shunaqa o'zi.

Dizma indamadi. Mana uch oy bo'libdiki, Panskaya ko'chasidagi "Fil" mayxonasi yopilganidan beri u ishsiz yurardi. Mayxonada u harqalay mandolina chalib, kuniga besh zlotiy ishlardi. Bundan tashqari, u yerda kechki ovqati ham tekinga tushardi. Rost, mehnat birjasi uni temir yo'l uzul qurilishiga ishga yubordi. Biroq Dizma u yerda injener bilan ham, master va ishchilar bilan ham chiqisha olmadi. Ikki haftadan so'ng uni ishdan bo'shatib yuborishdi. Liskovda esa...

Ayol ham, chamasi, shu haqda o'ylardi.

- Pan Dizma, shundan ko'ra o'z yurtigingizga, qarindosh-urug'laringizning oldiga jo'naganingiz ma'qul emasmi? U yerda sizga doim ish topiladi.

- Mening hech qanaqa qarindosh-urug'im yo'q, deb aytganman-ku, sizga, pani Valentova.

- O'lib ketishganmi?

- Ha, o'lib ketishgan.

Valentova kartoshkasini artib bo'lib, qozonchasini olovga qo'ydi.

- Varshavaning odamlari yaramaydi, keyin ish topish ham juda qiyin, - deya gap boshladi u yana - Misol uchun erimni oling: haftada atigi uch kun ishlaydi, topgani oziq-ovqatga arang yetadi. Ularning direktori b' oting o'chgur anovi Purmanter, molimiz o'tmayapti, shu boisdan fabrikani butunlay yopib qo'yishsa kerak, deytoganimish. Agar Man'ka bo'lmaganida kvartira haqini ham to'lay olmasdik. Qiz boyoqish qiynalib ketdi, lekin nachora? Agar bir hafta ichida ikkita jazman topmasa...

- Ehtiyot bo'lsin, - ayolning gapini bo'ldi Dizma, - biletsiz ushlab olishsa... Chatoq qilishadi.

Valentova bolasini yo'rgaklab bo'lib, ho'l lattani plita ustiga osib qo'ydi.

- Og'zingizdan yel uchirsin! - dedi zarda bilan u. - Undan ko'ra o'zingizga qarang. Uch haftadan beri pul to'lamay, bekorga joyni egallab yotibsiz. Sizdaqa ijaragirdan o'lgurdimu!

- Qo'rqmang, to'layman, - deya to'ng'illadi Dizma.

- Tuyaning dumi yerga tekkandami. O'n besh zlotiy - deyarli suv tekin... Lekin shuniyam topolmayapsiz. Qayerga bormang, darrov kavushingizni...

- Buni sizga kim aytdi, pani Valentova?

- Buni nimasi sir ekan? O'zingiz Man'kaga aytib beribsiz-ku.

Oraga jimlik cho'kdi.

Dizma deraza tomon o'girilib, qo'shni fligelning suvogi ko'chgan devoriga tikilganicha xayolga botdi. Chindan ham uning omadi yurishmayotgandi. U biror yerda muqim ishlay olmasdi. Dizmani gimnaziyaning to'rtinchi sinfidanoq quloqsiz va yalqovligi uchun haydab yuborishgandi. Notarius Vinder uni boshqalardan ko'proq tutib turgandi. Ehtimol, kichkina Nikodim nemischani oz-moz bilishi - harqalay, qayoqqa yuborishayotganini tushunishi uchun shunday bo'lgandir. Keyin pochta idorasi, arzimasa maosh va boshliqning doimiy do'q-po'pisasi... Urush. Telegraf batal'onining obozida uch yil xizmat qilgan Dizmaning erishgan yagona mansabi yefreytorlik unvoni bo'ldi, xolos. So'ng yana Liskovdagi pochtda xizmat qildi. Pochtdan shtatlar qisqarish bahonasi bilan kavushini to'g'rilab qo'yishgach, cherkov ksendzi uni kutubxonaga ishga kiritib qo'ydi. Biroq u yerda ham Dizma bor-yo'g'i bir qishgina ishladi: aprel' oyidayoq uning kitob javonlarini tartib bilan saqlay bilmasligi ayon bo'lib qoldi.

Harqalay kutubxonada xizmat qilish ancha qiziq edi.

Dizmaning xayolini nariroqda joylashgan fabrikalarning gudogi bo'lib yubordi. U Valentovanning tushki ovqatga dasturxon yozayotganini ko'rib, asta o'rnidan turdi-da, tashqariga chiqib ketdi. Dizma oyog'i sirqirab og'riyotganiga qaramay quyosh taftida qizib ketgai ko'chalarda anchagacha sanqib yurdi. Uyda o'tirib, Valentning to'ng'illashi va Man'kaning pichinglarini eshitishga - eng muhimi esa - ularning qanday ovqatlanishlarini tomosha qilishga uning ortiq toqati, qolmagandi. U ikki kundan beri tuz totmagan edi. Cho'ntagidagi so'nggi pullariga esa faqat papiros olib chekardi.

Kolbasa do'koni yonidan o'tar ekan, Dizma nafasini ichiga yutdi - dudlangan go'shtning hidi uning asabiga yomon ta'sir qila boshlagandi. U oziq-ovqat mahsulotlari chiroyli qilib terib qo'yilgan vitrinalarga qaramaslikka urinardi, biroq ochlik, baribir, borgan sayin ko'proq azob berardi.

Dizma ish topishga umid yo'qligini juda yaxshi tushunardi.

Bundan u cho'chirmidi? Yo'q, sira ham cho'chimasdi. Dizma, baxtiga tasavvur qilish qobiliyatidan mahrum edi. O'z rejalarini u ikki-uch kungagina mo'ljallab tuzardi. Agar o'tgan hafta Dizma soatini sotib kun ko'rgan bo'lsa, kelasi haftada u fragi bilan loklangan botinkasini bozorda pullab hayot kechirishi mumkin edi.

Rost, bu kostyumga pul yig'ish uchun uning ko'pgina narsalardan voz kechishiga to'g'ri kelgan edi; Dizma bu kostyumga katta umid bog'lagandi: axir restoranga tansa boshqaruvchisi bo'lib o'rnatilib olganida yengilgina pul topishi mumkin edi-da. Biroq bir necha urinishi bekor ketganidan so'ng Dizma hech kim uni tansa boshqaruvchiligiga ishga olmasligini tushunib qoldi va sira ikkilanib o'tirmay kishilik kostyumini sotib yuborishga qaror qildi.

Soat otilarga yaqin u qat'iy bir qarorga keldi-da, uyga qarab yo'l oldi.

Uyda faqat qilpillama, qora soch Man'kagina o'tirgan ekan. Chamasi u kechki ovga jo'namoqchi bo'lib turgan ekan shekilli, oyna oldida pardozi qilayotgandi. Qiz uning chamadoniga o'rnatilib olgani boisdan Dizma xalal bermaslik uchun burchakka borib o'tirdi. Man'ka birinchi bo'lib gap ochdi:

- Endi teskari qarab turing: men ko'ylagimni almashtirib olaman.

- Haliyam qarayotganim yo'q, - deya to'ng'illadi Dizma.

- Juda yaxshi. Bo'lmasam ko'zingiz to'yib, keyin qaragingiz kelmay qoladi.

Dizma so'kinib qo'ydi. Qiz sekin kuldi-da, ko'ylagini yechdi. Nikodim chindan ham unga mutlaqo befarq qarardi. Biroq qiz doim uning g'ashiga tegib yurardi. Qani endi iloji bo'lsa-yu, Dizma uning og'zini yopib, kvartiradan chiqarib tashlasa! Man'ka unga negadir o'chakishganday hayosizlik bilan shilqimlik qilardi. Biroq bu hol uning erkaklik izzat-nafsig, insonlik qadr-qimmatiga unchalik tegmasdi ham, chunki bunday izzat-nafsning paydo bo'lishi uchun sharoitning o'zi. yo'q edi. Qadr-qimmat haqida esa Dizma mutlaqo o'ylamasdi. Boz ustiga Nikodim, ijtimoiy nuqtai nazardan qaraganda, o'zi ya'ni "ishsiz ziyoli" bo'lmish bir odam bilan manovi qiz o'rtasida uncha katta farq sezmasdi. Hamma gap shundaki qiz pichinglari bilan uning hayotini zaharlayotgan edi. Bu orada Man'ka boshqa ko'ylagini kiyib, yelkasiga ro'molini tashladi-da, Dizmaning oldiga kelib, yirik-yirik tishlarini ko'rsatib iljaydi.

- Qalay, jonon zo'r bo'libdimi?

- Yo'qol, alvasti! - deya qichqirdi Nikodim g'azab bilan.

Qiz ikki barmog'i bilan uning iyagidan tutgan edi, Dizma uning qo'liga qarab bir urdi.

- Voy, gazanda-ey! - pishilladi bir oz orqaga chekinib qiz. - Muttaham, yalqov! Qo'lini ko'taradi-ya?! Manovi juldurvoqini qaranga!

Man'ka shu yo'sinda uni anchagacha qarg'adi, biroq Dizma unga quloq solmasdi. U chamadonini ochib, frakni qanchaga sotishi mumkinligini chamalamoqchi edi... Harqalay ellik zlotiy berishsa kerak. O'zi uni Kerselyakda yetmish zlotiyga olgan edi.

Loklangan botinkasidan ham sakkiz-o'n zlotiy zarar ko'rsa kerak.

Belanchakda yotgan chaqaloq yig'lay boshlagan edi, qo'shnilarnikiga chiqib ketgan Valentova yugurib keldi. Man'ka shundan keyingina chakagi tinib, eshikni taraqlatib yopganicha tashqariga chiqib ketdi.

Dizma chamadondan frakni oldi.

- Uho', - deya iljaydi Valentova. - Balga bormoqchimisiz yoki to'ygami?

Dizma javob qilmadi. U frak, shimi va nimchasini hafsala bilan taxlab, gazetaga o'radi-da, Valentovadan kanop so'radi.

Shu payt Valent kelib qoldi. Xotini unga olib qo'ygan kartoshkani isita boshlagan edi, xonani yana piyozdog' hidi tutib ketdi.

- Pan Dizma, - so'radi Valent, - Kerselyakka bormoqchimisiz?

- Ha, Kerselyakka. .

- Ammo bugun shanba-ku, Juhudlar yo'q, o'zimiznikilar esa juda kam xarid qilishadi. Mabodo olishsa ham, juda arzon-garovga olishadi.

Qozondagi yog' chirsillab turardi. Nikodim tupugini yutdi.

- Qanchaga olishsa ham mayli, aytganlariga sotaman.

Birdan u cho'ntaklarini qarab ko'rmaganini esladi-yu, darhol tugunni yechdi. Chindan ham shimining cho'ntagida shisha tamakidon bilan frakida dastro'moli qolgan ekan.

Nikodim ularni olib, pidjagining cho'ntagga solgan edi, qo'li allaqanday noma'lum iarsaga tegib ketdi. Karton shekilli...

Hay! Tramvay bekatida topib olgan taklifnoma-ku.

Nikodim yana kartochkani konvertndan olib, o'qib chiqdi. Kutilmaganda uni taklifnomaning tagidagi ilova hayratga soldi. "Frak, ordenlar".

O'zining frakiga qaradi. Banket. Ovqat, mazza qilib to'yib olishi mumkin. Yana hammasi tekin.

"Aqldan ozdim shekilli" - deya o'yladi u. So'ng yana o'qiy boshladi: "Shu yilning 15 iyul' kuni, kech soat sakkizda".

Haligi fikr miyasini chulg'ab olib, sira nari ketmasdi.

- Pan Valent, bugun o'n beshinchimi?

- Ha, o'n beshinchi.

- Hozir soat necha bo'ldi?

- Hali o'n ham bo'ladi, hozircha yetti bo'lib turibdi. Dizma bir minutchaxayolga cho'mib, serrayib qoldi. "Xo'sh, meni pishirib yeyisharmidi? - deya xayolidan o'tkazdi u. - Nari borsa quvib chiqarishadi-da. Lekin u yerda odam ko'p bo'ladi..." Shundan so'ng soqolini olishga tutindi.

Dizma uyezd kutubxonasida ishlab yurgan kezlari iyeshinga yaqin zalda deyarli hech kim bo'lmasdi. Shunda u zerikkanidan kitob o'qiy boshlardi. Ba'zan turli graf va ministrarning uylaridagi ballar va ziyofatlar tasvirlangan kitoblar ham uchrab qolardi. Ularda yozilishiga ko'ra, bunday katta yig'inlarda bir-biriga notanish bo'lgan ko'plab odamlar kelishardi. Demak, uning ham omadi yurishishi mumkin edi. Muhimi - ko'zga tashlanmaslik kerak.

Uy egalari stol yonida kartoshka yeb, choy ichib o'tirishardi.

"Ovqat, juda ko'p ovqat, - deya o'ylardi Dizma, - Go'sht, non, baliq..."

U yuzini yuvib, qattiq sochlarini taradi-da, kraxmallangan ko'ylagini kiydi.

- U to'yga ketyapti deb aytmadimmi senga? - dedi Valentova. Valent Dizmaga ko'z qirini tashladi va xotiniga qarab:

- Ishing bo'lmasin! - deya to'ng'illab qo'ydi. Dizma tor yoqasining tugmasini bir amallab qadadi-da, galstugini taqib, egniga frak kiydi. - Ovqat, juda ko'p ovqat, - shivirladi u.

- Nima dedingiz?

- Hech nima. Xayr, yaxshi qolinglar.

U yo'l-yo'lakay gabardin plashining tugmasini taqib, zinadan pastga tushdi. So'ng nariroqdagi fonar' tagiga borib, ism yozilmaganiga ishonch hosil qilish uchun taklifnomani yana bir bor o'qib chiqdi-da, biletni cho'ntagiga soldi va konvertni yirtib, ariqqa tashladi.

Dizma hali Varshava ko'chalarini yaxshi bilmas edi. Shu boisdan u qaysi yo'ldan borishni o'ylab, bir zum ikkilanib turdi va nihoyat, o'ziga, tanish ko'chalardan yurishga qaror qildi. U Jelyaznaya ko'chasiga burildi-da, Xlodnayadagi muyulishdan kostel tomon yo'l oldi. U yerdan Elektoral'naya ko'chasi bilan Banka maydoni yaqqol ko'rinib turardi.

Ishchilar kvartalida kechki hayot o'z maromi bilan oqmoqda edi. Qovoqxonalaridan garmonikaning bo'g'iq sadolari eshitilar, iflos trotuarlarda pidjaklarini yoqavayron qilib o'smirlar va yosh ishchilar to'da-to'da bo'lib yurishardi. Qizlar uch-to'rttadan bo'lishib, bir birlarini qo'ltiqlaridan ushlaganicha sayr qilishar va nuqul hirlinglashib, allanimalarni pichirlashardi.

Keksaroq ayollar qo'llarida bolalari bilan darvozalar oldida turishar yoki uylaridan olib chiqqan taburetkalarda o'tirishardi.

"Shanba kuni hordiq chiqarishyapti", - xayolidan o'tkazdi Dizma.

Elektoral'nayada ham odam ko'p edi: shanbani bayram qilib yurgan yahudiylar trotuar u yoqda tursin, katta ko'chaga ham tushib ketishgandi.

Dizma Teatr maydoniga yetib borganida ratusha minorasidagi soat sakkizdan besh minut o'tganini ko'rsatib turardi. U qadamini tezlatdi-da, birpasda Yevropa mehmonxonasiga yetib bordi.

Yaltiroq limuzinlar keti uzilmay kelib turardi, ulardan bashang kiyingan erkaklar tushishardi. Xonimlar kun issiqligiga qaramay, yoqalariga mo'yna tutib olishgandi.

Dizma bir zum dovdirab qoldi.

Ishqilib o'zini sezdirib qo'ymasmikin?

Biroq ochlik ustun keldi. Nima bo'lgandayam qorinni to'ydirish kerak! Keyin oldilariga solib quvishsa ham mayli - bunaqa tashvish kimning boshiga tushmabdi deysiz?



Dizma tishini tishiga qo'yib, ichkari kirdi. U ko'zini ochib-yumguncha lakeylar pal'tosi bilan shlyapasini yechib olishdi, allaqanday bir janob esa odob bilan uni zalgacha kuzatib qo'ydi va hatto eshikni ochib ham berdi.

Oppoq keng zal, tim qora fraklar, xonimlarning rang-barang kiyimlari Dizmaning ko'z o'ngida pir-pir aylana boshladi. Atir-upaning hidi va gangir-gungir tovushlar Dizmani esankiratib qo'ygan edi.

U eshik oldida to'xtagan edi, birdan oldida bir janobning ta'zim qilganicha qo'l uzatib turganini ko'rib qoldi. Dizma unga beixtiyor qo'lini cho'zdi.

- O'zimni tanishtirishga ijozat etgaysiz, - dedi haligi janob, - Antonevskiy, bosh ministrning' shaxsiy sekretari bo'laman. Pan bosh ministr nomidan sizga, kelganingiz uchun minnatdorchilik izhor etishga ruxsat etgaysiz. Marhamat, mana zakuskalar...

Shunday dedi-yu, gapini oxirigacha ham yetkazmay, eshikdan kirib kelgan ikki ozg'in chol tomon yo'rg'alab ketdi. Dizma peshanasidagi terni arttdi.

- Xudoga shukur! Endi faqat qo'rqmaslik kerak!..

U endi o'zini bosib, zalga ancha o'rganib qolgan edi. Ba'zi odamlar qo'llarida tarelka tutishganicha uzun stol yonida tamaddi qilishardi, ba'zilar esa kichik-kichik stolchalar yonida o'tirishardi. Dizma ochlikni yengib, mehmonlar o'zlarini qanday tutishayotganini bir oz kuzatishga qaror qildi. So'ng o'zi umri bino bo'lib ko'rmagan ajoyib taomlar terib qo'yilgan stolga ko'z yugurtirdi. Shu tobda u mazkur taomlardan birontasini shartta olib, biror burchakda paqqos tushirgisi keldi. Biroq u o'zini bosib, kuzatishda davom etdi.

Nihoyat, Dizma yurak yutib, tarelka qidira boshladi, Tarelka topgach, unga vilka bilan bir talay salat va pashtet bo'lagini solib oldi. U og'zi so'lakka to'lib, ko'zini tarelkadan uzolmay qolgan edi. Dizma biror panaroq joy topish uchun orqasiga o'girilgan edi, kutilmaganda kimdir tirsagini qattiq turtib yubordi. Qo'lidagi tarelka yerga tushib, chil-chil bo'ldi.

Nikodimni g'azabi qaynab ketdi. Uning oldidan hech nimaga e'tibor bermay allaqanday baqaloq odam o'tib bormoqda edi. U hatto epsizligi uchun o'girilib kechirim so'rashni ham lozim topmadi. Agar Dizma o'zini tuta olganida, ehtimol, bunday haddidan oshmagan bo'lardi. Biroq shu damda u faqat bir narsani: ana shu baqaloqni deb og'zidagi nondan ajrab qolayotganini his etardi... U ikki hatlab aybdorga yetib oldi-da, uning tirsagidan tutdi:

- Ko'zingizga qarab yursangiz bo'lmaydimi, jin ursin sizni! Qo'limdagi tarelkani urib tushiringiz! - dedi u jahl bilan haligi odamga qarab.

Hayrat va hatto qo'rquvdan baqaloqning ko'zi ola-kula bo'lib ketdi. U polga qaradi-da, xijolat chekib, kechirim so'ray boshladi.

Atrofdagi odamlar jimib qolishdi. Yugurib kelgan kel'ner tarelka siniqlarini terib olib, Dizmaga yangisini uzatdi. Dizma qanday tentaklik qilganini hali tushunib ham yetmay, tarelkaga yana salat sola boshladi. Keyin bir chetga o'tib, bir oz o'ziga keldi-da, birdan uni hozirning o'zidayoq oldilariga solib quvishlari mumkinligini tushunib qoldi. Shundan so'ng u ko'proq yeb olish uchun ovqatni chaynamay yuta boshladi.

Bu orada zal mehmonlarga to'lib borardi. Dizma o'ziga hech kim e'tibor bermayotganini ko'rib, birmuncha yengil tortdi. Shundan so'ng u ancha ruhlanib, tarelkasini yana to'ldirib oldi. Keyin oldida kon'yak to'la qadahlar terilgan patnisni ko'rib qoldi-da, ketma-ket ikki qadahni bo'shatdi va o'zini ancha dadil his eta boshladi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, Nikodim uchinchi qadahni qo'lga olgan edi, allakim u bilan qadah urishtirayotganini ko'rib ajablandi. Shu payt kimningdir:

- Siz bilan ichsam maylimi? - deya so'ragani eshitildi.

Dizmaning yonida polkovniq mundirini kiygan, baland bo'yli, qora soch bir odam ma'nodor jilmayib turardi.

Ular qadahlarini bo'shatishgach, polkovnik Dizmaga qo'l uzatdi.

- Vareda.

- Dizma, - xuddi aks sadodek javob qildi Nikodim va uning qo'lini qisdi.

- Tabriklayman sizni, - dedi Dizma tomon egilib polkovnik. - Anovi Terkovskiyi juda qoyillatdingiz-da. Hammasini ko'rib turuvdim.

Dizma qip-qizarib kyotdi.

"Hozir u meni quvib soladi, - deya xayolidan o'tkazdi u. - Lekin tilyog'lamalik qilishiga o'lasanmi!"

- O'sha ahmoqni o'ylaganingizda hozir ham qoningiz qaynab ketyapti, - dedi polkovnik va xaxolab kulib yubordi. - Tabriklayman sizni, pan... Dizma. Anchadan beri hech kim Terkovskiyning bunday adabini bermagan edi. Sizning sog'ligingiz uchun!

- Ahamiyati yo'q! Faqat... salat bilan tarelkaga achinaman!

Vareda yana qah-qah otdi.

- Hazillashyapsiz chog'i! Bu deyman juda askiyachi ekansizu, pan Dizma! Sizning sog'ligingiz uchun! Bilasizmi, - dedi u qadahni patnisga qo'yar ekan, - axir bu juda ajoyib hazil bo'ldi: Terkovskiyning ahamiyati yo'q, salatga achinaman, dedingiz-a!

Polkovnik zavqlanib, tinimsiz qahqaha otardi. Garchi polkovnikning nimadan bunchalik zavqlanayotganini tushunmasa-da, og'zidagi buterbrodini yutishga ulgurmagan Dizma ham unga qo'shilishib kula boshladi.

Vareda Dizmaga papiros uzatdi. Shundan so'ng ikkovi deraza yoniga o'tishdi. Vareda bilan Dizma endigina papiros tutatishgan ham ediki, o'рта bo'yli malla sochlariga oq oralagan, shisha kabi xira yaltirab turgan ko'zlari sovuq bir odam tez-tez yurib, ularning oldiga keldi.

- Vatssek! - deya qichqirdi u. - Papirosingdan cho'z. O'zimmikini unutib qoldiribman.

Polkovnik yana cho'ntagidan kumush portsigarini chiqardi.

- Marhamat. Tanishtirishga ijozat ber: pan Dizma! Pan ministr Yashunskiy!

Dizmaning yuragi orqasiga tortib ketdi: u umri bino bo'lib, hali ministrni ko'rmagan edi. Liskovdagi pochta idorasida ministr to'g'risida gaplashishgan kezlari bu so'z u yerdagi kishilar tasavvurida qandaydir xayoliy, mavhum, juda yiroq va yetib bo'lmaydigan bir tushuncha sifatida namoyon bo'lardi... Nikodim zo'r ehtirom bilan ministrning qo'lini qisdi.

- Tasavvur qilgin-a, - dedi polkovnik, - pan Dizma hozir anovi ahmoq Terkovskiyi rosa bopladi-da.

- Ah! O'sha odam sizmisiz? Buni qarang-a! - jonlanib ketdi ministr. - Eshitdim, eshitdim. Xo'sh-xo'sh!

- Bunisiyam mayli-ya, - deya davom etdi polkovnik, - men pan Dizmani tabriklagan edim, u bo'lsa: "Terkovskiyning ahamiyati yo'q, salatga achinaman!" deb javob qildi. Tasavvur qilgin-a: salatga!

Ikkovi qahqaha otib kulishdi. Dizma ham beixtiyor ularga qo'shilib kula boshladi. Shunda ministr birdan jimib qoldi-da, ma'nodor qilib dedi:

- O'zbiarmon odamlarning ahvoli shunaqa bo'ladi. Hech kimni pisand qilmay qo'ygan edi, hayvon. Endi bo'lsa...

- Salatga ham arzimam ekan! - deya gapni olib ketdi polkovnik Vareda.

Hammasi yana xaxolab kulib yubordi, ministr esa Dizmaning qo'ltig'idan tutib, quvnoqlik bilan dedi:

- Harqalay, sizni chin yurakdan tabriklayman, pan Dizma. Chin yurakdan. Agar mamlakatimizda ahmoqlarning dodini beradigan siz kabi kishilar ko'proq bo'lganida, ahvolimiz butunlay boshqacha bo'lardi. Ha, bizga kuchli odamlar kerak.

Ularning yoniga yana bir necha erkak kelib, suhbat qizib ketdi.

Dizma o'zini bosib olgandi. To'qlik va uch-to'rt qadah kon'yak ta'sirida uning asablari ancha joyiga tushgan edi. Avvaliga u, meni bironta odamga o'xshatishyapti, deb o'yladi. Kim bilsin, ehtimol, Varshavada u bilan familiyasi bir xil bo'lgan biror qarindoshi bordir? Biroq keyin u, bular allaqanday Terkovskiyini koyib berganim uchun meni o'zimizning odam hisoblashyapti, degan qarorga keldi. Kim ekan o'sha Terkovskiy? U ham biror mansabdor bo'lsa kerak-da, albatta!

Shularni o'ylar ekan, Dizma tezroq juftakni rostlashga qaror qildi. Nikodimni, ayniqsa, nariroqda uni diqqat bilan kuzatib turgan kekxa bir janob tashvishga solib qo'ygan edi. O'sha janob Dizmaning yuziga qarash uchun hatto bir-ikki marta uning atrofidan aylanib ham o'tdi.

"Obbo la'nati! Bu aljigan cholga nima kerak o'zi?"

Tezda bu savolga javob ham topildi. Kekxa janob yonidan o'tib ketayotgan kel'nerni to'xtatdi-da, Dizma tomon bosh irg'ab, unga allanima dedi. Kel'ner unga ta'zim qilib, Dizmaning yoniga keldi.

- Sizdan bir minutga e'tibor berishingizni iltimos qilishyapti. .

O'zga chora qolmagandi. Juftakni rostlash haqida o'ylamasam ham bo'lardi. Nikodim cholga xo'mrayib qaradi-da, oldinga qarab yurdi. Biroq chol og'zining tanobi qochib, jilmayganicha bidirlay ketdi:

- Meni afv etasiz, agar yanglishmasam, siz bilan bultur Krakovda, sanoatchilar s'ezdida tanishish sharafiga muyassar bo'lgan edim. Yodingizdami? Aprel' oyi edi... Deon Kunitskiy...

Chol kichkina qaltiroq qo'lini xiralik bilan Dizmaga uzatdi.

- Deon Kunitskiy!

- Nikodim Dizma! Siz yanglishyapsiz: Krakovda hech qachon bo'lgan emasman. Meni bironta odamga o'xshatyapsiz shekilli.

Chol kechirim so'rab shunday bidirlay boshladiki, Dizma uning gapini arang tushunib oldi.

- Ha, ha, albatta, chollarning ko'zi o'tmas bo'ladi... Parishonxotirligim uchun kechirasiz, lekin baribir g'oyat xursandman. Bu yerda tanishlarim deyarli yo'q desam bo'ladi. Ikki og'iz gaplashishga birorta odam topilmasa-ya! Bir ishni hal qilishim kerak edi, shu boisdan ham bir oshnamdan taklifnoma toinb berishni iltimos qildim, lekin yolg'izlik qursin... Sizni ko'rib juda xursand bo'lib ketdim, - deya jag'i jag'iga tegmay bidirladi chol, - ha juda xursand bo'lib ketdim. Boz ustiga qishloq xo'jaligi ministri bilan yaqin aloqada ekansiz. Shundan keyin: tanishim-ku... yaxshilik qilib, pan ministr Yashunskiyga meni tanitib qo'yar, deb o'yladim. Ammo yanglishibman, meni kechirasiz!

- Hechqisi yo'q.

- O, yo'q, pan ministr bilan suhbatingizni bo'lib qo'ydim. Bilasizmi, men provinsiyada yashaydigan oddiy bir odamman. Biz qishloqlar shunaqa sodda, betakalluf bo'lamiz.

"Obbo, bunchya vaysamasa", - deya xayolidan o'tkazdi Dizma.

- Bir qoshiq qonimdan kechasizu, - Nikodimni o'z holiga qo'nmay davom etdi Kunitskiy, - kekxa bir odamga bitta yaxshilik qilmaysizmi?

- Qanaqa yaxshilik? - ajablandi Dizma.

- Mayli, mayli, xiralik qilmayman, lekin siz, pan Dizma, aytaylik, meni pan ministrga tanishtirib qo'yganingizda, u kishi meni o'z do'stining yaqin odami, deb hnsoblardi.

- Do'stining deysizmi? - ochiqdan-ochiq ajablandi Dizma.

- Xe-xe-xe!.. Yo'q demang, muhtaram do'stim: sizning pan ministr bilan suhbatingizni o'z qulog'im bilan eshitdim. O'zim keksayib, ko'zim xiralashib qolgan bo'lsa-da, qulog'im juda yaxshi eshitadi. Meni tanishtirib qo'ysangiz bas, u yog'ini... Masalan, pan ministrga: "Azizim pan ministr, ruxsat bering, sizga yaxshi tanishim Leon Kunitskiyini tanishtirib qo'yay..." - desangiz bormi, juda ajoyib ish bo'lardi-da!..

- Nimalar deyapsiz, pan Kunitskiy... - e'tiroz bildirdi Dizma.

- Xiralik qilmayman, xiralik qilmayman... xe-xe-xe!.. Lekin sizdan g'oyat minnatdor bo'lardim. Siz uchun bu juda oson-ku, shunday emasmi?

Qo'shni zal eshigi ochilgan edi, mehmonlarning bari o'sha yoqqa yura boshlashdi. Dizmaning yonidan o'tar ekan, ministr Yashunskiy jilmayib qo'ydi va hamrohlariga qarab dedi:

- Bugungi kechening qahramoni.B :

Shu payt Kunitskiy Dizmani xiyol itarib oldinga o'tkazdi-da, o'zi ta'zim qilganicha qotib qoldi. Nikodim beixtiyor:

- Sizga do'stim pan Kunitskiyini tanishtirishga ijozat etgaysiz, - deb yubordi.

Yashunskiyning' ajablanganligi yuzidan shundoq sezilib turardi. Ministr og'iz ochishga ham ulgurmay Kunitskiy uning qo'lidan tutib, bidirlay ketdi: u shunday ajoyib davlat arbobi bilai tanishishdan juda baxtiyor emish. Vatan, ayniqsa, qishloq xo'jaligi va jumladan, o'rmonchilik oldida pan ministrning xizmatlari g'oyat katta ekan; Kunitskiy o'la-o'lguncha shu baxtiyor damni unutmasmish, chunki ziroatchi va yog'och tilish korxonalarining egasi sifatida bu xizmatlarning qadrini bilarmish, biroq afsuski, pan ministrning qo'l ostidagi hamma odamlar ham uning buyuk rahbar g'oyalarini to'g'ri tushunishavermas emish, lekin shunga qaramay bunga erishsa bo'lar ekan; shu boisdan ham u, ya'ni Kunitskiy uni pan ministrga tanitib qo'ygani uchun muhtaram pan Dizmadan g'oyat minnatdor emish.

Chol shu qadar tinimsiz bidirlar ediki, g'oyat ajablangan ministr faqat:

- Juda xursandman, - deyishga ulgurdi.

Biroq shilqim chol Yerodno viloyatidagi davlat o'rmonlari va allaqanday yog'och zavodlari haqida og'iz ochgan edi, ministr darhol uning gapini bo'ldi:

- Hech bo'lmasam banketda meni shu ishlardan tinch qo'ying. Bo'lmasam ministrlkda qiladigan ishim qolmaydi.

U Dizma bilan qo'l berib xayrlashdi-da, Kunitskiyga bosh irg'ab, zalga kirib ketdi.

- Juda metin ekanu bu ministringiz, - deya gap qotdi Kunitskiy. - Uni shunday odam deb sira o'ylamagan edim. O'zi doim shunaqami?

- Doim shunaqa, - har ehtimolga qarshi javob qildi Dizma.

Rasmiy tantanalar tugab, mehmonlarni restoranga taklif qilishdi.

Chol Dizmaga yopishib oldi. Ziyofatda ham u Nikodimning yonida tinmay gapirib o'tirdi. Dizmaning boshi aylanib ketdi. To'g'ri, bunga kon'yak bilan ikki-uch qadah vino ichgani sabab bo'lsa kerak. G'oyat charchaganidan uning uyquasi kela boshladi. Garchp qorni to'q bo'lsa-da, o'qin-o'qin yana ovqat yeyishga va ichkilik ichishga to'g'ri kelar, bundan esa u qattiq azoblanar edi. Dizma Lutskayadagi uyiga qaytib, deraza oldidagi buklama koykasida qanday huzur qilib uxlashi to'g'risida o'ylay boshladi. Ertaga yakshanba - harqalay soat o'nlargacha uyg'otishmasa kerak. Biroq Kunitskiy uning qo'ltig'idan tutdi.

- Menga qarang, azizim, soat endi o'n bir bo'libdi. Keling, bir qadah-bir qadah ajoyib venger vinosidan ichaylik. Men shu yerda, Yevropa mehmonxonasining ikkinchi qavatidan nomer olganman. Iltimos qilaman. Xo'sh, azizim pay Dizma, yo'q demaysiz-a! Qitdek-qitdek vino ichib, tinchgina xonada o'tiramiz... A? Xo'p deng, ko'p emas, yarim soat, chorak soat...

Shunday deya chol Dizmani deyarli surgab o'z xonasiga boshladi. Ular vestibulga chiqishib, tezda kenggina nomerga kirishdi. Kunitskiy telefon qilib, venger vinosidan keltirishni buyurdi.

Bu orada pastdagi oynaband aylanma eshik har aylanishida silindr kiygan erkaklar va bashang xonimlarni purkab chiqarmoqda edi. Trotuar chetida turgan shveysar:

- Pan Yashunskiyning mashinalari - deya qichqirdi.

Yaltiroq limuzin eshik oldiga kelib to'xtadi.

- Menga qara, Vatsek, Terkovskiyini boplagan anovi oshnangning familiyasi nima edi? - so'radi ministr polkovnik Vareda bilan xayrlashar ekan.

- Quling o'rgilsin yigit! - dedi qat'yy ohangda oyog'ida arang turgan polkovnik. - Familiyasi Dizma. Juda qoyillatdi-da o'ziyam.

- Kunitskiy bilan do'stligidan pomeshchik yoki sanoatchi bo'lsa kerak. O'sha Qunitskiy shpal yetkazib berish munosabati bilan bir sudlashgan edi.

- Aytyapman-ku senga: shovvoz yigit! Uncha-muncha odamga gap bermaydi.

- Ha, rost aytasan, kuchli karakter. Frenologiyaga ishonaman. Peshanasi va pastki jag'i turtib chiqqan. Frenologiyada gap ko'p. Xo'p, salomat bo'l.

Motor gurillab, eshiklar sharaqlab yopildi. Polkovnik trotuarda yolg'iz qoldi.

- Nima balo, jin urgurning kayfi oshib qolganmi, - derdi o'ziga-o'zi Vareda. - Xarakterning xronologiyaga nima aloqasi bor?

## 2-bob

Yashil abajurli stol lamslasi baxmal dasturxonidagi sigara solingan quti, mog'or bosgan shisha va qahrabo rangli suyuqlik to'la ikkita qadah qo'yilgan kichik bir doirani yoritib turardi. G'ira-shira qorong'ilikda xonadagi anjomlarning tarxi ko'zga arang chalinardi.

Dizma o'zini yumshoq kresloga tashlab, ko'zini xiyol yumdi. Boya yegan ovqatlari endi uni lohas qilmoqda edi. Agar stolning narigi yog'ida nimjon suhbatdoshining oppoq yoqasi va bir dona ham qora tolasi qolmagan sochlari lipillab turmaganida, Nikodim cholning xuddi marjoklarni ipga terayotgandek bir maromda so'zlashidan uxlab qolishi turgan gap edi.

Kunitskiy nim qorong'ida kichkina va o'tkir ko'zlarini Dizmaning' ko'zidan uzmay tinimsiz gapirmoqda edi.

- Ana shunaqa, provinsiyadagi mayda chinovniklar dastidan o'lar bo'lsak o'lib bo'ldik. Qachon qarasang tirg'ilishgani tirg'ilishgan. Nuqul sirkulyar va ustavlarni pesh qilishadi. Hammasi meni xonavayron qilib, ishchilarimni bir burda nondan mahrum qilish payida. Pan Dizma, o'lay agar, meni faqat siz qutqarishingiz mumkin.

- Men-a? - ajablendi Dizma.

- Ha, siz, - ishonch bilan takrorladi Kunitskiy. - Ishonasizmi, shu ish bilan Varshavaga to'rtinchi bor kelishim. Shuning uchun: agar bu gal ham o'sha befarosat, o'sha lo'ttivoz Ol'shevskiyini yenga olmasam, agar ministrlkda davlat o'rmonlaridan durustroq shart bilan yog'och olishga erisholmasam, hamma ishga chek qo'yaman, degan qarorga keldim! Hammasining bahridan o'taman!

Yahudiyilarga taxta tiladigan, mebel', qog'oz va sellyuloza ishlab chiqaradigan barcha fabrikalarimyai sotib yuboraman. Mayli, aytganlariga ola qolishsin. Keyin ahvolim nima kechadi bilmayman. Ehtimol, o'zimni o'zim otib tashlasam kerak! Sizning sog'lig'ingiz uchun, pan Dizma, - deya gapini tugatdi Kunitskiy va qadahdagi vinoni bir simirishda ichib yubordi.

- Lekin sizga qanday yordam berishim mumkin?

- Xe-xe-xe! Hazillashyapsiz, azizim. Xiyol ezgulik qilsangiz bas, xiyolgina... O, kechirasiz, buning uchun qimmatbaho vaqtingiz sarflanishini juda yaxshi tushunaman, keyin... turli xarajatlar degandek Ammo, sizning aloqalaringiz bilan... e-he!

U stulini Nikodimga yaqinroq surib o'tirdi-da, butunlay boshqacha ohangda davom etdi:

- Ochig'ini aytay - agar oldimda bexosdan bir sehrgar paydo bo'lib: "Kunitskiy! Hamma ishingni to'g'rilyaman, anovi ahmoq Ol'shevskinni ketiga tepib, haydayman-da, o'rniga gapga ko'nadigan odamni tayinlayman, keyin senga istaganingcha yog'och undiraman... Buning evaziga sen nima berasan?" - desa, men sira ham o'ylab o'tirmay: "O sehrgar! O'ttiz ming, boring o'ttiz besh mingni naqd sanab beraman! Xudo haqqi! O'n mingini shu yerdayoq, qolganini ish bitgandan keyin", - degan bo'lardim.

Kunitskiy Dizmaning javobini kuta boshladi. Biroq Nikodim indamay o'tirardi. U Kunitskiy o'ziga pora taklif qilayotganini tushunib qoldi. Holbuki, u ya'ni Nikodim Dizma hatto oyog'i qolib, boshi bilan yurgan taqdirda ham cholning iltimosini bajo keltirolmagan bo'lardi. Dizma orzu qilish u yoqda tursin, hatto tasavvur ham qilolmaydigan bunday katta pul ushbu bitimning xom xayolligidan dalolat berib turardi. Agar Kunitskiy unga to'rt yuz-besh yuz zlotiy taklif qilganida edi, butun ish o'zining tabiiyligini yo'qotib, Dizmaga cholni chuv tushirib ketish uchun qulay imkoniyat bo'lib ko'ringan bo'lardi. Nikodim hatto borib hammasini politsiyaga aytaman, deb cholni qo'rqitsammikii, degan xayolga ham bordi. Zora qutulib ketish uchun ellik-oltmish zlotiy bersa. Liskovda mayda ishlarni ko'ruvchi sudning kotibi Yurchak shu yo'sinda yuz zlotiy ishlab olgan edi. Ammo kotibning yo'rig'i boshqa: u o'z idorasida o'tiradi, mansabdor odam...

Dizmaning bunday sukut saqlashi Kunitskiyini dovdiratib qo'ydi: u nima deb o'ylashini ham bilmay qolgan edi. Ishqilib, haddidan oshirib yubormadimikan? Dizma buni haqorat deb tushunsa-ya? Axir bu halokat degan gap. Kunitskiy shu ishni deb anchagina odamlarni o'rta solib ko'rgan, ko'p vaqtini sarflab, pulni ham ayamagan edi. Endi bo'lsa dard ustiga chipqon deganlaridek Chol shu zahoti xatosini tuzatib, suhbatdoshining ko'nglini olishga qaror qildi.

- Ha, albatta, hozirgi zamonda sehrgarlar qayda deysiz, xe-xe-xe... Keyin senga xayrixoh bo'lgan eng yaqin do'stingdan ham o'z ko'zi bilan ko'rmagan ishlarni to'g'rilab berish haqida iltimos qilish mumkin emas. Shunday emasmi axir?

- Albatta.

- Menga qarang! Miyamga bir fikr kelib qoldi! Pan Dizma, azizim, mendan iltifotingizni ayamay, bir necha haftaga Koborovoga borsangiz. Qishloqda dam olib, bir oz ko'ngil ochasiz... Ajoyib havo, ot minib sayr qilasiz, ko'lda motorli qayig'im bor... Ayni paytda mening xo'jaligim bilan tanishasiz, taxta tilish zavodini ko'rasiz... Xo'sh, otaxon, kelishdikmi?



Bu yangi taklifdan Dizmaning og'zi ochilib qoldi.

Kunitskiy esa qistasdan to'xtamasdi, nuqul qishloqda, qarag'ayzorda dam olishning afzalliklari haqida og'iz ko'pirtirardi. Boz ustiga uing xonimlari ham poytaxtdan kelgan mehmon uchun undan g'oyat minnatdor bo'lisharmish.

- Lekin, pan Kunitskiy, - deya uning gapini bo'ldi Dizma, - men dam olish go'g'risida o'ylamasam ham bo'ladi! Busiz ham juda ko'p dam olayman.

- O, dam olish hech qachon ortiqchalik qilmaydi!

- Men ishsizman, - alam bilan iljaydi Dizma.

U cholning endi hafsalasi pir bo'lsa kerak, deb o'ylagan edi. Biroq Kunitskiy ajablanish o'rniga xaxolab kulib yubordi.

- Xe-xe-xe! Juda hazilkash ekansizu! Ishsiz emish-a! Ha, albatta, savdo va sanoat sohasida hozir yaxshi joy topish qiyin. Davlat xizmatining esa izzati ko'pu, puli kam. Hatto baland martabali chinovniklarning ham maoshini yaxshi deb bo'lmaydi.

- Bundan mening ham qisman xabarim bor, - deya uning gapini tasdiqladi Dizma, - o'zim ham uch yil davlat xizmatida bo'lganman.

To'satdan Kunitskiyning miyasiga bir fikr kelib qoldi.

"Juda usta ekansanu, birodar, - deya xayolidan o'tkazdi u. - Agar tekinga olishni istamasang yanayam yaxshi".

- Azizim, pan Dizma! Siz bilai tanishgan zahotim, negadir bu odamni menga xudo yetkazdi, deb o'ylagan edim. Zora shu fikrim rost chiqsa! Pan Dizma, qadrdonim pan Nikodim, ikkovimizning ham ishimiz o'ngidan kelyapti! Siz durustroq ish qidirayotgan ekansiz, men esa shunday yoshga yetdimki, kundan-kun madorim qurib boryapti. Hurmatli do'stim! Beodobligim uchun jahlingiz chiqmasin... Lekin aytaylik... mening yer-mulkim va fabrikalarimni boshqarishni o'z zimmangizga olishni taklif qilsam, nima deysiz! Siz buni oson ish deb o'ylamang. Xo'jaligim juda katta, oxirini ko'z ilg'atmaydi!

- Bilmadim, eplay olarmikinman. Axir bu sohada hech nimani tushunmayman, - deya ochiqdan-ochiq iqror bo'ldi Dizma.

- O, siz tezda o'rganib ketasiz, - e'tiroz bildirdi Kunitskiy. - Aytmoqchi, fabrikalarni o'zim bir amallab eplayman. Lekin doim u yoq-bu yoqqa borib, turli idoralarda ish bitirish, qandaydir Ol'shevskiyning iltifotiga sazovor bo'lish uchun o'lib-tirilish, ministrliklardagi odamlar bilan kelishish uchun qartayib qoldim. Bunaqa ishlar uchun kattalar bilan aloqasi yaxshi bo'lgan, uni ko'rganda turli Ol'shevskiyalar pisib qoladigan g'ayratliroq odam kerak. Keyin u mendan yoshroq bo'lishi lozim. Siz hali qirqqa ham kirmagai bo'lsangiz kerak?

- O'ttiz oltiga to'ldim.

- Ayni ishlaydigan paytingiz ekan! Azizim, yo'q demang: qulay xonalarda turasiz - istasangiz bizning uyimizda, istasangiz alohida fligelda yashayverasiz. Otlar, mashina sizning ixtiyoringizda bo'ladi. Oshpazlarimiz ham juda yaxshi. Keyin shaharga juda yaqin. Varshavadagi do'stlaringizni ko'rgingiz kelib qolsa - marhamat, g'izillab tushib chiqaverasiz. Shartiga kelsak - tortinmang, o'zingiz taklif qilavering.

- Hm, - deya mingirladi Dizma, - nima deyishimni ham bilmay qoldim.

- Masalan, bunday deylik: o'zingiz erishgan foydaning o'ttiz protsentidan iborat tant'ema . Qelishdikmi?

- Kelishdik, - deya bosh irg'adi Dizma, nimaga rozi bo'layotganini o'zi ham yaxshi tushunmay.

- Maoshingiz esa, aytaylik, oyiga ikki ming zlotiy bo'ladi.

- Qancha? - ajablanib so'radi Dizma.

- Hay mayli, ikki ming besh yuz bo'la qolsin. Bundan tashqari, yo'l xarajatlari alohida to'lanadi. Kelishdik-a? Qo'lingizni tashlang! Dizma beixtiyor cholning qo'lini qisib qo'ydi. Yuziga qon yugurib, og'zining tanobi qochgan Kunitskiy esa bu orada katta avtoruchkasini chiqarib bir zum ham gapirishdan to'xtamay, bir parcha qog'ozni mayda harflar bilan to'ldirdi-da, Dizmaga uzatdi. Pan Nikodim qog'ozga o'zi bir vaqtlar ixtiro etgan jimjimador imzosini qo'yar ekan, Kunitskiy semiz karmonidan shildiroq pullarni sanab chiqara boshladi.

- Mana, marhamat, besh ming avans. Endi esa... Shunday deya u Nikodimning Koborovoga borish shartlarini muhokama qila ketdi. Koridorda Dizmaning qadam tovushlari tingandan so'ng bir necha minut o'tgach, Kunitskiy xonaning o'rtasiga kelib to'xtadi-da, qo'llarini bir-biriga ishqaganicha shivirladi:

- Xo'sh, qariya Kunitskiy, endiyam birov seni ishning ko'zini bilmaydi, deb ko'rsin-chi!

Chindan ham Leon Kunitskiy o'zining uddaburonligi bilan nom chiqargan edi: u kamdan-kam yanglishar va ko'ngliga tugib qo'ygan ishini paysalga solib o'tirmay, darhol amalga oshirardi.

Tong ota boshladi. Bo'zara boshlagan osmonning u yer-bu yerida so'nib borayotgan yulduzlar xirag'ina miltirab turardi. Yo'lning ikki chetida saf tortgan fonarlar zaifgina yog'du sochardi.

Nikodim shahar bo'ylab borar ekan, qadam tovushi bo'm-bo'sh ko'chada bo'g'iq aks sado berardi.

Taassurotlar uning miyasida xuddi kalyoydoskopa'dagi shisha iarchalari kabi ayqash-uyqash bo'lib ketgan edi. U sodir bo'lgan voqealarning o'zi uchun g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligini tushunardi, biroq bu voqealarning mohiyatini anglab yetishga o'zlik qilardi. Nikodim kutilmaganda boshiga baxt qushi qo'nganini his etardi, ammo uning qayerdan uchib kelgani, buning ma'nisi nima ekanligini tushunolmay boshi qotardi.

Dizma bu haqida o'ylaganini sayin o'sha voqealr unga haqiqatga to'g'ri kelmaydigan g'aroyib bir narsadek tuyulardi.

U o'qtin-o'qtin cho'chib to'xtardi-da, qo'lini asta cho'ntagiga tiqib, haligi bir dasta pulni paypaslar va jilmayib qo'yar edi. Birdan u o'zining juda ham boyib ketganini anglab qoldi. U yo'l chetidagi bir darvozaxonaga kirdi-da, pulini sanay boshladi. Yo parvardigor! Naqd, besh ming zlotiy-a!

- Mana buni o'lja desa bo'ladi! - deb yubordi u. Ko'p yillik sarsongarchilikda orttirgan odati, tabiiy, uning dilida: yuvish kerak, degan fikrni uyg'otdi. Shundan so'ng na ovqat yegisi, na ichkilik ichgisi kelayotgan bo'lsa-da, Dizma Gribovskaya ko'chasiga burildi: bu mahalda Itsekning pivoxonasi ochiq bo'lishini u yaxshi bilardi. U ehtiyotkorlik yuzasidan yuz zlotiylikni olib, boshqa cho'ntagiga soldi. Itsekning pivoxonasida katta pulni ko'rsatish xavfli edi.

Hali vaqt juda erta bo'lishiga qaramay pivoxona gavjum ekan. Izvoshchilar, taksi shoferlari, yopilgan restoranlarning kel'nerlari, o'z "qayliqlarining" tungi ish haqiga ichayotgan tekinxo'rlar, muvaffaqiyatli "yurishlardan" qaytgan daydilar uncha katta bo'lmagan ikki xonani to'ldirib yuborishgandi. Hamma yoqdan g'ovur-g'uvur gaplar, idish-tovoqlarning chaqir-chuquri eshitilib turardi.

Nikodim ikki qadah aroq ichdi-da, ustidan cho'chqa go'shtidan pishirilgan sovuq kotlet bilan tuzlangan bodring yedi. Shu payt u bugun yakshanba bo'lib, Valentning ishga bormasligini eslab qoldi.

"Mayli, juldurvoqilar ziyoli odamning qanaqa bo'lishini ko'rib qo'yishsin", - deya xayolidan o'tkazdi Dizma.

U bir shisha aroq bilan bir kilo kolbasa oldi-da, qaytimini hafsala bilan sanab, cho'ntagiga solgach, tashqariga chiqdi. Lutskaya

ko'chasiga yetay deb qolganida, u birdan Man'kani ko'rib qoldi. Qiz devorga suyanganicha bir nuqtaga tikilib turardi. Nikodim negadir bu uchrashuvdan xursand bo'lib ketdi.

- Salom, panna Manya! - deya qichqirdi u quvnoqlik bilan.

- Salom, - javob berdi qiz unga ajablanib qarar ekan. - Ha, nega tunda sanqib yuribsiz?

- O'zingiz nega uxlagani bormayapsiz?

- Hozir boraman, - g'amginlik bilan javob qildi Man'ka.

Dizma diqqat bilan unga qarab qo'ydi. Shu tobda qiz unga odatdagidan ko'hlikroq ko'rinib ketdi. To'g'ri, ozg'inroq, lekin ancha xushqomat. "Yoshi nechadaykin? - deya o'yladi u. - Nari borsa o'n yettida bo'lsa kerak".

- Ha, buncha ma'yussiz?

Qiz yelkasini qisib qo'ydi.

- Agar uch kundan beri kechalari itdek ko'cha izg'ib, bir tiyin ham ishlayolmasangiz, siz ham xureandchilikdan sakramagan bo'lardingiz.

Dizma o'ng'aysiz ahvolga tushib qoddi. U qo'lini cho'ntagiga tiqib bir nechta o'n zlotiylik chiqardn.

- Men sizga qarz berib turaman, panna Manya, Yigirma zlotiy yetadimi?

Qiz pulga ajablanib tikilib qoldi. U kecha Dizmaning sariq chaqasi ham qolmaganidan xabardor edi. Shuncha pulni endi qayoqdan oldiykin? O'g'irlagan bo'lsa kerak-da. Ehtimol, kechqurun shuning uchun ham frak kiygandir. "Aytmoqchi, - deya xayolidan o'tqazdi qiz, - bu bilan mening nima ishim bor?".

Nikodim unga yigirma zlotiy uzatdi.

- Mana, oling!

Man'ka bosh chayqadi.

- Olmayman. Keyin qaytarishga pulim yo'q.

- Olavering, qaytarmasangiz ham mayli.

- Istamayman, - dedi qovog'ini solib qiz. - Sizdaqa bankirdan o'lgurdimu!

Keyin chetga qarab, ohista dedi:

- Agar... Tekinga olmayman... Agar men bilan borsangiz - boshqa gap.

- E-e, - deya ming'irladi Dizma va qizarib ketdi. Man'ka uning ko'zlariga qaradi...

- Nima, yoqmaymanmi?

- Nega endi...

- Satqai erkak keting-e! - dedi bexosdan zarda bilan qiz. - He, latta!

Man'ka teskari o'girilib, asta uyi tomon yo'l oldi.

- Panna Manya! - qichqirdi uning ortidan Nikodim.

- Shoshmang. Bo'пти, boramiz.

Qiz uning yetib kelishini kutib turdi-da, so'ng dedi: - Nomer uchun yana besh zlotiy to'laysiz.

- Yaxshi.

Ular indamay tor ko'chalardan yurib ketishdi.

Egniga duxoba nimcha kiygan, uyqusirayotgan barzangi eshikni ochib, ularni tor va iflos nomerga boshlab kirdi-da, qo'lini cho'zdi. Dizma unga besh zlotiy uzatdi.

Eskiligidan titilib ketgan kul rang darparda ortidan quyosh nurlari tushib turardi. Nomer dimiqib ketdi. Dimoqqa zax va irkit bir narsaning hidi urilardi.

- Derazani ochib yuborsakmikin? - deb taklif qildi Man'ka.

- Kech bo'lib qoldi. Uyga borish kerak. Soat ham o'n bo'lgandir, - deb javob berdi Dizma.

Man'ka kichkina ko'zgu oldida tishi singan taroq bilan qalin qora sochlarini taramoqda edi.

- Ish topdingizmi? - so'radi u loqaydlik bilan. Shu payt Dizmaning birdan Man'kaga o'zini ko'rsatgisi kelib qoldi. U cho'ntagidan hamma pulini chiqardi-da, stol ustiga yoyib qo'ydi. So'ng jilmayib:

- Bu yoqqa bir qara-chi, - dedi.

Man'ka o'girilib qaradi-yu, ko'zlari qinidan chiqib ketay dedi. U pulga yeb qo'ygudek bo'lib tikilib turardi.

- Shuncha pul-a... Shuncha pul-a... Tag'in hammasi besh yuztalik... Yo parvardigor!

Nikodim qizga pullariing qanday ta'sir etganini ko'rib huzur qilmoqda edi. Man'ka unipg qo'lidan ushladi.

- Menga qara! Sen "ov"da bo'ldingmi? - uning tovushidan qoyil qolgani shundoq sezilib turardi.

Dizma kulib yubordi va hazillashgisi kelib:

- Ha, - deya javob qildi.

Man'ka barmoqlarining uchini ohista pulga tekkizdi.

- Qani ayt-chi... ayt-chi... - deya shivirladi u, - sen odam o'ldirdingmi?

Dizma bosh irg'adi.

Man'ka indamadi. Biroq uning ko'zlaridan cho'chib ketgani va qoyil qolgani shundoq sezilib turardi. U doim jimgina yuradigai lapashang bo'lib ko'ringan Dizmani shunaqa odam deb xayoliga ham keltirmagan edi...

- Pichoq bilanmi?

- Ha, pichoq bilan.

- Qiyin bo'ldimi?

- Be... miq etishga ham ulgurmadi.

Qiz bosh chayqadi

- Rosa puldor ekan-da!.. Balki, juhuddir?

- Ha, juhud edi.

- Sirayam o'ylamagan edim...

- Nimani o'ylamagan eding? - so'radi Dizma va pullarin yig'ishtirib ola boshladi.

- Sening shunaqaligingni-da...

- Qanaqa ekanman?

- Shunaqa-da...



Qiz birdan Dizmaning pinjiga tiqildi.

- Seni ushlab olishmaydimi?

- Qo'rqma, vaqtida juftakni rostlab qolaman.

- Seni hech kim ko'rmadimi? Balki, biror iz-piz qoldirgandirsan? Fir'avnlr hatto barmoq izidan ham topib olishlari mumkin.

- Meni ushlasha olmaydi.

- O'ziyam rosa dahshatli bo'lgandir-a?

Dizma kulib yubordi.

- Eslab o'tirishga arzimaydi. Yur, uyga ketdik. Ma, manoviga ko'ylak sotib ol.

Shunday deya u Man'kaning oldiga yuz zlotiy qo'ydi. Qiz uning bo'ynidan quchoqlab, lablaridan o'pa boshladi.

Ular indashmay uyga ketishdi. Dizma, qizning menga nisbatan munosabati bir zumda o'zgarib qoldi-ya, deb mamnunlik bilan ko'nglidan kechirdi. U Man'kaning o'sha bir dasta pulni ko'rib emas, balki, tungi hujum haqidagi hikoyani eshitib shunchalik qoyil qolayotganini darhol tushungan edi. Garchi bunday o'zgarish juda xush yoqsa-da, Nikodim o'zicha xijolatda edi - u qizning bunday hurmatiga loyiq emasligini yaxshi tushunardi. Biroq endi u bu gaplarning hammasini o'ylab chiqarganini sira ham tan olmagan bo'lardi, albatta.

- Ehtiyot bo'l, Man'ka, - dedi Dizma ular zinapoyadan yuqori ko'tarilishar ekan, - bu haqda uydagilarga og'iz ocha ko'rma!

Tushunarlimi?

- Bo'lmasam-chi!

- Endi men... o'zing tushunasan, birmuncha vaqtga biror yoqqa jo'nashim kerak. Xullas, qo'lga tushmaslik uchun.

- Ha, tushunaman. Qaytib kelasanmi?

- Qaytib kelaman.

Dizmaning shunday bemahalda Man'ka bilan birga qaytganiga Bartiklar sira ham ajablanishmadi. Lekin aroq bilan kolbasaning hurmatini o'rniga qo'yishdi. Valentova shu zahoti stol ustiga ko'k kleyonka yozdi, hammasi ovqatlangani o'tirdi. Gorchitsadan bo'shagan bankachaga aroq quyib qo'lma-qo'l uzata boshlashdi. Shishaning o'ziyam ancha kattagina edi... Ko'p o'tmay Nikodim besh zlotiy chiqarib, Man'kani yana aroqqa yubordi. Shundan so'ng Dizma ijara haqini to'ladi-da, qiz qaytib kelgach, o'tirganlarga murojaat qilib dedi:

- Xo'sh, endi meni tabriklasangiz bo'ladi. Yaxshi ish topdim.

- Qayerda? - deya so'radi qiziqib Valent.

- Varshavada emas, provinsiyada.

- Proviysiyada pul topish oson, deb aytmovdimmi sizga, - dedi bosh chayqab Valentova. - U yerda hamma narsa mo'l bo'ladi.

Erkaklarning hammasi shunaqa o'zi.

Yana Dizmaning salomatligi uchun ichishdi. Keyingi shisha ham bo'shagach, Nikodim yechinib, buklama karavotini yozdi-da, cho'ntagiga pul soling'an nimchani yosti tagiga qo'yib, bir zumda uxlab qoldi.

Valent bir oz jim o'tirdi. So'ng kayfi oshdi shekilli, ashula ayta boshlagan edi, Man'ka darhol o'shqirib berdi:

- Jim, jin ursin sizni. Ko'rmayapsizmi, uxlayapti axir. Birpas dam olgani ham qo'yishmaydi bu uyda.

Xonaga sukunat cho'kdi. Valent shaikasini bostirib kiydi-da, ko'chaga chiqib ketdi. Xotini esa ijarachilarining ish topib, ularni aroq bilan siylaganini aytib maqtanish uchun qo'shnisirikiga yugurdi.

Man'ka shkafdan rohatibadan ro'molchasini olib, Nikodimning yuziga yopib qo'ydi: xonada pashshalar g'ujg'on o'ynamoqda edi.

### 3-bob

Nikodim peshinga qadar safarga hozirlik ko'rdi. Dizma o'zini bir oz tuzatib olish maqsadida bir necha ko'ylak, galstuklar, soqol olish uchun yangi pribor, sap-sariq botinka va o'ziga ancha yarashgan bir juft kostyum xarid qildi. Bulardan tashqari u bir talay mayda-chuyda narsalar bilan chiroyli charm chamadonlar ham sotib oldi.

Bir vaqtlar notarius Vinderning o'g'li - L'vovda o'qiydigan student butun Liskovni o'zining orastaligi bilan qoyil qoldirgan edi.

Nikodim har gal uning xonasiga kirganida studentning kiyim-kechagi va pardoz anjomlarini ko'rib og'zi ochilib qolardi. Endi u yosh Vinderdan ibrat olishga harakat qilardi. Bu xarajatlar Dizmaning hamyonini anchagina o'pirib ketgan bo'lsa-da, u o'z ishidan mamnun edi.

Soat oltiga borib yo'lga chiqish uchun hamma narsa shay bo'ldi. Poyezd yetti yarimda jo'nardi. Avvaliga uni vokzalgacha kuzatib chiqmoqchi bo'lgan Man'ka Nikodimdagi bu o'zgarishlarni ko'rib, shu qadar esankirab qoldiki, unga hamroh bo'lishga jur'at etolmadi.

U faqat Dizmaning ortidan zinapoyaga yugurib chiqdi-da, uning yuz-ko'zidan o'pib, chamadonlarini pastga olib tushishga yordamlashdi. Izvosh joyidan qo'zg'aldi. Shu payt qiz:

- Qaytib kelasanmi? - deb so'radi qoldi.

- Qaytib kelaman, - javob qildi Dizma va boshidan shlyapasini olib silkitib qo'ydi.

Ikkinchi klass vagoni uchinchi klassnikiga qaraganda ancha qulay bo'lar ekan. Bu yerda qattiq kursilar o'rniga prujinali divanlar qo'yilgan bo'lib, passajirlar ancha xushmuomala, provodniklar ham juda muloyim ko'rinishardi.

Dizma bu ajoyib sayohatning gashtini surib borardi. U umrida birinchi marta o'zini to'ralardek his eta boshladi. Hozir unga o'zining Liskovdagi pochta idorasining boshlig'idan sira kam joyi yo'qdek, hatto ota-bola Vinderlar bilan ham bemalol bellasha oladigandek tuyulardi.

Dizma bilan birga yo'lga chiqqan bir nechta passajir tez orada tushib ketdi, vagona u yolg'iz o'zi qoldi. Biroq sira uyquasi kelmadi. Hozirgi vaziyatni har tomonlama o'ylab ko'rmoq lozim edi.

Turgan gap, bu kekxa dog'uli Kunitskiy uni ministr Yashunskiy bilan yaqin aloqada bo'lgan nufuzli odam deb o'yladi. Aks holda, unga boshqaruvchilikni sira ham taklif qilmagan bo'lardi. Rostini aytib, cholning ko'zini ochish esa shunday katta maoshdan voz kechish bilan barobar edi, albatta. Demak, Kunitskiyni. Iloji boricha uzoqroq laqillatish kerak. Turar joy bilan ovqat uchun u bir tiyin ham sarf qilmaydi. Shu boisdan ham u oyiga ellik-oltmish, boringki, yuz zlotiydan ortiq chiqimdor bo'lmaydi. Qarabsizki - ikki ming to'rt yuz zlotiy sof foyda bo'lib turibdi-da.

"Hech bo'lmasa uch oy tura olsam edi. Balki, bir ilojini qilib, yarim yilga cho'zarman?"

Dizma shularni o'ylar ekan, jilmayib quydi. Keyinchalik odamlarga foydasiga pul qarz berib, qo'lini sovuq suvga urmay, mazza qilib yashashi mumkin. Faqat cholni uzoqroq laqillatish va qo'lga tushib qolmaslik uchun juda ehtiyot bo'lib yurish kerak. Kamroq

gapirish, o'zi haqida mutlaqo og'nz ochmaslik lozim. Chol ham axir anoyi emas, biror narsann sezib qolsa, darhol kavushini to'g'rilab qo'yadi.

Provodnik kirib, navbatdagi stansiya Koborovo ekanligini aytganida tong ota boshlagan edi.

Ishqilib, Kunitskiy shu poyezdda kelishimni unutilib qo'ymaganmikin, deya bezovta bo'la boshladi Dizma. Lekin bekorga tashvishga tushgan ekan. Nikodim poyezddan tushishi bilan uning oldiga livreya kiygan xizmatkor keldi.

- Kechirasiz, pan Kunitskiynikiga kelayotgan janob siz emasmisiz?

- Ha, menman.

- Mashina stansiya binosi oldida kutib turibdi, pan boshqaruvchi, - dedi xizmatkor va chamadonlarni ko'tarib oldi.

Nikodim ajoyib avtomobilga o'tirar ekan: "Koborovo mulkining boshqaruvchisi... Tashrifnoma buyurtirib qo'yishim kerak ekan", - deya hayolidan o'tkazdi.

Avvaliga mashina temir yo'l yoqalab ketgan tep-tekis shossedan olib bordi-da, so'ng yarim vayrona suv tegirmoni oldidagi xushmanzara joyda o'ngga burilib, ko'prikdai o'tdi va tor izli temir yo'lning ikki chetiga zich qilib qurilgan fabrika imoratlarining yonidan g'izillab ketdi.

Bir ozdan so'ng zarang daraxtlaridan iborat xiyobon boshlanadi. Kunitskiy uyi xiyobonning oxirida joylashgan ekan. Tomi uchiga nayza o'rnatilgan gumbazlar bilan bezatilgan bu imorat klassitsizmga da'vo qiluvchi g'alati bir uslubda qurilgan bo'lsa-da, ancha chiroyli edi. Avtomobil' maysazorni aylanib o'tib, katta eshik oldida to'xtadi. Ichkaridan oqsoch ayol chiqib, xizmatkor bilan birga chamadonlarni olib kirib ketdi. Dizma pal'tosini yechib ulgurmasdanoq, vestibulga- harir shlafrok kiygan va sochlari to'zg'ib ketgan Kunitskiy yugurib chiqdi. Nikodim avvaliga uni tanimay, hatto ayol kishi deb ham o'yladi.

Og'zining tanobi qochgan, tinib-tinchimas Kunitskiy quchog'ini ochib, mehmonga peshvoz chiqdi-da, shu zahoti uni suxandonlik pulemyotidan o'qqa tuta ketdi. Garchi odatdagiga qaraganda tezroq gapirayotgan bo'lishiga qaramay, uning nutqi o'sha-o'sha bir maromda bidirlashdan iborat edi. U faqat: "Muhtaram pan qayerda turishni istaydilar - uydami yoki pavil'ondami?" - deya savol bergandan keyingina chakagi tinib, Dizmaning javobini kuta boshladi.

Muhtaram pan, menga baribir, deb javob bergach, unga o'yning birinchi qavatidan ikkita ajoyib xonani ajratib berishdi. Shu zahoti Nikodimga vestibulga qaragan odatdagi eshikdan tashqari u parkka ayvon orqali chiqishi ham mumkinligi, vannaxona shundoq yonginasida joylashgani, istasa hoziroq cho'milib olishi mumkinligi - buning uchun u yerda hamma narsa hozirlab qo'yilgani tushuntirildi. So'ngra pan Dizma ular bilan nonushta qilgani chiqsa, u, ya'ni Kunitskiy bilan xonimlarning boshi osmonga yetajagi bayon etildi.

Nihoyat, yolg'iz o'zi qolgan Nikodim tezda chamadonlarini ochib, iarsalarini shkafga taxlab qo'ydi-da, vannaxonaga ravona bo'ldi. Dizma umri bino bo'lib vannaxonada cho'milmagan edi. Lekin u tirband hammomga qaraganda vannaning o'lsa o'ligi ortiqiligini darhol payqadi. So'nggi paytdarda u kamxarjligi boisidan hammomga ham borolmay qolgandi. Vannadagi suvning bir zumda qoramtir tusga kirgani bundan dalolat berib turardi. Dizma ancha ovora bo'lib vannaning tubidagi tiqin zanjirini topdi-da, uni tortib sirini oshkor qiladigan iflos suvni tushirib yubordi. So'ng vannani yuvib tashlab, sochlarini taradi va yotoqxonaga qaytdi. U cho'milayotganida xizmatkorlar kostyumi bilan botinkasini tozalab qo'yishibdi.

"Jin ursin! Bu yerda qo'lingni sovuq suvga ham urdirishmaydiganga o'xshaydi-ku!" - deya xayolidan o'tkazdi qoyil qolgan Dizma. U galstugini taqib ham ulgurmagani ediki, eshik taqillab, odatdagi kiyimlarini kiyib olgan, biroq o'sha-o'sha ezmaligini qo'ymagan xira Kunitskiy paydo bo'ldi.

U Dizmani boshlab borgan yemakxona ko'proq zalga o'xshab ketardi. Qoramtir taxta panellar bilan bezatilgan bu xona kishida g'amgin bir taassurot qoldirardi. Devorlar yoniga baland bufetlar qo'yilgan bo'lib, ularning oyna qoplangan eshikchalari ichidan kumush va billur idishlar yarqirab ko'rinaridi. To'rt kishiga mo'ljallab dasturxon yasatilgan o'rtamiyona oq stol ustidagi anjomlarni Liskovdagi pochta idorasining butun xodimlariga bemalol yetib ortadigan ajoyib idish-tovoqlar ko'rgazmasi desa bo'ladi.

- Xonimlarim pardoz qilishyapti, hozir kelib qolishadi. Muhtaram pan Nikodim, balki ular kelishguniga qadar birinchi qavatdagi xonalarni ko'rib chiqarsiz. Ikkinchi qavatga chiqish esa xe-xe-xe, biz erkaklarga man etilgan: o'zingizda qolar gap yo'q - xonimlar! Xo'sh, qalay, mening makonim sizga yoqyaptimi? Barchasining proyektini o'zim tuzib, arxitektorga o'zim ko'rsatma berib turganman. So'nggi ikir-chikirigacha o'zim tepasida turganman.

Kunitskiy dam Dizmaning qo'ltig'idan olar, dam uning atrofida girdikapalak bo'lib, ko'zlariga tikilardi.

Chol Koborovodagi barcha narsalar kabi bu imorat bilan ham faxrlanardi. Uning gapiga qaraganda, bir necha yil ilgari bu yerlar tashlandiq joy bo'lib, hozirgi imoratning o'rnida yarim vayrona qo'rg'on bo'lgan ekan, yerlarga deyarli ekin ekilmasakan. Bugun esa uning muttasil mehnat qilishi natijasida hamma ish tartibga solinibdi. Qarab kishining ko'zi to'ymaydigan xo'jalik barpo etilibdi.

Ular momiq gilamlardan yurib, Dizmaning yetti uxlab tushiga kirmagan hashamatli, bezatilgan xonalardan o'tib borishardi.

Oltin suvi yugurtirilgan birinj, og'ir romlarga solingan kartinalar, yaltiroq mebel', ulkan oynalar, marmar va malaxit kaminlar, ajoyib matolar, zarhal naqsh urilgan charm - bularning bari boylikdan dalolat berib turardi. "Birdan qattiq yer qimirlab qolgudek bo'lsa, bu uy butun anjomlari bilan oltin soqqachalarga aylanib sochilib ketsa kerak", - deya xayolidan o'tkazdi Dizma.

- Ho'sh, qalay? - ular yana yemakxonaga qaytishgach, so'radi Kunitskiy. Nikodim javob berish uchun endi og'iz juftlagan ham ediki, xonaga xonimlar kirib kelishdi.

- Marhamat, tanishinglar - pan Dizma! - dedi Kunitskiy mehmonni ularning oldiga boshlab borar ekan.

Yoshi kattaroq malla soch xonim jilmayganicha Nikodimga qo'l uzatdi.

- G'oyat xursandman. Siz haqingizda ko'p eshitgan edim.

Yoshi kichkinaroq qo'ng'ir sochli xonim nimasi bilandir o'g'il bolaga o'xshab ketardi. U mehmonning qo'lini mahkam qisib, unga shunday bir takallufsizlik bilan tikildiki, Nikodim hatto xijolat cheka boshladi.

Uning baxtiga Kunitskiy labi labiga tegmay bidirlamoqda edi. Shu boisidan ham Dizma indamay ayollarni ko'zdan kechirdi.

Kattasining yoshi, nari borsa, yigirma oltalarda edi, qo'ng'ir sochlisi esa yigirma ikkilardan oshmagandi. Nikodim hayron bo'lib qoldi, chunki Kunitskiy unga xotini bilan qizi haqida gapirgandi. Bularning ikkovi esa uning qizi tengi kelardi. Opa-singillarmikin? Unday desa, bir-biriga mutlaqo o'xshamaydi. Malla soch xonim nozikkina ko'rinsa-da, uncha ozgin emasdi. Uning kichkinagina og'zi va g'uncha lablari, mayin yuzi hamda katta-katta ohu ko'zlari tabiatining xayolparastlikka moyilligidan dalolat berardi. Juvonning oppoq shoyidan tikilgan zebo ko'ylagi yoqasidan momiqdek yelkasi bilan bo'yni ko'rinib turardi.

Qo'ng'ir sochli qiz esa butunlay boshqacha edi. Anovi barno juvon oldida qiyg'och qoshlari tutashib ketgan, qo'y qo'z, sochini erkakchasiga kalta qilib qirqirgan, tomog'ining tagigacha bekitib turadigan inglizcha bluzka kiyib, yashil galstuk taqib olgan va

oftobda qoraygan bu qiz xuddi o'g'il bolalarga o'xshab ketardi. Uning ko'zlarida. qandaydir shijoat jilvalanib turardi. Dizmani ayniqsa uning qulog'i ajablantirdi. Qo'ng'ir soch qiz unga yon tomonidan ko'rinib turardi, shu boisdai ham Dizma o'qtin-o'qtin uning qulog'iga nazar tashlashdan o'zini arang tiyib o'tirardi. Ilgarilari u odamlarning qulog'iga sira e'tibor bermasdi. Har bir odamning qulog'i o'ziga xos ekanligini - ba'zan u g'aroyib guldek go'zal bo'lishi mumkinligini Nikodim faqat endi tushundi. Kunitskiyning quloqlari kichkina bo'lib, pushti rang tusda edi, malla soch xonimning quloqlarini esa sochlari yashirib turardi. U ana shunday xayollarga berilib o'tirar ekan, o'zini hamma qatori tutishga va notarius Vinderning ta'biri bilan aytganda, o'zini kiborlardek tutolmasligini yashirishga urinardi.

Kunitskiy esa Koborovoning afzal tomoni va kamchiliklari haqida tinmay bidirlar, o'zi kiritgan yangiliklarini sanab, otxonasini maqtar va qadrlar pan Dizmaga xo'jalikning qaysi qismini oldinu, qaysi qismini keyin ko'rsatmoqchi ekanligi haqida gap sotardi.

- Hozircha sizga faqat birinchi qavatini ko'rsatishga ulgurdim.

Shunday deya, Kunitskiy chashkadan kofe xo'pladi. Malla soch xonim uning jimib qolganidan foydalanib gapga aralashdi:

- Qalay, uyimiz sizga yoqyaptimi?

- Juda serhasham ekan, - deya ochig'ini aytdi Dizma. Malla soch xonim qip-qizarib ketdi. Uning ko'zlaridan qattiq izza tortgani yaqqol sezilib turardi. - Erimning didi o'zi shunaqa.

- Xe-xe-xe, - xiringladi Kunitskiy, - men bu haqda pan Nikodimga aytgan edim. Bilasizmi, to'ydan so'ng biz Koborovoga ko'chib kelgach, Nina birinchi galda - xe-xe-xe - xuddi ana shu masalada to'polon ko'tardi. Ayollarning o'zi shunaqa - yaxshilikni bilishmaydi! Men uyimiz shinam bo'lsin deb jonimni jabborga topshirsamu, u to'polon ko'tarib o'tirsa! Bir tasavvur qiling-a...

- Iltimos, bas qil shu gaplarni, - deya erining so'zini bo'ldi xotini.

- Sizni tushunmay qoldim, dada, - gapga aralashdi qizi, - pan Dizmaning joniga tegishning nima hojati bor. Boz ustiga bu gaplar Ninaga ham yoqmayapti!

- Voy-bo'y, axir hech nima deganim yo'q-ku, oppoq qizim. Ha, aytganday, hozir sizlarni yolg'iz qoldiramiz. Men pan Nikodimga Koborovoni ko'rsatishim kerak. Bilasizmi, pan Nikodim...

- Balki, pan Dizma charchagandirlar, - gap qotdi Kunitskaya.

- Xudo saqlasin! - deya e'tiroz bildirdi Nikodim.

- Ana ko'rdingmi, ana ko'rdingmi, - xursand bo'lib shushulay ketdi Kunitskiy. - Biz uddaburon odamlar darhol ishning mohiyatini tushunib olishni yaxshi ko'ramiz.

- Dada, siz pan Dizma uchun javob bermang, - deya otasining gapini bo'ldi qizi. - Barcha odamlar uchun ishning mohiyati shpallar bilan qirindidan iborat ekanligiga shubhalanaman. Shunday emasmi, pan Dizma?

- Shunday, albatta, - ehtiyotkorlik bilan javob qildi Nikodim, - bundan ham muhimroq ishlar bor.

Kunitskiy kaftini ishqab, asta kuldi:

- Ha, ha, muhimroq ishlar ham bor! Masalan, yog'och yetkazib berishni ko'paytirish masalasi! - Kunitskiy o'zidan juda xursand edi.

Mallasoch xonim o'rnidan turib bosh irg'adi.

- Xo'p, sizlarga xalal bermaylik bo'lmasam, - dedi u sovuqqina qilib...

Qo'ng'ir sochli qiz ham o'rnidan turdi. Nikodim oiladagi nizoning sababini tushunib yetmasdanoq, xonimlar yemakxonadan chiqib ketishdi.

Dizma nonushta shu qadar tez tamom bo'ladi deb o'ylamagandi. U ochofat bo'lib ko'rinishdan cho'chib, kam ovqat yeganidan qorni to'ymay qolgandi.

Xizmatkor kirib, otlar tayyor turganini aytdi.

- Ana shunaqa, - dedi Kunitskiy telpagini kiyar ekan. - Bu gaplardan ajablanmang. Xotinim bilan ikkovimiz bir-birimizni tushunmaymiz. Men sizga aytсам, xotinim tushmagur ancha xayolparast, hech osmondan yerga tushgisi kelmaydi: yosh-da, hali. Hay mayli, aqli ham kirib qolar... Qizim bo'lsa... Hm... Kasya ham xotinimning tarafini oladi, chunki o'zining' ham hali ona suti og'zidan ketmagan. Unday desam, xotinlar o'zi doim bir-birining yonini oladi.

Hovlida ularni ikki to'riq ot qo'shilgan chiroyli izvosh kutib turgan ekan. Kunitskiy bilan Dizma yumshoq o'rindiqlarga o'tirishgach, xo'jayin qamchi bosgan edi, otlar yelib ketishdi.

- Qalay, otlarim zo'rmi? - Kunitskiy ko'zlarini qisdi. - Men ularni Lyublinda, qishloq xo'jalik ko'rgazmasida sotib olgan edim.

Ikkovi oltin medal' olgan. A? Zo'r-a?

Chindan ham otlar bir tekisda yelib borishardi. Dizma ularning ajoyib ekanligini tan oldi.

- Sizga avvalo temir yo'l ministrligini ko'rsataman, - dedi Qunitskiy. - Yon tomondagi ikki tarmog'i bilan hammasi bo'lib yigirma ikki kilometrni tashkil qiladi. Hozir birinchisiga boramiz.

Izvosh xiyobondan chapga burildi-da, boshqoq chiqargan bo'liq bug'doyzor oralab ketgan tuproq yo'ldan ketdi. Garchi shabada esmayotgan bo'lsa-da, havo ancha salqin edi.

- Hosil juda yaxshi bo'libdi-da! - dedi Dizma.

- Ha, ha, - boshini ma'yus chayqab javob qildi Kunitskiy. - Afsus, juda yaxshi bo'ldi.

Nikodim kulib yubordi.

- Xuddi bundan xafa bo'layotgandek gapirasiz-a.

- Nima deb o'ylovdingiz? - ajablandi Kunitskiy. - Bunday hosil ziroatchi uchun ofatning o'zginasi-ku axir.

Dizma hech nimani tushunmay qolganini aytmoqchi bo'ldi-yu, lekin tilini tiydi: yaxshisi, ehtiyotkorlik yuzasidan indamagani ma'qul.

- Ha, ofatning o'zginasi, - deya takrorladi Kunitskiy. - O'ylab ko'rsang esing teskari bo'lib ketadi. Ikki oydan so'ng g'allani suv tekinga sota boshlaymiz. Buning otini mo'l-ko'lchilik ofati deydilar, azizim.

"Buni qarang-a! - deya xayolidan o'tkazdi Dizma. - Shunday ekanligini kim o'ylabdi deysiz. Yaxshisi, kamroq gapirganim ma'qul. Savol berishdanu xudo saqlasin".

- Tushunarli, - deya javob qildi u. - Faqat, menimcha, bularning bari siz o'ylaganchalik qo'rqinchli bo'lmasa kerak.

Dizma jimib qoldi. Lekin shu zahoti u yana biror narsa deyish lozimligini, aks holda bunday ishlarga aqli yetmasligi sezilib qolishi mumkinligini fahmladi-da:

- G'allaning narxi oshadi, - deya qo'shimcha qildi.

- Be, qayoqda oshardi deysiz! Ha, agar bordi-yu hukumat g'allani sotib olsa...



- Sotib olmaydi, deb sizga kim aytdi?

- Nimalar deyapsiz? - Kunitskiy o'rindig'ida bir sapchib tushdi.

Dizma avvaliga qovun tushirib qo'ydim shekilli, deya qo'rqib ketdi, ammo suhbatdoshining ko'zlari yaltirayotganini ko'rib ko'ngli joyiga tushdi.

- Og'zingizga bol-e, azizim! Nimalar deyapsiz! Bu masala hal bo'lganmi?

- Hozircha loyiha...

- Azizim pan Nikodim! Ajoyib fikr! Ajoyib!

Ziroatchining manfaatini himoya qilish hukumatning vazifasi-ku; mamlakatning farovonligi qishloq xo'jaligiga asoslangan. Bizda esa, jin ursin, nuqul xo'jalik tartibini o'zgartirishgani o'zgartirishgan! Axir Pol'shada aholining yetmish protsenti dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Yetmish protsenti-ya! Sanoatda ham, konlarda ham, savdoda ham emas, qishloq xo'jaligida. Chorvachilik bilan o'rmonchilik - barcha narsaning asosi. Ziroatchining farovonligi - barchaning farovonligi: fabrikantning ham, tujjorning ham, ishchining ham. Pan Dizma, siz bu genial loyihani qo'llab-quvvatlash uchun hukumat doiralariga o'z ta'siringizni ko'rsatishingiz lozim. Vatan oldidagi burchingiz axir bu. Hukumat ortiqcha g'allani sotib olsin. Yo parvardigor! Koborovoning o'zi xutorlari bilan qancha g'alla berishi mumkin-a...

Kunitskiy xayolan ko'radigan foydasini xomcho't qila boshlagan edi. Dizma gap qotdi:

- Hamma gap pulda. Pul yo'q.

- Pulmish-a! Pul nima degan gap! - bidiray ketdi Kunitskiy, - buning sirayam mushkul joyi yo'q. Hukumat qishloq xo'jalik ziyomining obligatsiyasini chiqarishi mumkin. Masalan, yuz million so'mlik deylik. Pul o'rniga mana shu obligatsiya to'lanadi - vassalom! Bu obligatsiyalar protsentli bo'ladi, albatta. Aytaylik, yuz so'mdan besh yoki hatto to'rt protsentdan to'lash mumkin. Gapimni tushunyapsizmi? Zayom olti yillik muddat bilan chiqariladi, deylik. Olti yil ichida esa g'alla bozorida, o'ldim deganida, ikki marta qulay vaziyat yuzaga keladi. Ana shunda bor g'allani chet elga sotib yuborish mumkin. Butun operatsiya shu, xolos! Gapimni tushundingizmi! Buning foydasi juda katta, birinchidan, narx-navo barqarorlashadi, ikkinchidan, muomaladagi pul ko'payadi, chunki obligatsiyalarda egasining nomi ko'rsatilmagan bo'ladi, albatta. Axir davlat shu yo'l bilan ichki bozorga yuz ming so'mga yaqin yangi pul chiqarish imkoniga ega bo'ladi. Shu yo'sinda naqd pulning yetishmovchiligi bartaraf qilinadi. Azizim! Siz bu haqda ministr Yashunskiy bilan albatta gaplashishingiz lozim...

- Biz u bilan bu to'g'rida bir necha marta gaplashganmiz. Kim biladi deysiz...

Nikodim shunday dedi-yu, lekin o'zicha: "Bu jin urgur cholning miyasi xo'p ishlar ekan-da. Bunaqa odam ministr bo'lishi ham mumkin", deya xayolidan o'tkazdi.

Kunitskiy hayajon bilan qamchisini silkitganicha borgan sari tezroq bidirlardi. U mazkur ishni foydasi haqida dalillar keltirar, shubha-gumonlarini aytar, e'tiroz bildirar va yana dalillar keltirib, o'zini o'zi inkor etardi.

Bu orada yo'l burilib borib, ular baland qarag'ayzor ichiga kirib qolishdi. Tor izli temir yo'lning yonidagi ulkan maydonda xodalar taxlab qo'yilgan edi. Kichkina paravoz xoda ortilgan o'n beshtacha vagonni joyidan ko'zgatishga kuchanib, tinmay pishillardi. Sostavning ikki chetida saf tortgan ishchilar vagonlarni itarib borishardi.

Xo'jayinni ko'rib, odamlar boshlaridan shapkalarini olishdi. Biroq ularning salomida ochiqdan-ochiq dushmanlik bo'lmagan taqdirda ham, qandaydir adovat sezilib turardi. Oftobda qoraygan kul rang kamzulli master izvosh yoniga kelib, Kunitskiyga allanima demoqchi bo'lgan edi, xo'jayin uni to'xtatdi.

- Pan Starkevich, salomlashing: bu kishi bizning yangi boshqaruvchimiz pan Dizma bo'ladilar.

Master boshidan shapkasini oldi-da, diqqat bilan Dizmaga tikildi. Nikodim javoban bosh irg'ab qo'ya qoldi.

Kunitskiy Starkevichdan qilingan ishlarni so'rab-surishtirar ekan, Nikodim qiziqib atrofda uyulib yotgan xodalar va taxtadan omonatgina yasalgan baraklarni ko'zdan kechira boshladi. Hamma yoqni arralarning g'ir-g'iri va boltalarning to'q-to'qi tutib ketgan edi, Ular yana yo'lga chiqishgan zahoti Kunitskiy daraxtlarning navlari, bu yerlarda o'rmonchilikning ahvoli, hatto o'z uchastkangda ham daraxt kesishga ruxsat olishning qanday qiyinligi to'g'risida butun bir leksiya boshlab yubordi. U gaplarini g'oyat jiddiy qiyofada eshitayotgan hamrohiga o'qtin-o'qtin qarab qo'yar ekan, ustavlarning paragraflarini yoddan aytardi, narx-navo to'g'risida gap sotib, raqamlarni ro'kach qilardi.

Dizma esa aslida qo'rqib ketgandi. Hozir u o'zini birdan boshiga bir g'aram pichan ag'darilib tushgan odamdek sezardi. Shu paytgacha u mutlaqo tasavvurga ega bo'lmagan bu problemalarning bari Nikodimning ustiga xuddi tog' ko'chkisi yanglig' yopirilib tushdi. Butunlay esankirab qolgan Dizma o'z kuchi bilan bu muammoning tagiga yetolmasligini, obro'sini to'kmaslik, sharmanda bo'lmaslik, to'g'rironi, qo'lga tushmaslik darajasida ishni o'zlashtira olmasligini yaxshi tushunardi.

Ular davlat o'rmonidagi tajriba stansiyasi, temir yo'l yonidagi taxta tilish korxonasi, mebel' fabrikasi, deyarli qurib bitkazilgan qog'oz fabrikasi hamda bitay deb qolgan omborlarni birma-bir borib ko'rishgach, Dizmaning miyasi shu qadar g'ovlab ketdiki, u endi faqat juftakni rostlash haqida o'ylay boshladi. Uning ro'parasida sirli bir tarzda o'zaro bog'lanib ketgan va anglab yetish g'oyat mushkul bo'lgan hisobsiz ishlar ko'ndalang turardi. Nikodim bu ishlarning tepasida turgan kishilar bilan ham tanishdi. Ular mazkur ishlar haqida ishbilarmonlik bilan shu qadar lo'nda qilib so'zlashdiki, Nikodim bu gaplardan hech vaqoni tushuna olmadi.

Kunitskiy esa uning ma'yus tortganini ko'rib, yangi joydagi ishlarga razm solayotgan bo'lsa kerak, deb o'yladi. Dizma shuni payqaganidan keyingina bir muncha taskin topdi. Chamasi, Kunitskiy o'z boshqaruvchisining ishlardan iloji boricha yaxshiroq xabardor qilishga berilib ketib, undagi sarosimani sezmay qolgan edi.

Ular uyga qaytishganida soat uch bo'lay deb qolgan edi.

- Mana ko'rduygiz, - dedi Kunitskiy, jilovni otboqarga uzatar ekan, - xo'jalik ancha katta. Ha, ancha katta. Shu bilan birga, u azbaroyi, muttasil va bir tekis foyda olib turishni mo'ljallab, ancha sarishtali tashkil etilgan. Agar amalda ba'zi ishlar ro'yobga chiqmayotgan bo'lsa, bunga bizdagi byurokratiya, iqtisodiy siyosatning beqarorligi sabab bo'lyapti. Biroq shu sharoitda ham ancha ish qilsa bo'ladi. Bunisi esa endi, azizim pan Nikodim, sizning vazifangiz.

Xonimlar o'zlariga kerakli mayda-chuyda narsalarni xarid qilish uchun avtomobilda Grodnoga jo'nab ketishgani boisidan ular ikkovlari o'tirib ovqatlanishdi. Koborovoning oshpazlari juda pazanda bo'lib, dasturxonada ovqat serob edi. Shuning uchun ham ular ovqatlanib bo'lishgach, qahva ichish uchun kabinetga o'tishganida Dizmani qattiq mudroq bosdi. Ammo tinib-tinchmas Kunitskiy Koborovo xo'jaligi haqida gapirishdan to'xtamasdi. U shkaf va qutilarni ochar, allaqanday yozishmalar, ro'yxat, hisob-kitob daftarlarini olib ko'rsatar va tinmay bidirlardi. Nikodimning toqati toq bo'ldi. Nihoyat, chol bidirlashdan to'xtadi-da, bir dasta qog'ozni olib, Dizmaning yoniga keldi.

- Ko'rib turibman, bir oz toliqqanga o'xshaysiz. Aslida yo'ldan keyin dam olishingiz kerak edi. Agar ijozat etsangiz, bu



hujjatlarning barini xonangizga berib yuboraman. Ehtimol, kechqurun ularni ko'rib chiqarsiz. Nima deysiz?

- Bajonu dil.

- Endi, azizim pan Nikodim, yotib bir oz mizg'ib olmaysizmi?

- Ha, yomon bo'lmasdi...

- Yaxshi uxlab turing, azizim, yaxshi uxlab turing. Men sizni kuzatib qo'yaman. Iltimos, hujjatlarni ko'rayotg'aningizda davlat o'rmonlarining direksiyasi bilan yozishmalarning sanasiga e'tibor bering. Xatlarga uch oylab javob bermaslik rasvogarchilikning o'zginasi emasmi, axir. Hay mayli, bu to'g'rida keyin gaplashamiz. Hozircha dam oling. Kechki ovqat soat sakkizda bo'ladi. Nikodim botinkasini yechib, divanga cho'zildi. Ammo hadeganda uyquasi kelavermadi. Uning miyasini bir fikr chulg'ab olgan edi. Nima qilsaykin? Nima qilish kerak axir? Balki, bir yo'la ochig'ini aytib, cholga hech vaqoni tushunmasligiga iqrar bo'lish kerakdir... Yoki bu murakkab tugunni yechishga urinib ko'rsamikin? Agar shu ishni uddalay olganida Koborovoda yana ikki, boringki, uch oy turishi mumkin... Chunki bundan ortiq cho'zib bo'lmaydi. Faqat bir narsa aniq: chol uni ministrning yordamida ishlarini jo'nashtirib yuborish uchun taklif qilgan...

"Juda quv chol ekan, lekin rosa chuv tushdi-da... Nima qilsam ekan? Bilib qolsa - yuragi yorilib o'ladi-da, o'ziyam".

Kuni bilan qilgan ishidan ham ko'ra ana shu ikki soatlik hordiq Dizmani ko'proq charchatdi. Bu orada u o'ndan ortiq papiros chekib tashladi. Nihoyat, xona papiros tutuniga to'lib, nafasi qayta boshlagach, u qo'shni kabinetga o'tdi. U yerdagi yozuv stoli ustiga Nikodim tanishib chiqishi lozim bo'lgan birtalay hisob-kitob daftarlari va hujjatlar taxlab qo'yilgan edi.

Dizma dilida bir so'kinib oldi-da, orqasiga qaytdi. So'ngra birdan ayvonga qaragan eshikni ochib, parkka chiqish mumkinligini eslab qoldi.

Park juda sarishta edi. Nikodim ancha yurib qo'ygan bo'lsa-da, uning oxiri ko'rinay demasdi. Keksa dub, qora qayin, arg'uvon va zarang daraxtlari oralab bir-biriga ikki tomchi suvdek o'xshaydigan tep-tekis yo'lklar tarmoq otgandi.

"Bu yerda adashib qolish hech gap emas, - deya xayolidan o'tkazdi Dizma va atrofga alanglab qarab qo'ydi. - Har qalay uy shimol tomonda joylashgan".

Tarvaqaylab ketgan daraxtlar ostida marmar va taxta kursilar ko'zga tashlanardi. Chorak soatcha sayr qilib yurgach, Nikodim soyada turgan shunday kursilardan biriga borib o'tirdi. Shu zahoti miyasida yana haligi tashvishli fikrlar xira pashshaday g'o'ng'illay boshladi: nima qilish kerak, qutulishning chorasi bormikin, qanday bahona o'ylab topsaykin?

Kimdir hushtak chalganicha yaqinlashib kelmoqda edi, Dizma o'girilib qaradi. Torgina xiyobondan bashang kiyingan, ko'ziga monokl' taqqan bir yigit kelmoqda edi. Uning ortidan qiyshiq oyoqlarini pildiratganicha kallasi ko'rshapalaknikiga o'xshash pincher zotli mittigina it yugurib kelardi. It Dizmani ko'rib qolib, vovullay boshladi. Yigit to'xtab, Dizmaga boshdan-oyoq ko'z yugurtirib chiqdi-da, uning yoniga keldi. O'ttizlarga kirgan bu notanish yigit ozg'in va novcha bo'lib, bo'yni uzunligidan yanada darozroq ko'rinardi. Uning yuzi yosh bolalarnikiga o'xshash kichkina va rangpar bo'lib, qovoqlari qizarib ketgan katta-katta moviy ko'zlarining nafratomuz va istehzoli qarashiga mutlaqo mos tushmasdi. Yigit ko'zlarini lo'q qilganicha Dizmaga tikilib turaverdi.

"Bu jin urgurga nima kerak o'zi!" - deya xayolidan o'tkazdi Nikodim xijolatga tushib.

Yigit esa Dizma tomon haddan tashqari uzun shahodat barmog'ini cho'zib, jiddiy ohangda so'radi:

- Kim bo'lasiz?

Nikodim nima qilarini bilmay o'rnidan turdi.

- Men... boshqaruvchiman, yangi boshqaruvchi.

- Familiyangiz?

- Dizma, Nikodim Dizma.

It vovillaganicha egasining oyog'i ostida u yoqdan-bu yoqqa sakrardi.

- Dizma deysizmi?... Eshituvdim. Men graf Ponimirskiy bo'laman. O'tiring. Yot, Brut! Bilasizmi, pan Dizma, men itga bizning zamonamizda juda bema'ni eshitiladigan shunday laqab qo'yganman. Aytganday, nega endi itning laqabida ma'no bo'lishi kerak ekan? O'tiring.

Dizma joyiga o'tirdi. Bu graf uning ko'nglida g'alati bir taassurot qoldirib, qo'rquv, ijrig'anish, qiziqish va rahm-shafqat hislarini aralastirib yuborgan edi.

- Eshituvdim... - dedi graf cho'zib tilining uchi bilan gezargan lablarini yalar ekan, - ha, eshituvdim. Kerak bo'lib qolgandirsizki, u ablah sizni bu yerga olib kelgan-da. Jentel'men sifatida aytib qo'yay, aziz ko'yovim g'irt muttaham odam.

- Kimni aytyapsiz, graf? - deya ajablandi Dizma,

- Qimni bo'lardi? Anovi ablah Deon Kunikni-da, albatta.

- Pan Kunitskiynimi?

- Qanaqasiga Kunitskiy bo'lar ekan? - qichqirdi graf. - Jin ursin! Qunitskiymish-a? Kunitskiy - shlyaxtaga mansub ajoyib familiya. Bu o'rgimchak esa uni o'zlashtirib olgan. O'g'irlagan, tushunyapsizmi, o'g'irlagan! Uning familiyasi shunchaki Kunik. O'zim tekshirib ko'rganman. Onasi - kir yuvuvchi Genovefa Kunik, otasining kimligi esa noma'lum. Ha, taqsir, gersoginya de Reonning nabirasi bo'lmish grafinya Ponimirskaya shu kunda pani Kunik bo'lib yuribdi.

- Tushunolmadim, - ehtiyotkorlik bilan ohista gap boshladi Dizma, - demak, siz, graf, pan Kunitskiyning qaynag'asi bo'lar ekansiz-da?

Poiimirskiy xuddi chiyon chaqqan odamday sakrab o'rnidan turdi. Uning qonsiz yuzi bo'zarib ketdi.

- Jim bo'ling! O'chiring ovozingizni siz, siz

- Kechirasiz, - dedi qo'rqib ketgan Dizma.

- Mening oldimda uni ablah Kunik, muttaham Kunikdan bo'lak nom bilan atay ko'rmang. Eshitdingizmi! U sira ham Kunitskiy emas! Kuyovim - palid, sudxo'r va tovlamachi... Kunik bo'ladi! Haromi firibgar! Kunik! Kunik! Kunik! Takrorlang: Kunik! Qani?

- Kunik, - deya takrorladi qo'rqa-pisa Dizma.

Ko'ngli joyiga tushgan Ponimirskiy kursiga o'tirdi-da, hatto jilmayib ham qo'ydi.

- Bilmagan ekansiz-da? Brut ham avvaliga bilmay unga suykalgan edi. Lekin mahluq kuyovim uni tepib yubordi!

U bir oz o'ylanib turdi-da, so'ng qo'shimcha qildi:

- Ikkovi ham mahluq: Kunik ham, it ham... Unday desam, o'zim ham mahluqman...

Graf birdan xaxolab kulib yubordi:

- Ochig'ini aytganim uchun kechirasizu, lekin siz ham mahluqsiz.

U hamon qahqaha otar ekan, Dizma: "Telba bo'lsa kerak", - deya dilidan o'tkazdi.

13 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

- Meni telba deb o'ylayapsizmi? - dedi Ponimirskiy bexosdan Dizmaning qo'lidan ushlab, yuzini uning yuziga yaqinlashtirar ekan. Dizma cho'chib tushdi.

- Yo'g'-e, - deya e'tiroz bildirdi u talmovsirab. - Nimalar deyapsiz! Xudo saqlasin.

- Gap qaytarmang! - qichqirdi graf. - Hammasini bilaman! Turgan gap, Kunik sizga aytgan bo'lishi kerak. Balki singlim aytgandir? Ochig'ini ayting. Bu to'ng'iz, bu chiyabo'ri bilan yashar ekan, ertami-kechmi u ham ma'naviy inqirozga uchraydi. Xo'sh, Nina sizga nima dedi?

- Menga hech kim hech nima degani yo'q.

- Hech kim-a?

- Chin so'zim, - deya uni ishontirdi Nikodim.

- Men bilan tanishish sharafiga muyassar bo'lishingizni o'ylashmagan-da! Ular menga uyga kirishni man etib qo'yishganidan xabaringiz bo'lmasa kerak! Menga ovqatni alohida berishni buyurishgan! Parkdan tashqariga chiqishni taqiqlab qo'yishdi. Kunik xizmatkorlarga, agar tashqariga chiqsa, uni tayoq bilan savalanglar, deb buyurgan.

- Nega endi?

- Nega deysizmi? Chunki men ularni doim noqulay ahvolga solib qo'yaman. U firibgar, u tashlandiq mening shlyaxtalarga xos yurish-turishimni ko'rib, gap-so'zimni eshita yorilib o'lay deydi. Chunki bu yerda u muttahaq emas, men xo'jayin bo'lishim kerak. Kunik Koborovoning chinakam egasi men ekanligim, bu yerlar menga otameros ekanligi haqidagi fikrga sira ko'nika olmaydi!

- Demak, pan Kunik... pan Kunik Koborovoni singlingizning sepi tariqasida olgan ekan-da, graf?

Ponimirskiy ikki qo'li bilan yuzini yopganicha jimib qoldi. Uning uzun va ingichka barmoqlari orasidan yosh oqib tushmoqda edi. "Jin ursin, nima balo bo'lyapti o'zi?!" - deb ajablanib xayolidan o'tkazdi Dizma.

It qattiq ingillay boshladi va Ponimirskiyning tizzasiga sakrab chiqmoqchi bo'ldi. Graf atir sepilgan shohi dastro'molini olib, ko'zlarini artdi.

- Kechirasiz, - dedi u, - asablarimning mazasi yo'q...

- Bemalol... - deya gap boshladi Dizma. Biroq shu payt graf istehzo aralash iljaydi.

- "Bemalol" deganingiz nimasi? Siz - ismingiznn unutilib qo'ydim - siz menga yoqib qoldingiz, shuning uchun ham yig'layapman. Inglizlar bunday holda... Aytmoqchi, siz inglizchani tushunmasangiz kerak-a?..

- Yo'q, tushunmayman.

- Juda soz, - dedi xursand bo'lib graf. - Xafa bo'lmang: siz menga yoqib qoldingiz! - U barmoqlarining uchi bilan Dizmaning yelkasiga qoqib qo'ydi. - Agar sizni so'kkim kelib qolsa, inglizchalab so'kaman, Maylimi?

- Mayli, - itoatkorlik bilan rozi bo'ldi Dizma.

- Lekin muhimi bu emas. Yodingizda bo'lsin: garchi Kunik muttahaq bo'lib, bizning Koborovoni o'zlashtirib olgan bo'lsa-da, uning haqiga xiyonat qilish mumkin emas. Chunki kelajakda men uni sudga berib, yer-mulkimizni qaytarib olaman-da, o'zini qamataman. Ninani esa o'z vasiyiligimga olaman. Soat necha bo'ldi?

Dizma cho'ntagidan soatini oldi.

- Yetti yarim bo'libdi.

- Yetti yarim deysizmi? Darrov-a? Tezroq pavil'onga borishim kerak? Aks holda menga kechki ovqatni bermay qo'yishadi. Xayr. Afsus, sizga yana ancha narsalar haqida gapirib bermoqchi edim. Ertaga xuddi shu paytda yana keling. Kelasizmi?"

- Xo'p, kelaman.

- Ha, yana bir gap aytmoqchiman. Meni ko'rganingizni hech kimga aytmang, xo'pmi. Aytmaslikka so'z bering!

- So'z beraman.

- Hay, mayli, garchi familiyangiz va aft-basharangizdan tagi past ekanligingiz shundoq ko'rinib turgan bo'lsa-da, sizga ishonaman. Omi odamlarda vijdon bo'lmaydi, lekin sizga ishonaman. Xayr!

U shartta orqasiga o'girildi-da, xiyobondan tez-tez yurib ketdi. Iti ham qiyshiq oyoqlarini pildiratib, uning ortidan yugurdi.

- Aqldan ozgan ekan, - dedi Dizma, graf muyulishdan o'tib, ko'zdan g'oyib bo'lgach. - Telbaning xuddi o'zginasi. Nimalarni vaysamadi-ya!.. Badavlat janoblarning dilida doim biror qabihlik bo'ladi... Balki, uning gaplari rostdir... Jin ursin... Kunik! Uni ablah dedi-ya... E, mening nima ishim bor?

Nikodim qo'l siltadi-da, tamaki tutatdi. Uzoqdan bongning cho'ziq jaranglagani eshitildi. Kechki ovqatga chaqirishmoqda edi. Dizma o'rnidan turib, uy tomon yo'l oldi.

#### 4-bob

Stol yonida turgan basavlat xizmatkor lakopchalarni asta almashtirib qo'ydi. Dasturxonga navbati bilan bir necha xil taom tortilgandi. Nikodimning kayfiyati nonushta paytidagiga qaraganda ancha durust edi. Qunitskiy - ehtimol Kunik - ishlar va Dizma bilan qiziqmay qo'ygandi. U endi suxandonlik o'qlarini xotini bilan qiziga qarab sochar, ulardan xarid qilgan narsalari haqida so'rab-surishtirardi.

Pani Nina odob bilan, ammo sovuqqina qilib javob berar, Kasya esa "ha" yoki "yo'q" deya ming'irlar, ba'zi savollarga mutlaqo javob ham bermasdi. Ponimirskiy bilan g'alati suhbatdan so'ng Nikodim qizining Kunitskiyga nisbatan surbetlik darajasiga borib yetadigan bunday hurmatsizlik qilishi sababini sira tushunolmay qoldi. U bunday munosabat muammosini tushunishga harakat qilardi-yu, biroq o'ylab-o'ylab tagiga yetolmasdi.

Ovqatlanib bo'lishgach, Kunitskiy sayr qilishni taklif etgan edi, Kasya yelka qisib qo'ya qoldi. Nina esa:

- Mayli, bajonu dil, - deya javob qildi.

Qunitskiy og'ir hassasini to'qillatib sigara tutatganicha Nina bilan oldinda borardi. Ular parkning, Dizma hali ko'rmagan tomoniga qarab yurishdi. Bu yerda tarvaqaylagan daraxtlar bo'lmay, hamma yoq maysazor va gulpushta qilib qo'yilgan edi. Faqat ahyon-ahyonda qoramtir tusga kirib borayotgan osmon tarxida ayrim daraxtlarning ko'rkam qubbasi ko'rinib qolardi.

Nikodim zarurat yuzasidan Kasyaning yonida qoldi. Ular indamay borishardi. Tevarak-atrof jimjit edi. Faqat oldinda ohista suhbatlashib borayotgan Kunitskiy bilan Ninaning uzuq-yuluq tovushi quloqqa chalinardi. Umuman xiyobon bo'ylab asta qadam tashlayotgan baland bo'yli, xushqomat juvonning yonida qo'llarini silkitganicha pildirab borayotgan cholni ko'rgan odamning kulgisi qistardi.

- Tennis o'ynashni bilasizmi? - deya so'radi Kasya.

- Menmi? Yo'q. Bilmayman.

- Qiziq.  
- Nimasi qiziq ekan.  
- Chunki hozirgi erkaklarning hammasi tennis o'ynashni biladi.  
- Bu o'yishga o'rganishga vaqtim bo'lmagan. Faqat bil'yard o'ynashni bilaman.  
- Rosti bilan-a? Juda qiziq. Ayting-chi. Kechirasiz, men hozir... - dedi Kasya birdan va gulpushta tomon yugurib ketdi.  
Dizma nima qilarini bilmay to'xtab qoldi. Biroq Kasya tezda qo'lida tamaki guli tutganicha qaytib keldi. Guldan xo'shbo'y hid taralmoqda edi. Kasya uni Nikodimning dimog'iga tutdi. Qiz gulni men uchun uzib keldi, deb o'ylagan Dizma qizarib ketdi va gulni olmoqchi bo'lib qo'l uzatdi.  
- E, yo'q, gul sizga emas. Hidlab ko'ring. Ajoyib-a, to'g'rimi?  
- Ha, albatta, juda xushbo'y ekan, - dedi xijolatda qolgan Nikodim.  
- Siz o'zingizga juda bino qo'ygan ko'rinasiz!  
- Men-a? Nega endi? - ajablandi Dizma.  
- Darrov, bu gulni menga hadya etyapti, deb o'yladingiz. Chamasi, ayollardan tez-tez gul olib tursangiz kerak-da?  
Umri bino bo'lib bironta ayoldan gul olmagan Dizma har ehtimolga qarshi:  
- Ha, shunaqasi ham bo'lib turardi, - deya javob qildi.  
- Poytaxtdagi kiborlar jamiyatida siz kuchli shaxs sifatida obro' qozongan bo'lsangiz kerak-a?  
- Men-a?  
- Otam aytgan edilar. Siz chindan ham shunaqa odamga o'xshaysiz. Shunday qilib, bil'yard o'ynashni bilaman deng?  
- Ha, yoshligimda o'rganganman, - javob berdi Dizma, liskovlik Aronson qandolatxonasiidagi tamaki tutuniga to'lib turadigan kichkinagina bil'yardxonani eslar ekan.  
- Biznikida ham bil'yard bor. Ammo hech kim o'ynashni bilmaydi. Agar vaqt topib, o'rgatsangiz, bajonu dil o'rganardim...  
- Siz-a? - ajablandi Dizma. - Ayol kishining bil'yard o'ynaganini sira ko'rgan emasman. Axir bu erkaklarning o'yini-ku.  
- Men o'zim shunaqa, erkaklarning o'yinini yaxshi ko'raman. Xo'sh, o'rgatasizmi?  
- Jonim bilan.  
- Hoziroq boshlaylik bo'lmasam.  
- Yo'q, - deya e'tiroz bildirdi Dizma. - Bugun ishim ko'p. Hisob-kitob daftarlarini ko'rib chiqishim kerak.  
- Hm... Sizni judayam xushmoamala deb bo'lmas ekan. Lekin xarakteringizning o'zi shunaqa bo'lsa kerak.  
- Xo'sh, bu, yaxshimi, yomonmi? - deya yurak yutib so'radi Nikodim.  
- Nima yaxshimi, yomonmi? - sovuqqina qayta so'radi Kasya.  
- Xarakterimning shunaqaligi-da?  
- Bilasizmi... Sizga ochig'ini aytaman. Men qo'lidan ish keladigan odamlarni yaxshi ko'raman. Lekin bunday odam dadamlarga o'xshamasligi kerak. Ha, bir narsani oldindan, hm.. bilib olmoqchi edim... Agar ochig'ini aytsam xafa bo'lmaysizmi?  
- Xudo saqlasin!  
- Unday desam, bu bilan mening ishim yo'q.  
- Tushunmadim.  
- Siz gapning po'skallasini yaxshi ko'rasizmi?  
- Nima?  
- Ko'rib turibman, dudmal gapni yomon ko'rar ekansiz. Juda yaxshi. Gap bunday, agar sizga ba'zan iltifot ko'rsatgudek bo'lsam, bundan noto'g'ri xulosa chiqarib yurmang. Boshqacha qilib aytganda, mendan gul kutmang.  
Nikodim nihoyat qizning nima demoqchi ekanligini tushundi-da, kulib yubordi.  
- Men bu narsani xayolimga ham keltirgan emasman.  
- Juda yaxshi. Boshidanoq oraii ochiq qilib olganimiz ma'qul.  
Dizma negadir ranjiganday bo'lib, o'ylamay-netmay dedi:  
- Gapingiz to'g'ri, shuning uchun men ham ochig'ini aytmoqchiman: siz ham menga yoqmaytiz.  
- Rostdan-a? Unday bo'lsa yanayam yaxshi, - dedi kutilmagan bu gapdan bir oz esankirab qolgan Kasya. - Bunday fikr almashuv bil'yard o'yinini o'rganishimizda ancha osonlik tug'diradi.  
Er-xotin Qunitskiylar ortlariga qaytishib, ularga kelib qo'shilishdi. Kasya Ninaning qo'ltig'idan olib, unga qo'lidagi gulni uzatdi:  
- Bu senga, Nina, axir sen tamaki gulini yaxshi ko'rsan-ku, shunday emasmi?..  
Kunitskiy Kasyaga o'girilib qaradi. Qorong'i tushgan bo'lsa-da, Dizma uning ko'zi g'azab bilan yonayotganini yaqqol so'zdi.  
- Bunday namoyishning nima hojati bor? - dedi chol jahl bilan yanada qattiqroq shushulab.  
- Uni uzib bekor qilibsan. Gulning umri busiz ham juda qisqa-ku, - dedi xijolat chekkan Nina astagina..  
Ular bir-birlariga yaxshi uyqu tilab, vestibyulda xayrlashishdi. Biroq Dizma uyquni xayoliga ham keltirmagan edi. U qanday bo'lmasii Kunitskiyning xo'jalik ishlarini tushunib olishga ahd qilgandi. Bu juda mushkul ish edi: butun-butun sahifalar, qator raqamlar, u bilmaydigan yoki ularning sirli ma'nosini oxirigacha tushunib yetolmaydigan qandaydir g'aroyib, g'anima so'zlarga to'ldirib yuborilgandi. Diskont, polufabrikat, himoya solig'i, ikkinchi straxovaniye, kompensatsiya, tendensiya, narxni oshirish, ekvivalent - miyasi g'ovlab ketgan Dizmaning peshanasini ter qopladi.  
U ovozi chiqarib o'qib ko'rди, biroq buning ham foydasi tegmadi. O'zi o'qiyotgan jumalarning mazmuni miyasidan chiqib, havoga uchib ketaverardi. Nikodim stol yonidan sapchib turdi-da, mushti bilan boshiga urganicha, hisob-kitob daftarlariga lan'at o'qib, xonada u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi.  
- Tushunishim kerak, - derdi u qaysarlik bilan, - bu ishning tagiga yetishim lozim, bo'lmasa holimga voy.  
U yana o'tirib o'qiy boshladi, yana sapchib o'rnidan turdi.  
- Yo'q, behuda urinyapman.. Miyam yorilsa yoriladiki, ammo bu la'nati ishning tagiga yetolmayman.  
U vannaxonaga borib, sovuq suvning jo'mragini ochdi-da, "Yordami tegarmikin yoki yo'qmi?.." deya o'ylaganicha bir necha minut boshini suvga tutib turdi.  
Buning ham nafi tegmadi. U tuni bo'yi qog'ozlar ustida muk tushib o'tirib chiqdi. Biroq shuncha urinishlarining natijasi qattiq bosh og'rig'i bo'ldi, xolos. U Koborovo xo'jaligi haqida bir oz tasavvur hosil qildi. Ammo bu tasavvur shunchalik yuzaki ediki, ish yuritish u yoqda tursin, hatto Kunitskiy bilan gaplashish uchun ham kamlik qilardi.  
"Nima qilmoq kerak axir?"

Nikodim uzoq o'ylab, osonlikcha jon bermaslikka ahd qildi.

"Ish boshlashni paysalga solaman, bu orada, balki, bir joydan najot yo'li topilib qolar".

Kunitskiy hisob-kitob daftarlari uyulib yotgan stol yonida boshini changallab o'tirgan Dizmaning yoniga kirganida soat to'qqiz bo'lgan edi.

- Azizim, pan Nikodim, - deya qichqirdi chol go'yo ranjigandek bo'lib, - nima qilyapsiz o'zi! Mutlaqo uxlamabsiz-ku, axir!

Mehnatsevarlik ham evi bilan-da, sog'liq ham kerak-ku odamga.

- Balo ham urmaydi menga, - to'ng'illadi Dizma. - Ishni boshlaganimdan keyin uni oxiriga yetkazishim kerak.

- Juda qaysar ekansizu... Xo'sh, qalay?

- Hech nima deyolmayman.

- Azizim, pan Nikodim, chindan ham ishlar juda batartib-a? Aniq, lo'nda, sarishta...

Dizma so'kib yuborishiga sal qoldi.

- Chindan ham hammasi batartib ekan, - dedi u g'ijinib...

- Nima? Rosti bilan-a? Hamma ishni o'zim qilaman. Bu mexanizmiig ipidan-ignasigacha menga besh panjadek ma'lum. Shu boisdan ham xizmatchilarimdan birontasi meni aldab ketolmasligiga imonim komil. Endi har qalay ishni yig'ishtiring. Hozir nonushta qilamiz. Hali ish uchun vaqtingiz ko'p, bugun siz bilan hech qayoqqa bormaymiz. Qog'oz fabrikasida qurilish komissiyasining majlisini o'tkazishim kerak, so'ngra Kotiluvkadagi o'rmonni ko'rgani boraman.

Nikodim bilan Kunitskiy yemakxonaga kirib borishganida, xonimlar ularni kutib o'tirishgan edi.

- Voy, muncha rangingiz oqarib ketibdi!.. - deya gap qotdi pani Nina.

- Bir oz boshim og'riyapti.

- Bir tasavvur qiling-a, - deya sannay ketdi Kunitskiy, - pan Nikodim mijja ham qoqmabdi. Tuni bilan hisob-kitob daftarlari ustida o'tirib chiqibdi.

- Balki bosh og'rig'i dori icharsiz? - so'radi Nina.

- Foydasi tegarmikin...

- Iching, ancha yengil tortasiz.

U xizmatkorga dorilar solingan qutichani keltirishni buyurdi. Shundan so'ng Dizma taxir dorini ichishga majbur bo'ldi.

- Bilasizmi, Nina, - dedi Kasya, - pan Dizma menga bil'yard o'ynashni o'rgatadigan bo'ldi.

- Siz bil'yardni yaxshi o'ynaysizmi?

- O'rtacha, - javob qildi Nikodim. - Bir vaqtlar yaxshi o'ynardim.

- Balki, mashqlarni nonushtadan so'ng boshlarmiz? - deya taklif etdi Kasya.

- Men esa sizlarni tomosha qilaman, - qo'shimcha qildi Nina.

- Xo-xo, - kulib yubordi Kunitskiy, - pan Nikodimni mendan butunlay tortib olmasanglar, deb qo'rqib qoldim.

- Erim sizni bizdan qizg'anyapti, - deya jilmaydi Nina. Dizmaga ayol unga xayrixohlik bilan qarayatgandek tuyuldi.

"U juda mehribon bo'lsa kerak", - xayolidan o'tkazdi Nikodim.

Kunitskiy nonushta qilib bo'lishgani zahoti ular bilan xayrlashdi-da, pildiraganicha o'zini kutib turgan avtomobil' tomon yo'l oldi.

Kasya bil'yardni o'yinga hozirlashni buyurgach, ularning uchovi bil'yardxonaga o'tishdi.

Mashq Dizmaning kiyni qanday ushlarish lozimligini ko'rsatishidan boshlandi. So'ngra u soqqani qanday urish lozimligini tushuntirdi.

Kasya hammasini tez o'rgandi: uning qo'li baquvvat, ko'zi ham mo'ljalni to'g'ri olardi.

- Siz hali juda yaxshi o'ynaydigan bo'lasiz, - dedi Dizma. - Faqat bir oz mashq qilishingiz kerak.

- Demak, Kasya ziyarak shogird ekan-da? - deya so'radi Nina.

- Ha, kiyni birinchi marta ushlagan odam sifatida juda yaxshi o'ynadi.

- Bil'yard o'yinida eng qiyini nima? - so'radi Kasya.

- Karambol'.

- Iltimos, ko'rsating,

Dizma soqqalarni stol ustiga tikdi.

- Marhamat, qarang, - dedn u, - endi men o'z soqqamni shunday uramanki, u borib ketma-ket ikki soqqaga uriladi.

- Bunday bo'lishi mumkin emas: ular bir chiziqqa joylashmaganku, axir.

- Xuddi shuni karambol' deyishadi-da, - deya jilmaydi Nikodim, ayollarni qoyil qoldirganidan mamnun bo'lib. - Uning butun siri soqqaning turli joyda stol chetiga urilib, yo'nalishini o'zgartirishida. Karambol'. mana bunaqa bo'ladi.

U soqqani kiy bilan asta urgan edi, karambol' hosil bo'ldi-qo'ydi. Xonimlar buni ko'rib lol qilishdi.

- Axir bu geometriya-ku, - deya ajablandi Nina.

- Men buni sirayam o'rgana olmayman, - gap qotdi Kasya.

- Balki, siz ham urinib ko'rarsiz? - dedi Dizma Ninaga qarab.

- O, men mutlaqo o'ynolmasam kerak, - javob qildi Nina. Lekin kiyni qo'lga oldi.

Juvon chap qo'lini kiyga qay yo'sinda tirgak qilishni bilolmagan edi, Dizma unga tushuntira boshladi. Nikodim qo'lni stolga qanday qo'yishi lozimligini ko'rsatayotib, asta uning bilagidan tutdi. Ninaning terisi juda silliq va mayin ekan. Bu qo'llar mehnat nimaligini bilmasa kerak, - deya xayolidan o'tkazdi Dizma...

"Badavlat bo'lish juda ajoyib narsa-da, - deya o'yladi u yana, - bir imo qilsang bas - ko'ngling tusagan narsani bajo keltirishadi..."

- Xo'sh, pan Dizma, - dedi Nina, - meni o'rgatgiz kelmayapti, shekilli?

- Kechirasiz. Shunchaki... xayol surib qolibman.

- Qiziq, nima haqida xayol surdingiz?

- Shunchaki o'zim... qo'lingizdan tutganimdan so'ng: bunday nozik qo'llar mehnat nimaligini bilmasa kerak deb o'yladim.

Nina qip-qizarib ketdi.

- Rost aytdingiz. O'zim ham anchadan beri uyalib yuribman. Biron ishga qo'l uray desam irodam zaiflik qiladi. Ehtimol, sharoitning o'zi shunday bo'lgani uchun yalqovlik qilayotgandirman.

- Albatta, shuncha puli bor odam ishlab ham nima qilardi, - dedi Dizma mutlaqo beg'araz.

Nina lablarini tishlab, yerga qaradi.

- Siz yuz-xotir qilmay gapirdingiz, lekin, tan olaman, siz haqsiz.



Juvonning nima demoqchiligini tushunolmay qolgan Dizma bir oz gangib qoldi.

- Pan Dizma rostgo'ylikning xuddi o'zginasi ekan. O'ylagan narsasini betingga aytadi-qo'yadi, - dedi Kasya.

- Noyob fazilat, - deya javob qildi Nina.

- Ochig'ini aytganda, bunday qilish hamma vaqt ham atrofdagilarga yoqavermaydi.

- Lekin foydasi bor. Menga soxta maqtovdan ko'ra achchiq haqiqat yuz karra ko'proq yoqadi...

- Menimcha, maqtov bilan pan Dizma - bir-biriga to'g'ri kelmaydigan tushuncha. Ayting-chi, - dedi Kasya Nikodimga qarab, - siz, biron marta bo'lsin, ayollarga xushomad qilganmisiz?

- Bo'lmasam-chi. Agar men chiroyli ayolni ko'rsam, unga biror yoqimli gap aytishim mumkin.

- Faqat shumi? Xo'sh, masalan, menga nima degan bo'lardingiz?

- Sizgami?.. Hm... - Dizma xayolga cho'mib, go'shtdor iyagini ishqab qo'ydi.

Kasya haxolab kulib yubordi.

- Ko'rdingmi, Nina, maqtashga kelganda pan Dizma shunaqa qiynalib qoladilar. Iltimos, men to'g'rimda biror narsa deng. Agar meni umuman maqtay olmasangiz, biror ayrim joyimni topib maqtang...

Qizning nozik tuk qoplagan qoramag'iz yuziga qon yugurdi. Nikodim ichida, Kasya ko'hlikkina ekan, deb o'yladi. Lekin u baribir qandaydir sirli ko'rinardi. Qizning Ninaga tikilgan qo'y ko'zlarida o'qtin-o'qtin qandaydir g'alati bir ifoda uchqunlardi.

- Sizning quloqlaringiz chiroyli ekan.

- O'!.. - deya ajablendi Kasya. - Sizdan shu gapni eshitaman deb sira o'ylamagandim. Bultur qishda Riv'erada bo'lganimda, maestro Berganoning o'zi menga xuddi shu gapni aytgan edi.

"Bergano degani kim bo'ldiykin? Obbo la'nati, qo'lga tushdimu", - degan xayol kechdi Nikodimning miyasidan. U shosha-pisha dedi:

- Tasviriy san'atni yaxshi tushunmayman. Unga hech qachon qiziqqan emasman.

- Ammo bu narsa sizning ulug' rassomlar kabi nozik did bilan baho berishingizga xalal etmas ekan, - deya muloyimgina e'tiroz bildirdi Nina.

Kasya kiyni stol ustiga qo'ydi-da, bugunchalik bil'yard o'yini joniga tekkanini aytdi.

- Borib qayta kiyinib chiqaman. Siz men bilan birga ot minib sayr qilgani bormaysizmi?

- Rahmat, hali qiladigan ishlarim ko'p, - javob qildi Nikodim.

- U holda bir o'zim boraman. Kechgacha xayr, Ninochka, - Kasya Ninaning bo'ynidan quchib, labidan o'pdi.

Nina bilan yolg'iz qolishgach, Dizma dedi:

- U sizni o'z onasidek yaxshi ko'rar ekan. Nina orqasiga o'girilib, deraza oldiga bordi.

- Biz bir-birimizni opa-singillardek yaxshi ko'ramiz.

- Chamasi, yoshingizdagi farq uncha katta bo'lmasa kerak. Men sizlarni avvaliga opa-singil deb o'yladim, Lekin tabiatigiz har xil ekan...

- Ha, - deya tasdiqladi Nina, - xarakter jihatidan ham, dunyoqarash jihatidan ham biz bir-birimizga o'xshamaymiz.

- Ammo baribir bir-biringizni yaxshi ko'rasiz. Nina javob bermadi. Suhbatni qanday davom ettirishni bilmay qolgan Dizma xayrlashishga qaror qildi, - Men boray endi. Yaxshi qoling, Nina javoban bosh irg'adida, so'radi: - Sizga boshqa hech narsa kerak emasmi?

- Yo'q, minnatdorman.

- Marhamat, agar biror narsa kerak bo'lib qolsa, tortinmay xizmatkorlarga buyuravering...

- Rahmat...

Dizma ta'zim qilib, xonadan chiqib ketdi. U og'ir qadam tashlab koridordan borar ekan, Nina Nikodimning qip-qizil bo'yni hamda keng va beo'xshov yelkasiga tikilib turdi.

"Kuchli odam shunaqa bo'lar ekan-da, - xayolidan o'tkazdi u. - Qiziq... Harqalay... Eh, xayolparastligim qursin!.." deya kulib yubordi Nina va barmoqlarini chirmashtirib, butun gavdasi bilan kerishdi.

Dizma yana Kunitskiyning hisob-kitob daftarlarini o'qiy boshladi, biroq uning miyasi tundagidan ham battarroq ishlamay qo'ygandi. Bu behisob raqamlarning tagiga yetib bo'lmaydigandek tuyulardi unga.

- E, jin ursin! - deya so'kindi Nikodim. - O'zim ham g'irt to'nka ekanman.

Dizma gimnaziyani esladi. U yerda tushunmagan narsangni hech bo'lmasa yodlab olishing mumkin edi. To'g'ri, juda mashaqqatli ish, lekin shu yo'l bilan o'qituvchining dag'dag'asidan qutulardi. Nihoyat, agar yodlay olmasang o'zingni kasalga solib, darsga bormasliging ham mumkin... Bu yerda esa qutulishning chorasi yo'q... Chunki yodlab olishning iloji yo'q, kasal bo'lish esa...

Nikodim birdan:

"Kasal bo'lib olsam-chi? - deb o'ylab qoldi. Xo'sh, bundan nima foyda?

"Harqalay ishdan haydalanishni bir necha kun... hatto bir necha hafta orqaga suraman-ku..."

Ajoyib fikr! Balki, bu orada biror narsa o'zgarib qolar...

"Ha... - deya bir qarorga keldi Nikodim. - O'ylab o'tirishning nima hojati bor? Ertaga ertalabdanoq kasal bo'lib olaman - vassalom!"

U qanday kasallikni tanlasam ekan deb, bosh qotira boshladi, Yuqumlisi bo'lmaydi: kasalxonaga jo'natishlari mumkin.

Oshqozonim og'riyapti, deyish ham mumkin emas: ovqat bermay qo'yishadi.

"Bod kasalim qo'zg'adi, desam-chi?"

Dizma hatto xursand bo'lib ketdi:

"Shunisi ma'qul, mayli, doktor ham chaqirib ko'rishsin, u ham baribir hech nimani bilolmaydi".

Xizmatkor tushki ovqatga chaqirgani kelganida, Dizma, o'ng qo'lim bilan o'ng oyog'imda bod kasali qo'zg'adi, deyishga qaror qilib qo'ygan edi. U shu bugunoq, kechki ovqat mahali oyoq-qo'li og'riyotganidan shikoyat qiladi, ertaga esa butunlay karavotdan turmay qo'ya qoladi. O'ylab topgan hiylasidan Dizmaning bir zumda kayfi chog' bo'lib ketdi.

Stol atrofida hammasi xursand o'tirishardi. Chamasi xo'jayinning yo'qligi xonimlarga yaxshi ta'sir qilgandi. Suhbat Kasyaning tibbiyotni o'rganish uchun Shveysariyaga jo'nashi xaqida bormoqda edi.

- Universitetdan so'ng amaliy ish bilan shug'ullanmoqchimisiz? - deya so'radi Dizma.

- Kasal bo'lsak, senga borib davolanar ekanmiz-da, - dedi kulib Nina. - Sen-ku davolatarsan, - gap qotdi Kasya lekin pan Dizmaga kelsak...

- Berahm ekansiz... Mabodo tobim qochib qolsa-yu, yaqin atrofda vrach topilmasa-chi?  
- Siz gapimni noto'g'ri tushundingiz, Men ayollar kasalligi bo'yicha mutaxassis bo'laman.  
- Shunaka deng? Afsus. Mening bodim bor. Bu kasal bilan esa ko'proq erkaklar og'rishadi.  
- Nega endi xotinlar ham og'rishadi... - dedi Nina - Hammasi kasallikning sababiga bog'liq.  
- Meniki urushning asorati, - deya javob qildi Nikodim.  
- Siz ofitser bo'lganmisiz?  
- Yo'q, oddiy askar edim.  
- Qanday ajoyib-a. Ko'pgina mashhur kishilar o'shanda kul rang soldat mundirini kiyib jang qilishgan. Mundirlar ko'k rangda edi, - deya bilag'onlik bilan juvonning gapini to'g'riladi Dizma.  
- Albatta, umid rangi - siz buni nozik his etibsiz  
- Yarador bo'lganmidingiz?  
- Yo'q. Urushdan qolgan yagona xotira - bod kasalim.  
- Ordenlar ham olgandirsiz, albatta?  
Nikodim orden olmagan edi, ammo u darhol yolg'on ishlatdi:  
- "Virtuti Militali" , bundan tashqari unvonimni ham oshirishdi. Sal bo'lmasa general bo'lib ketardim.  
- Qanday qilib?  
- Meni unter-ofitser darajasiga ko'tarishdi. Agar urush tugab qolmaganida, ehtimol, generallik unvonigacha yetib borardim.  
- Lekin urushdan sizda faqat yoqimli xotiralar qolibdi.  
- U payt hayotimning eng yaxshi davri edi, - dedi Nikodim rostiga ko'chib.  
- Tushunaman. Garchi ayol kishi bo'lib, o'zimni yaralangan va o'layotgan odamlar orasida baxtli deb his etolmasam-da, haqiqiy erkak uchun urushning nima ekanligini yaxshi tasavvur qilaman. Urushda chinakam erkaklik tuyg'ulari namoyon bo'ladi. O'rtoqlik ruhi, kurash...  
Dizma jilmaydi. Shu tobda u telegraf batal'onining kazarmalari, serjantlardan birining tovuqxonasi, issiq qahva, qorni to'yib, bekor yurgan paytlarini esladi.  
- Ha, yirtqich hayvonga aylanasan u yerda, - deya tasdiqladi u.  
- Jonginam, - dedi Nina Kasyaga murojaat qilib, boya uzilib qolgan gapini davom zttirar ekan, - harqalay tan olishing kerak: urushning ham o'z jozibasi bor. Bu narsa ayniqsa biz ayollarga qattiq ta'sir qiladi.  
Kasya yelkasini qisdi:  
- Hammaga ham bunday emas.  
- Barcha ayollar, - dedi Nikodim, - lapashanglikdan qo'pol kuchni afzal ko'rishadi.  
- O'zingizni bozorga solmay qo'ya qoling, - deya kulib yubordi Nina.  
Yana bir oz suhbatlashib o'tirishgach, Dizma o'ziga ajratilgan xonaga yo'l oldi. U parkda xo'jayinlarning sirini bajonu dil aytib beradigan anovi telba graf bilan uchrashishi lozimligini unutmagan edi.  
Hech kim ko'rmayotganiga ishonch hosil qilg'ach, Nikodim ayvonga chiqdi-da, tusmol bilan keksa arg'uvon tagidagi kursiga olib boradigan xiyobon bo'ylab yurib ketdi. Biroq u hadeganda o'sha kursini topa olmadi. Shundan so'ng u Ponimirskiy bilan uchrashishdan umudini uza boshlagan edi, yaqinida itning vovillagani eshutilib qoldi.  
- Shu yerda ekan! - xursand bo'ldi Nikodim. Chindan ham nariroqda sershox qora qayin ostida tinmay vovillaganicha Ponimirskiyning iti irg'ishlamog'chi edi. Dizma boshini ko'tarib, yuqoriga qaradi-yu, hayratdan dong qotib qoldi: yosh graf shoxning ayrisida o'tirardi.  
- A, bu sizmisiz! - deya qichqirdi u yuqoridan. - Juda yaxshi!  
Ponimirskiy yerga osongina sakrab tushdi-da, Dizmaga bosh irg'adi.  
- Kunikka men haqimda gapirdingizmi? - so'radi u, Nikodimga shubha bilan tikilar ekan.  
- Yo'g'-e, xudo saqlasin! Innaykeyin, uning o'zi uyda yo'q ham.  
- Bunisi yaxshi bo'libdi. Daraxtga chiqib o'tirganimni ko'rib ajablanmadingizmi?  
- Yo'q, nega endi.  
- Bilasizmi, buni atavizm deydi. Ba'zan odamning juda ham ibtidoiy ahvoliga qaytgisi kelib qoladi. Sizda ham hech shunday bo'lganmi, pan... Familiyangiz nima edi?  
- Dizma.  
- Ha, ha, Dizma. Ahmoqona familiya ekan. Ismingiz-chi?  
- Nikodim.  
- Qiziq, sira Nikodimga o'xshamaysiz-ku. Hay, mayli, buning ahamiyati yo'q. Itim Brut ham Brutga o'xshamaydi. O'zimni ko'rgan odam ham ismimni Jorj deb o'ylamaydi. Demak, anovi ablah qayergadir ketdi, dedingizmi?  
- Ha, bir kunga ketdi.  
- Yana biror qalloblik qilmoqchidir-da. U bizdan Koborovoni tortib olganidan xabaringiz bormi?  
- Yo'q, bu to'g'rida hech nima eshitmaganman.  
- Kunik sudxo'rlik bilan shug'ullanardi. Bir payt otam anchagina pul qarzidor bo'lib qoldi. Boz ustiga urushning kasri tegib, moliyaviy ahvolimiz juda mushkullashib qoldi. Shundan so'ng Kunik ishni osongina chuvalashtirib yubordi va oxir-oqibatda otamni Koborovoni yolg'ondakimiga sotishga ko'ndirdi.  
- Yolg'ondakamiga deysizmi? - Aniq bilmayman, bu ishga tishim o'tmaydi. Shunisi ma'lumki, u muttahamchilik yo'li bilan yer-mulkimizni o'zlashtirib oldi. Hay, mayli. Hali uni avaxtaga tiqishadi.  
- Xo'p, yaxshi, - deya ehtiyotkorlik bilan gap boshladi Dizma, - nega bo'lmasam singlingiz Kunits... o'sha Kunikka turmushga chiqdi?  
- Otamni yaxshi ko'rganidan. Agar Koborovoni tashlab ketishga to'g'ri kelganida otam buni sira chidayolmasdi. Muttaham Kunik esa buni sezib qoldi-da, otamga: agar Nina menga turmushga chiqsa, Koborovoni o'ning nomiga yozdirib qo'yaman deya va'da qildi. Faqat shu yo'l bilangina otameros mulkimiz Ponimirskiylar qo'lida qolishi mumkin edi. Singlim shu ishni deb o'zini qurbon qildi, mana endi jabrini tortyapti. Chunki otam to'y o'tgach, bir yildan so'ng baribir dunyodan o'tdi. Anavi ablah esa Ninani aldab-suldab juda katta pullik veksellarga qo'l qo'ydiribdi-da, so'ng vakolatnoma yozdirib olibdi. Singlimning o'z yer-mulkida bekalik qilolmasligining sababi ham ana shunda. Ablah Kunik bu yerda hamma ishga xo'jayin bo'lib olgan.

- Uning qizi-chi, bu ishlarga u qanday qarayapti?  
- Kasyami? Maymun u. Lekin Kunikni yomon ko'radi: aytishlariga qaraganda, u albah Kasyaning onasini xo'rлагan ekan.  
- U o'lganmi?..  
- Kim?  
- Pan Kunikning birinchi xotini-da!  
- Qanaqa pan? - deya hurpaydi Ponimirskiy. - Muttaham u, ablah u, pan emas. Men pan bo'laman! Tushundingizmi?  
- Tushundim, tushundim, - dedi shoshilib Dizma, - Demak, o'lgan ekan-da?  
- Birinchidan, bu bilan mening ishim yo'q, ikkinchi" dan, o'lganiga ancha bo'lgan. Menga papiros bering.  
Ponimirskiy papiros tutatdi-da, og'zidan halqa-halqa tutun chiqargancha xayolga cho'mdi... Uning kechagiga qaraganda bugun ancha xotirjam ekanligini payqagan Dizma botinib so'radi:  
- Sizni uydan nega chiqarib yuborishgan?  
Ponimirskiy uning savoliga javob qilmay Dizmaning ko'ziga uzoq tikilib turdi. Nihoyat, u Nikodim tomon engashdi-da:  
- Ehtimol, sizning menga foydangiz tegib qolar, - deya shivirladi.  
- Meni-ya? - ajablendi Dizma.  
- Ji-i-im! - Graf atrofga alnaglab qaray boshladi. - Kimdir gapimizni eshitayotganga o'xshaydi.  
- Bu yerda hech kim yo'q-ku.  
- Jim, Brut! Qani, qidir josusni. Qidir deyaqman! It egasiga esankirab tikilganicha joyidan qo'zg'almay turaverdi.  
- He, maxluq! - dedi zardasi qaynab graf. - Yo'qol bu yerdan.  
U o'rnidan turib, oyoq uchida yurganicha butalar ichini aylanib chiqdi. So'ng yana kursiga kelib o'tirdi-da, ibratomuz ohangda dedi:  
- Ehtiyotkor bo'lgan durust.  
- Menga foydangiz tegishi mumkin dedingiz... - deya eslatdi Dizma.  
- Ha. Sizdan qurol sifatida foydalanaman. Lekin siz mening hamma gapimga miq etmay quloq solishingiz kerak. Bu haqda hech kimga og'iz ochmaysiz. Avvalo siz Varshavaga, xolam pani Pshelenskayaning oldiga borishingiz kerak. Xolam juda tentak, shu bilan birga juda hurmatli zot. Kecha to'g'ri aytgan edingiz: hurmatli zotlarning aksariyati tentak bo'lishadi...  
- Chindan ham shunday...  
Ponimirskiy istehzo bilan basharasini bujmaytirdi.  
- Lekin siz bu qonundan istisno ekansiz, - deya gapini davom ettirdi u. - Chunki siz ham ahmoqsiz, ammo sizni hurmatli zot deb bo'lmaydi. Biroq buning ahamiyati yo'q. Bizni muhimroq ishlar kutyapti. Gap bunday: Pshelenskaya xolamning tanish-bilishlari juda ko'p, keyin u Kunikni ko'rgani ko'zi yo'q. Shuning uchun ham u mening ishim yuzasidan sizga yordam berardi.  
- Qanaqa ish yuzasidan?  
- Men gapirayotganimda jim turib eshiting, jin ursin sizni! Kunik meni jinni deb e'lon qildi. Meni-ya! Tushunyapsizmi? Keyin menga vasiylik qilish huquqiga ega bo'lib oldi. Gap bunday, xolam, kimligiki aniq bilmaymanu, lekin mutaxassislarni yig'ishi kerak... Ular konsilium o'tkazib, mening ruhan sog'lom ekanligimni tasdiqlashlari lozim. Tushunyapsizmi?  
- Tushundim.  
- Men xolamga xat yozib, sizni kasbdoshim sifatida tavsiya qilaman. To'g'ri, siz ko'rinishingizdan ko'proq etikdo'zga o'xshaysiz. Lekin xolam anchadan beri Kunikning adabini berishni orzu qilib yuribdi, shuning uchun ham ishonadi. Xolamga meni tahqirlashayotganini, tutqunlikda saqlashayotganini aytasiz. Xullas, ahvolimni obdan yomonlab gapirib berasiz...  
- Yaxshi, lekin...  
- Jim! Bilmasangiz, bilib qo'ying: buning uchun men bilan do'stlashish sharafiga muyassar bo'lasiz. So'ngra sizga umrbod maosh belgilayman. Qalay, yetadimi? Hozir borib xat yozaman. Varshavaga jo'nashingiz oldidan batafsil ko'rsatma olish uchun oldimga kirasiz. Xatni ham o'shanda olasiz. Agar meni chaqgudek bo'lsangiz, bilib qo'ying: itdek otib tashlayman! Xayr.  
U hushtak chalyb itini chaqirdi-da, bir sakrab, butalar ortida g'oyib bo'ldi.  
"Telbaligi aniq, - deya xayolidan kechirdi Dizma. - Lekin harqalay grafning hikoyasida, ozgiia bo'lsa-da, haqiqat borga o'xshaydi. Kunitskiy Koborovoni sotib olganman, degandi. Xotini bilan qizi uni yomon ko'rishadi. Turgan gap, anovi telba va uning rejalari bilan ovora bo'lib o'tirishning hojati yo'q. Ammo bir o'ylab ko'rsam yomon bo'lmaydi: ehtimol, bu chigallikdan o'zimga biror foyda chiqarishim mumkindir?..."  
Hozircha u qanday foyda ko'rishi mumkinligini bilmasdi, ammo birovning siridan voqif bo'lib qo'yish xalal bermasligini his etardi. Ayniqsa uning hozirgi ahvolidan bu narsaning nafi tegishi mumkin edi.  
"Hech bo'lmaganda anovi telbaning gapi qanchalik rostligini bilib qo'yish kerak".  
Dizmaning miyasiga, agar Ponimirskiyning gapi rost bo'lsa, u holda Kunitskiyga siringni fosh etaman, deb po'pisa qilishim mumkin, degan fikr keldi. Nikodim xayol surib borar ekan, uy oldida xizmatkorga duch kelib qoldi. Xizmatkor unga xo'jayin mashinani qaytarib yuborgani, o'zi esa ish chiqib qolgani tufayli ertaga qaytajagini xabar qildi.  
Bu yangilikdan Dizmaning boshi osmonga yetdi. U yana bir kun mazza qilib dam oladi! Lekin u bod kasali qo'zg'ashini paysalga solib o'tirmaslikka qaror qildi. Harqalay u Kunitskiy bilan uchrashishdan bir kun oldin kasal bo'lib olsa yomon bo'lmaydi. Shu boisdan ham Nikodim kechki ovqat mahali goh yelkasi, goh tizzasini ushlab, go'yo qattiq og'riqdan azob chekayotgandek, to'lg'ana boshladi. Ikkala ayol ayniqsa Nina, achinib uning kasalini surishtira ketishdi. Dizma bod kasali borligini aytgach, ayollarning ikkovi yakdillik bilan Koborovoning nam iqlimi bu kasalni qo'zg'ashiga sabab bo'lishi mumkinligini tasqiqlashdi. Nina hatto buni oldindan aytib qo'ymagani uchun kechirim ham so'radi.  
Kompot ichib bo'lingach, og'riq juda avjiga chiqdi. Dizma xonimlardan afv etishlarini so'rab, o'z xonasiga yo'l oldi, Nina xizmatkorga uni kuzatib qo'yishni buyurdi-da, o'zi biror dori-darmoi topish uchun xonaki aptekasiga chiqib ketdi. Dizma o'zidan xursand edi. U kasal bo'lishni ham juda o'rniga qo'ydi. Uni yechintirib, to'shakka yotqizgan va tez orada dori olib kelgan xizmatkorning tashvishli ko'rinishi ham shundan dalolat berib turardi.  
Oradan chorak soat o'tgach, eshik taqillab qoldi.  
- Kiravering, - deya javob qildi Dizma. Shundan so'ng eshik ochilib, Ninaning tovushi eshitildi:  
- Qalay, tuzukmisiz?  
- Mazam yo'q.  
- Mabodo biror narsa kerak emasmi?

- Yo'q, rahmat.
- Yaxshi uxlab turing. Ertagacha tuzalib ketasiz, deb umid qilaman.
- Tuningiz xayrli bo'lsin.

Xonaga sukunat cho'mdi. Boya to'yib ovqatlanib olgan Dizmani mudroq bosdi.

"Bu Nina juda yoqimtoy xotin ekan, - deya xayolidan o'tkazdi u uyquga qetar ekan, - grafinya..."

5-bob

Koborovoning iqlimi Nikodim Dizmaning kasaliga juda yomon ta'sir qildi. Ertalab uning kechasi bilan mijja qoqmay chiqqani va oyoq-qo'lidagi og'riq yanada kuchaygani ma'lum bo'ldi. Oqsoch xotin Ninaxa ana shunday xabar olib keldi. So'ngra u Dizmaning oldiga bir talay dori-darmon olib qaytdi-da, bekaning o'qish uchun biror kitob kerak emasmikin, deb so'rayotganini xabar qildi. Dizmaning kitob o'qishga xushi yo'q edi. Biroq u nodon bo'lib ko'rinishdan cho'chib, oqsoch xotining kitobni qo'lida tutib turishga qiynalishini aytdi.

Bu bahona kutilmagan natija berdi. Eshik ortidan Ninaning tovushi eshitildi:

- Salom, pan Dizma. Ahvolingiz yengillashmaganidan juda xafaman. Balki, doktor chaqirtirish kerakdir?
- Yo'q, kerak emas, - deya qat'iy ohangda rad qildi Nikodim.
- Hoynahoy, zerikayotgan bo'lsangiz kerak. Agar sizga kitob o'qib berishsa-chi?
- Lekin kim ham o'qib berardi deysiz? Nina bir oz indamay turdi-da, so'ng so'radi: - Oldingizga kirsam maylimi?
- Marhamat.

Nina ichkariga kirib, hamdardlik va sinchkovlik bilan Nikodimga tikildi. Keyin o'zi kitob o'qib berishni taklif qildi. Dizma bezovta qilgani uchun undan kechirim so'radi, minnatdorchilik bildirdi, rozilik berishdan boshqa iloji qolmadi.

- Qo'ysangiz-chi! Arzimagan narsa-ku! Shunday ham ishsiz yuribman. Bundan o'zim ham xursand bo'laman. Ayting-chi, sizta qaysi yozuvchining asarini o'qib beray?

Nikodim o'ylanib qoldi: Liskovda ziyoli odamlar o'qiydigan biror durustroq yozuvchini tanlash kerak. Shu payt u ismi Djek deb talaffuz etilsa-da, lekin qandaydir boshqacha yoziladigan bir inglizni esladi.

- Balki, Djek Londondan o'qib berarsiz? - deb iltimos qildi u.

Nina jilmayib, bosh irg'adi.

- Hozir olib kelaman.

U tezda muqovasi chiroyli bir necha kitob ko'tarib qaytdi.

- Siz Djek Londonni yaxshi ko'rishingizni eshitib, sira ajablenganim yo'q.

Umri bino bo'lib Londonning biror asarini o'qimagan Dizma gap qotdi.

- Chindan ham u menga juda yoqadi, lekin siz nega bunday dedingiz?

- Meni kechirasiz, ehtimol bu shunchaki maqtanchoqlikdir, ammo men o'zimni anchayin kuzatuvchan odam deb hisoblayman.

Garchi siz Splendid Isolation ya'ni ichki tuyg'ular bilan yashovchi kishi, tabiatan odamovi bo'lsangiz-da, xarakteringizni tushunish uncha qiyin emas ekan.

- Nahotki?

- Ha. Biz, ayollar, ehtimol bunga ilmby yo'l bilan va hatto metodik uslub orqali erishmasmiz. Lekin biz psixoanaliz, boshqacha qilib aytganda, amaliy psixologiya bo'yicha mutaxassismiz. Bu o'rinda ziyrakligimiz tadqiqot metodining o'rnini bosadi, nozik seza bilish qobiliyati esa bizni xatolardan asraydi.

"Obbo, rosa valdiradi-ku", xayolidan o'tkazdi Dizma..

- Shu boisdan ham, - deya dadom etdi Nina kitobni ixtiyorsiz varaqlar ekan, - biz ochiq kitobdan ko'ra yopiq kitobning kalitini osonroq topa olamiz.

- Hm, har qanday kitobning ham sahifasini osongina ochish mumkin bo'lgan bir paytda qandaydir kalit qidirib o'tirishning nima hojati bor? - deya e'tiroz bildirdi Nikodim..

U yopiq kitoblar haqida so'z ochgan Nina hozir kitoby ochmay turib, London asarini muqova ustidan o'qibshni namoyish qilmoqchi shekilli, degan xayolga bordi. Shuning uchun ham qo'shimcha qildi:

- Kitobni ochishdan oson ish yo'q.

Nina uning ko'ziga tikildi-da, e'tiroz bildirdi:

- Yo'q, unday emas. Shunday kitoblar borki, bu usulni yoqtirishmaydi. Eng qiziqarlisi ham ana shu kitoblar. Ular faqat xayolan o'qish mumkin. Yo fikrimga qo'shilmaysizmi?

- Bilmadim, - javob qildi Dizma sira o'ylab o'tirmay. - Men bunday kitoblarni uchratgan emasman.. Juda qimmatbaho nashrlarni ko'rganman, lekin har qanday kitobni ham osongina ochib, o'qib chiqishim mumkin.

- Buni tushunish qiyin emas: siz, chamasi zeriktiradigan kitoblarni umuman qo'lingizga olmasangiz kerak. Sizni qiziqtirgan kitoblar esa go'yo magnetizm ta'sirida o'z-o'zidan ochilsa ehtimol. Kuchli iroda sohibi bo'lmish odamlarga xos narsa bu...

Dizma: "Nimalar deb valdirayapti bu xotin!" - deya ichida kulib qo'ydi. So'ng dedi:

- Axir kitobning sahifasini ochish uchun yosh bolaning ham kuchi yetadi-ku.

- Ammo siz juda kuchli xarakterga ega ekansiz

- Men-a? - g'oyat ajablandi Dizma. - O, bahslashmay qo'ya qoling. Menda bu fikrni tasdiqlovchi bir talay dalillar bor, - dedi mag'rur jilmayib Nina. - Masalan, sizning Djek London asarlarini yaxshi ko'rishingizni olaylik... Axir bu sizning didingizga juda xos-ku! Nega Pol' Jaral'di, Morua, Uayl'd, Sinkler L'yuis, Jeromskiy, Mann yoki Shouni emas, xuddi Londonni yaxshi ko'rasiz? Chunki London tinch ijodiy qahramonlik poeziyasini, kurash qudratining ibtidosini, mehnat madhiyasini kuylaydi.

Dizma indamay qolgandi.

- Ana ko'rdingizmi. Oldindan aytishim mumkin: siz Shopenni emas, Bramsni yaxshi ko'rasiz, sizga Yanek Mal'chevskiydan ko'ra Mateyko ko'proq yoqadi, qalbingizga Sirano de Berjerakdan ko'ra Lindberg yaqinroq turadi, gotik uslubda yaratilgan osmon o'par binolarni barokko va rokoko uslubidagi imoratlardan afzal ko'rasiz...

Juvon Nikodimga yosh bolalarnikidek katta-katta moviy ko'zlarini tikib turardi. Shu tobda u: "Menga qanaqa o'yinchoq olib kelganingizni yaxshi bilaman, amaki!" - deya yotgan bolani eslatardi.

Dizma nima deb javob berishni bilmay qolgandi, shu boisdan ham, go'yo qattiq og'riq turganday to'lg'anib ingray boshladi. Nina tashvishga tushib, Nikodimdan, gapim joningizga tegmadimi, ehtimol, bir oz uxlab olishni istarsiz? - deya so'ray boshladi...



- Menga ochigini ayting-chi, didingizni to'g'ri aniqladimmi?

"Jin ursin, men buni qayoqdan bilay!" - deya xayolidan o'tkazdi Nikodim va har ehtimolga qarshi javob qildi:

- Qisman to'g'ri aniqladingiz.

- Xo'p, yaxshi, - dedi Nina mamnuniyat bilan va kulib yubordi. - Keling, biror narsa o'qiyimiz bo'lmasam. "Qondoshlar" hikoyasini o'qib beraymi?

- Marhamat.

Nina asarni o'qiy boshladi. Unda o'g'irlab ketilgan it haqida hikoya qilindi. Dizma, qachon politsiya aralasharkin, deya betoqat bo'lib kuta boshladi; biroq hikoya mutlaqo boshqa izga tushib ketdi. Shundan so'ng sekin-asta voqeaning kalavasini yo'qotib qo'ygan Nikodimning qulog'iga Ninaning yoqimli tovushidan bo'lak hech nima eshitilmay qoldi.

U hozirgina oralarida bo'lib o'tgan gap to'g'risida o'ylay boshladi va dilida, suhbatimiz juda g'alati bo'ldi, degan xulosaga keldi: go'zal Nii kitob to'g'risida emas, go'yo mutlaqo boshqa narsa haqida gapirganday edi... Yoki, ehtimol, u?..

Shunda u birdan Liskov pochta idorasining noziri pan Bochek kvartirasidagi kichkina mehmonxonaga, uning erga tegmagan ikki qizi, boshlang'ich maktab muallimasi panna Vallyaskova, sud kotibi Yurchak va Liskovning "kiborlar jamiyati"ga mansub bo'lak yigit-qizlarni esladi. Qunitskiyning saroyi oldida oddiy kulbadek ko'rinadigan bu mehmonxonaga ular senzura-senzura o'ynash uchun yig'ilishardi. Panna Ledzya Bochek xona o'rtasiga o'tirganicha o'zini kitob qilib ko'rsatardi. Shundan so'ng atrofdagilar u haqida turli almoyi-aljoyi gaplarni ayta boshlashardi: birov uni hali varag'i qirilmagan jild desa, boshqasi qizni oshpazlik kitobi yoki she'rlar to'plami deb atar, ba'zilar esa, bu kitobning muqovasigina chiroyli, ammo ichini ochmagan ma'qul deyishardi... Ha-ha!

Chamasi, bu ham shunga o'xshagan bir o'yin bo'lsa kerak... Ha, xuddi shunday! Biroq bu pani unga yaxshi gap aytdimi yoki yomonmi?.. Ehtimol, yaxshi gap aytgandir; unday desa, bu boyonlarni sira tushunib bo'lmaydi!

"Unga yoqib qolgan bo'lsam-a?.. Yo'g'-e, bunday bo'lishi mumkin emas".

Ninaning tovushi hayajondan titrar va goh balandlashib, goh pasayardi. Juvonning kipriklari oppoq yonoqlariga uzun soya tashlab turardi. Quyosh nurida uning uzun sochlari yaltirardi. Daraxt yaproqlari orasidan tushgan shu'la gilamning u yer-bu yerini parcha-parcha qilib yoritarkan, lipillab o'ynardi. Hamma yoqni iyul' oyida ochiladigan gullar va lavandaning muattar hidlarni tutib ketgandi. Xonada tilla suvi yugurtirilgan va birinchi bilan bezatilgan muhtasham mebel' yarqirab turardi. Naqshinkor shiftga yoqut shilshilalari ko'zni qamashtiruvchi og'ir qandil osilgan edi.

"Yo qudratingdan parvardigor, bir hafta burun men, Nikodim Dizmaning ana shu hashamatli xonada, ajoyib to'shakda yotishimu, manovi go'zal xonimning menga kitob o'qib berishi kimning xayoliga kelibdi deysiz!"

U ko'zlarini yumgan edi, birdan yuragi orqasiga tortib ketdi:

"Bularning bari shunchaki tush, shunchaki xayol bo'lsa-ya, agar hozir ko'zimni ochib, yana Lutskayadagi Bartiklar uyining qurum bosgan devorlarini ko'rsam-a? Manovi tovush-chi... Bu Valentovaga "Kur'erni" o'qib berayotgan Man'kaning ovozi emasmu, ishqilib?"

Shu payt tovush eshitilmay qoldi va oradan bir oz vaqt o'tgach, Ninaning:

- Uxlab qoldingizmi? - deya so'ragani eshitildi. Dizma ko'zlarini ochdi-da, jilmaydi:

- Yo'g'-e, nima deyapsiz!

- Og'riq bosildimi? Yengil tortdingizmi, ishqilib?

Nikodim yana jilmaydi.

- Og'riq bosilgani yo'g'u, lekin ancha yengil tortdim.

Nina indamadi.

- Siz shu yerdaligingizda, o'zimni yaxshi his qilaman.

Nina unga ma'yusgina qarab qo'ydi va hech nima demadi. Nikodim juvonning ukasi, anovi telba uni baxtsiz deganida, rost gapirganga o'xshaydi, deya xayolidan o'tkazdi. Buni va umuman, grafdan eshitgan boshqa gaplarni tekshirib ko'rishning qulay fursati kelgan edi. Shu boisdan ham Dizma:

- Biror narsadan xafamisiz? - deya so'radi.

- Bu uyda kayfiyatim yaxshi deyishi mumkin bo'lgan yagona odam siz bo'lsangiz kerak,

- Nega endi?

- Chunki sizni bu uyga bog'lab turgan biror narsa yo'q... Ey xudoyim, axir siz har daqiqada bu uydan butunlay bosh olib ketishingiz mumkin.

Juvonning ko'zlarida yosh miltirab, lablari titrardi.

- Xali qochib ketasiz ham...

- Yo'q, - oladigan katta maoshini eslar ekan, qizg'in e'tiroz bildirdi Nikodim, - men bu uyda iloji boricha ko'proq qolishni istardim.

Nina qizarib ketdi.

- Siz buni chin ko'nglingizdan gapiryapsizmi?

- Boshingizni qotirib nima qilaman? Albatta chin ko'nglimdan.

- Axir baxtsiz kishilar orasida yashashdan cho'chimaysizmi?

- Sira ham. Keyin, siz nega o'zingizni baxtsiz hisoblashingiz kerak ekan? Axir yosh, sog'lom, badavlat ayolsiz, yengil hayot kechirasiz...

- Eh! - deya uning gapini bo'ldi Nina. - Shu ham hayot bo'ldimi!

Dizma unga ko'z qirini tashladi.

- Nima, eringiz yaxshi ko'rmaydimi?

- Erim? - Juvonning yuzida nafrat va ijirg'anish ifodasi paydo bo'ldi. - Erimish-a! U mendan nafratlanishini istardim. Meni unda nima ilinjim bor? Faqat boylik orttirishni o'ylaydi, yagona tashvishi... Uning intilishlari menga butunlay begona!.. U hech qachon mening qalbimni tushunishga harakat qilgan emas...

Ayol lablarini tishladi.

- Darvoqe, bu gaplarni sizga nega aytayapman?

- Aytganingiz juda yaxshi bo'ldi.

- Siz busiz ham hammasini ko'rib turibsiz. Pan Nikodim, ayting-chi, yolg'iz odam, mutlaqo yolg'iz odam baxtli bo'lishi mumkinmi?

- Bilmadim... Men mutlaqo yolg'izman.  
- Nahotki? Hech kimingiz yo'qmi? Oila ham qurmaganmisiz?  
- Hech kimim yo'q.  
- Bu holdan ezilmaysizmi?  
- Chamasi, ezilmasam kerak.  
- Chunki siz erkaksiz. Boz ustiga odamovisiz, irodangiz kuchli, tabiatan barqarorsiz, shuning uchun ham yolg'izlikni his etmaysiz. Hatto men kabi zaifa bir ayolning yolg'izligini tushuna olishingizga ham imonim komil emas.  
- Sizning o'gay qizingiz bor.  
- Eh! Kasyani aytyapsizmi... - deb yubordi Nina o'kinch bilan va yana labini tishlab yerga qaraganicha davom etdi. - Bilasizmi, bemalol gaplashish mumkin bo'lgan siz kabi odamni ko'p yillardan beri birinchi marta uchratishim... Sizing hamdardligingizda kishining nafsoniyatiga tegadigan achinish ham, hissiz kuzatuvchining befarqligi ham sezilmaydi... Bilasizmi, men hech kim bilan uchrashmayman. Dilimdagi barcha gaplarni ochiq aytgan birinchi odam siz bo'ldingiz. Keyin, sezib turibman, meni to'g'ri tushunyapsiz.  
Nina yonoqlari qizarib, hayajon bilan gapirmoqda edi. Dizma juvonga yoqib qolganiga shubhalanmay qo'ygandi.  
- O'z qayg'u-alamlarimni gapiraverib sizni xafa qilib qo'ymadimmi?  
- Yo'g'-e, xudo saqlasin.  
- Nahot mening gaplarim sizni qiziqtirayotgan bo'lsa?  
- Juda ham. - Siz menga juda mehribonlik qilyapsiz.  
- Siz ham menga mehribonlik qildingiz. Xafa bo'lmang: hammasi o'tib ketadi, faqat hasratni ichga solmaslik kerak.  
Nina jilmaydi.  
- Siz, menga, yig'layotgan yosh bolani ovutish uchun qo'pol hazil qiladigan katta odamdek munosabatda bo'lyapsiz. Lekin, bilsangiz, to'porilik ham ba'zan yaxshi davo bo'ladi.  
- Falokat oldida chekinmaslik kerak, undan qutulish yo'lini izlash lozim.  
Nina qovog'ini soldi.  
- Bu o'rinda najot kutib bo'lmaydi.  
- Har kimning baxti o'z qo'lida, - dedi ishonch bilan Nikodim.  
- Agar u qo'l baquvvat bo'lsa, albatta. Qo'llarimning qanday zaifligini o'zingiz ko'rib turibsiz-ku axir.  
Shunday deya u, xushbo'y atir hidi anqib turgan qo'llarini Nikodim tomon uzatdi. Dizma bu qo'llarni tutib o'pgan edi, juvon o'z navbatida uning qo'llarini qisib qo'ydi.  
- Zabardast qo'llar kerak, - dedi u, - masalan, mana siznikidek... Bunday qo'llarga taqdiringni bemalol ishonib topshirish mumkin. Ba'zan men: kuchli iroda har qanday to'siqni ham yengib o'tishi mumkin, uning uchun ilojsiz narsaning o'zi bo'lmasa kerak, deb o'ylab qolaman... U har narsaga qodir, u po'latni yemiradi, kelajakni bunyod etadi... Bunday iroda sohibi xudbin bo'lmasa, albatta, zaif bechoralarga yordam qo'lini cho'zadi... Bunday odamning qudratida qanchadan-qancha poeziya bor-a!..  
Nina qo'lini sekingina tortib oldi-da, qo'shimcha qildi..  
- Sizga hissiyotga berilgan ayol bo'lib ko'rinsam kerak-a?  
Dizma nima deb javob berishini bilmay qolgandi, shu boisdan ham u eski hiylasini ishlatib, go'yo og'riqning zo'ridan ingraganday, tirsagini changalladi.  
- Og'riyaptimi?  
- Judayam.  
- Bechora! Balkim, doktor chaqirtirish kerakdir?  
- Yo'q. Rahmat. Kerak emas.  
- Sizga juda yordam bergim kelyapti.  
- G'oyat rahmdil ekansiz.  
- Rahmdilligimdan nima foyda? - dedi Nina ma'yuslik bilan va kitobni qo'lga oldi. - Yana o'qiyimizmi?  
- Ehtimol, joningizga tekkandir?  
- E, yo'q, men tovush chiqarib o'qishni yaxshi ko'raman. Shu payt eshik taqillab, Kasyaning tovushi eshitildi.  
- Nina, bir minutga chiqib ketolmaysanmi?  
- Kechirasiz, - dedi Nina, o'rnidan turarkan, - hozir kelaman.  
Tashqaridan Kasyaning zarda bilan allanimalar degani eshitildi, so'ng hammayoq jimib qoldi.  
Dizma o'z ahvoli haqida o'ylay boshladi. U Ninaga yoqib qolgani aniq. Bunga shubhalanmasa ham bo'ladi. Xo'sh, bundan qanday foydalanish mumkin? Uning yordami bilan boshqaruvchilik o'rnida ko'proq ishlay olarmikin?  
"Bunday bo'lishi dargumon, - deya o'ziga-o'zi e'tiroz bildirdi Nikodim. - Uning eriga gapi o'tmaydi. Chol hech qanday ishga yaramasligimni sezgan shahoti kavushimni to'g'rilab qo'yadi. Uzu kun kasal bo'lib yotaverish ham mumkin emas!"  
Dizma kutilmaganda shunday o'qimishli xonimga yoqib qolganidan o'zi ham ajablandi. Biroq u bundan na xursand bo'ldi, na faxrlandi. Shu tobda uning miyasi faqat bir narsa bilan: Koborovoda iloji boricha ko'proq qolish yo'lini topish bilap band edi. Biror boshqa tuyg'u hozir uni bu fikrdan chalg'ita olmasdi. Nina, chamasi, uni ishonchga loyiq deb hisoblayapti. U ham Nikodimga yoqadi, biroq bu tuyg'u uning Kasya, Man'ka va umuman har qanday yosh juvonga bo'lgan moyilligidan ortiq emasdi. Nikodim Dizma hali sevgi nimaligini bilmasdi. Uning hayot kitobi sahifalarida onda-sonda ro'y bergan tasodifiy, hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan uchrashuvlarga yozilib qolgandi, Hozir u Ninani o'ylar ekan, kelajakni tasavvur qilishga, biron reja tuzishga urinmasdi. Boz ustiga tug'ma ehtiyotkorlik tuyg'usi uning ra'yini qaytarib turardi: axir bu narsa unga zarar keltirishi mumkin edi-da. Birdan bu ishlarni eri fahmlab qolsa-chi?  
Nina qaytib kirganida ancha xafa ko'rinar edi. Buii kurib Nikodim, chamasi, Kasya bilan oralarida biror ko'ngilsiz gap o'tgan bo'lsa kerak, degan qarorga keldi. Juvon o'qishda davom etdi, biroq endi ular tushga qadar o'zaro gaplashishmadi. Tushlikdan so'ng uxlab qolgan Nikodim kechqurun, qosh qoraygandagina eshikning taqillashidan uyg'onib ketdi. Xonaga Kunitskiy kirib keldi. U Dkzmaning betobligidan g'oyat xafa bo'lib, darhol telegramma bilan doktor chaqirtirmoqchi bo'ldi. Nikodim ancha tuzuk bo'lnib qolgani va erta-indin oyoqqa turib ketajagini aytib, uni bu fikrdan arang qaytardi.  
- Eh, qani endi tezroq tuzalsangiz juda soz bo'lardi-ya, - xursand bo'lib ketdi Qunitskiy, - bo'lmasam anovi Ol'shevskiy meni tiriklayin go'rga tiqay deyapti; qanday qiliqlar chiqarayotganiga aqlim bovar qilmaydi. Tasavvur qiling-a: qayrag'och berdirmay

qo'ydi - go'yo men zakolatni oxirigacha to'lamagan emishman. Zakolat esa qirq ming ikki yuz zlotiyni tashkil etardi. Shu la'nati ikki yuz zlotiyni unutib qo'yibman, xudo haqqi, unutibman. Endi bo'lsa u ablah butun ishni to'xtatib qo'ydi. Qandaydir arzimas ikki yuz zlotiyni deb-a! Siqilib o'lishi mumkin odamning!

Kunitskiy hayajonlanib, borgan sayin tezroq bidirlardi. Chol davlat o'rmonlari direksiyasi bilan olishib qolgani haqida bir soatga yaqin gap sotgach, oxiri Dizmaning aralashuvi tufayli nihoyat sarsongarchilikdan qutulajagiga umid bildirdi. Faqat qadrli pan Nikodim tezroq Varshavaga borib, u yerda ministr Yashunskiy bilan gaplashsa bo'lgani.

Dizma cholga oyoqqa turgan zahoti Varshavaga borib kelishini va'da qildi.

- Nima, deysiz, azizim pan Nikodim, ish oson ko'charmikin? Tezroq bir yoqli qilasizmi?

- To'g'rilaymiz, - deya javob qildi Dizma, - xotiringiz jam bo'lsin. Faqat mayda xarajatlar uchun pul kerak bo'lib qolishi mumkin.

- Xarajat deysizmi? Buning qiyin joyi yo'q. Qancha kerak bo'lsa, naqd beraman. Xo'sh, qalay, Koborovo sizga yoqdimi?

Zerikmayapsizmi ishqilib?

Dizma e'tiroz bildirdi. U vaqtni juda ko'ngilli o'tkazayotgan emish.

- Varshavada ishlarimiz to'g'risida gaplashayotganingizda, bir narsa yodingizda bo'lsin... Koborovo mening nomimga emas, xotinimning nomiga yozilgan. Rasmiyatchilik yuzasidan shunday qilishga to'g'ri kelgan edi.

- Demak, men xotiningiz nomidan ish tutarkanman-da? - so'radi Dizma, Ponimirskiy bilan qilgan suhbatini eslar ekan.

- Ha, ha, albatta. Lekin mening nomimdan gapiraversangiz ham bo'ladi, chunki yer-mulkning asl egasi menman. Xotinim menga vakolatnoma bergan.

Dizma choldan veksell bor-yo'qligini so'ragisi keldi-yu, lekin o'zini tiydi: Kunitskiy shubhalanib qolishi mumkin edi.

Chol Nikodimdan Koborovo xo'jaligi to'g'risidagi fikrini surishtira boshlagan edi, bemorning yana bodi xuruj qilib qoldi. Og'riq shu qadar zo'r ediki, boyoqish pan Nikodim to'shakda to'lg'anganicha basharasini burushtirib, tinimsiz ingrardi.

Kechki ovqatdan so'ng Kunitskiy yana Dizmaning oldiga kirdi. Biroq Nikodim o'zini uxlaganga solib, ortiqcha so'rab-surishtirishdan qutulib qoldi. Kechasi Nikodim anchagacha poytaxtga qiladigan muqarrar safari to'g'risida o'ylab yotdi. Chamasi, endi u yerdan qaytib kelmasa ham kerak. Biroq Dizma ishni iloji boricha uzoqroq cho'zishga qaror qildi. Harqalay polkovnik Varedani topib, undan ministr bilan gaplashib ko'rishni iltimos qilish mumkin.

Shularni o'ylar ekan, Ponimirskiy esiga tushdi. Kim bilsin - ehtimol, uning xatini olib ketish lozimdir? Agar Ponimirskiyning xolasi chindan ham kattalar bilan aloqada bo'lsa, balki, u orqali ham biror ish bitkazish mumkin bo'lar. Nikodim Kunitskiyning ishlarini to'g'rilab kelishi mumkinligini xayoliga ham keltirmasdi, albatta: bu narsa aqlga to'g'ri kelmasdi. Dizma faqat Kunitskiyning o'zining ministr bilan do'st ekanligiga va hozir bo'lmagan taqdirda ham, keyinroq Ol'shevskiyning ishdan xaydata olishiga hamda davlat o'rmonlaridan ochko'z chol istaganchalik yog'och olib berishga qodir ekanligiga ishontirmoqchi edi. Kunitskiy chiqib ketgach, oradan ko'p o'tmay xonaga Nina kirib keldi. U odatdagidan ham ma'yusroq ko'rinardi, nimadandir bezovta edi. Lekin u Dizmaning jilmayishiga tabassum bilan javob qildi. Nina Nikodimdan sog'lig'ini so'rab-surishtirdi-da, so'ng o'zining boshi og'riyotganidan shikoyat qildi.

- Siz Varshavaga ketyapsiz, shekilli? - nihoyat so'radi u. - Ancha muddatgami?

- Bir hafta, nari borsa - o'n kunga.

- Varshava, - dedi Nina xayolga cho'mib.

- Siz Varshavani yaxshi ko'rasizmi?

- Yo'q, yo'q... To'g'rirog'i, bir vaqtlar juda yaxshi ko'rardim... Hatto hozir ham yaxshi ko'raman, lekin u yerga borganimda o'zimga o'zim yoqmay qolaman.

- Ha... U yerda do'stlaringiz, qarindoshlaringiz bormi?

- Bilmadim... Yo'q, - deya javob qildi juvon, bir zum ikkilanib turgach.

Nikodim ehtiyotkorlik bilan Pshelenskaya xolaning mavjudligini aniqlashga qaror qildi.

- Mabodo pani Pshelenskaya xolangiz emasmi?

Ninaning yuzi ozor chekkan odamnikidek o'zgarib ketdi.

- Voy, siz pani Pshelenskaya bilan tanishmisiz?.. Ha, u kishi mening xolam bo'ladilar. Lekin to'yimdan so'ng ular bilan bordi-keldi qilmay qo'yganniz. Hatto bir-birimizga xat ham yozmaymiz.

- Shunaqa deng!

- U kishinikiga borib turasizmi?

- Ahyon-ahyonda, - dedi cho'zib Dizma. - Pani Pshelenskaya pan Kunitskiyning yoqtirmaydi, shekilli. Lekin sizpi yaxshi ko'rarkan.

Nina chidab turolmay sekingina so'radi:

- Siz u kishi bilan men to'g'rimda gaplashdingizmi?.. Uh, noo'rin savolim uchun meni kechiring, juda hayajonlanib ketdim.

Ajablanmang. Yoshlik xotiralarimning bari shu xonadon bilan, Pshelenskaya xolamning tanish-bilishlari bilan bog'liq. Siz esa u yerga borib turarkansiz...

- Nega ularnikiga bora qolmaysiz?

- Eh... O'zingiz tushunasiz-ku. Erim... Ular bu ishni sira kechirisha olmaydi... - Nina teskari qarab, sekingina qo'shimcha qildi. - Buning uchun o'zim ham o'zimni kechirolmayman.

Nikodim indamadi.

- Ertalab ham, hozir ham sizga hammasini ochiq aytayotganimdan xijolat chekyapman... Biroq toqatim toq bo'ldi... Juda ojiz, baxtsizman...

- Xafa bo'lmang. Gapimga ishonavering: hali hammasi yaxshi bo'lib ketadi.

- Meni yupatmang, iltimos qilaman. Bilaman, sezib turibman, sezgir, juda mehribon ekansiz, meni to'g'ri tushunyapsiz...

Tanishganimizga hali ko'p bo'lgani yo'q, lekin sizga juda ishonaman... Meni yupatmang, hojati yo'q, chorasizman. Siz to'g'ri tushunayotganingiz ham kifoya menga. Yolg'iz siz, - deya qo'shib qo'ydi u bir oz sukut qilib turgach.

- Nega chorasizman deysiz? Eringiz bilan ajralisha olmaysizmi?

- Ilojim yo'q, - deya javob qildi Nina yerga qarab.

- Hm, demak, harqalay unga ko'ngil qo'ygan ekansiz-da...

Ninaning ko'zlari chaqnaq ketdi.

- Yo'q, yo'q, - qizishib e'tiroz bildirdi u, - shubha qilishga qanday ko'nglingiz bordi! Bu baqqol bilan meni bog'lab turgan hech nima yo'q... Bu munkaygan chol...

Juvon jirkanib, nafrat bilan gapirmoqda edi.

- Nega bo'lmasam, ajralisha olmayman deysiz? - so'radi ajablanib Dizma.

- Men... qashshoqlikda yashay olmayman... Buning ustiga yolg'iz o'zimni o'ylayotganim yo'q.

- Hazillashyapsizmi, - deya o'zini go'llikka soldi Nikodim. - Bahosi bir necha million turadigan Koborovo sizning mulkingiz-ku, axir.

- Yanglishyapsiz. Koborovo erimniki.

- Biroq pan Kunitskiyning aytishicha...

- Ha, Koborovo mening nomimga yozilgan. Ammo ajralishgudek bo'lsak, men qashshoq bo'lib qolaman.

- Tushunmadim.

- Uh, bu haqda gapirishning nima hojati bor!.. Bilasizmi, erim mendan Koborovoning bahosidan ham ko'proq pulga tilxat olgan.

- Sizni aldab shunday qilganmi?

- Yo'q. Bu pul oilamizning qarzini to'lash uchun sarflangan.

- Shunaqa deng...

- Keling, bu haqda gaplashmanlik, buni eslasam doim ta'bim tirriq bo'ladi... - Nina qo'llarini iltijo bplan ko'ksiga qo'yib, Nikodimning ko'ziga tikildi. - Iltimos qilaman, bu haqda xolamga gapirmang. Maylimi?

- Ta'bingiz. Unday desam...

- Yo'q, yo'q! O'tinaman sizdan! U davri davronlar o'tib ketdi, endi uni ko'rish menga nasib bo'lmaydi... Keling, yaxshisi o'qiyimiz...

Nina kitobni qo'lga olib, xatcho'p qo'yilgan sahifani ochdi-da, o'qishga tushdi. Biroq u bir-ikki jumla o'qigan ham ediki, tovushi titrab ketdi. Nina ho'ng-ho'ng yig'larkan, ko'kragi ko'tarilib tushar edi.

- Yig'lamang, iltimos qilaman, yig'lamang, - deya uni yupata boshladi kalovlanib qolgan Dizma.

- Yo parvardigor, yo tangrim, - dedi yig'lab turib Nina. - Siz menga shunchalik shafqat ko'rsatyapsiz... juda mehribon ekansiz...

Meni kechiring... Asablarim buzilibdi...

U sapchib o'rmidan turdi-da, xonadan yugurib chiqib ketdi.

"Hammasi ravshan, - deya dilidan o'tkazdi Dizma, - u meni sevib qolibdi".

- Sevib qolibdi, - dedi u tovush chiqarib va mag'rur jilmaydi.

Tungi stol ustida kichkinagina ko'zgu turardi. Nikodim uni qo'lga oldi-da ajablangan va mag'rurlangan holda aksiga uzoq tikildi.

6-bob

Tajribali shofyor boshqarayotgan avtomobil' tekis shossedan bir maromda yelib borardi. Kechagi yomg'irdan so'ng u yer-bu yerda mayda-mayda ko'lmaklar yaltirab ko'rinardi. Musaffo tong quyosh nurida jilvalanardi.

Dizma Varshavaga ketayotgandi.

Kunitskiy uni ataylab poyezdda emas, avtomobilda jo'natdi. Uningcha, shunday qilinsa salobatliroq bo'larmish.

Chindan ham juda dabdaba, hasham bilan bezatilgan avtomobil' go'yo savlat uchun yaratilgandek edi. Shoferning oppoq matodan tikilgan formasi va Dizmaning oyoqlarini yopib turgan yo'lbars terisi ularni yanada basavlat qilib yuborgandi. Shu boisdan ham ular har gal biror shaharchada to'xtashganida, - ular ahyon-ahyondagina to'xtashardi, - darhol mashinani o'sha atrofda sanqib yurgan bekorchilar o'rab olishardi. Ularni faqat avtomobilgina emas, balki o'rindiqa yalpayib o'tirgan passajirning dimog'dorligi ham hayratga solardi.

Mashina shunday shaharlardan birida to'xtagach, Dizma portfeldan yelimlanmagan konvertni oldi. Bu graf Ponimirskiyning pani Pshelenskayaga yozgan va Dizma har ehtimolga qarshi olib olgan maktubi edi. Nikodim konvertni ochib, xatni o'qiy boshladi.

Unda quyidagilar yozilgan edi:

"Qadrli xolajon!

Bandit Kunik tomonidan egallab olingan Koborovoda, garchi tashqi qiyofasi, ehtimol, ishonchga loyiq ko'rinmasa-da, aslida haqiqiy jentl'men va uning ustiga Oksfordda o'qigan paytimdagi oshnam (o'zi asli kurlyand shlyaxtasidan) pan Nikodim Dizma boshqaruvchi qilib tayinlaganidan foydalanib, Sizdan bir narsani iltimos qilmoqchiman, Pan Dizmaning menga ixlosi baland (bu tabiiy hol) va u muttaham Kunikni yomon ko'radi - bu ham tabiiy hol albatta. Shuning uchun ham, qadrli xolajon, Sizdan iltimos qilaman, kerakli odamlar bilan maslahatlashib hamda pan Dizmaning tanish-bilishlaridan foydalanib, mening ruhan xasta emasligimni va sud hukmi bilan ozod etilishim mumkinligini aniqlab beradigan vrachlar ekspertizasi orqali meni xalos etsangiz. Shundan so'ng men Koborovoni muttahamlik bilan egallab olgani uchun Kunikni sudga beraman. Agar Siz kirchi xotinning haromi o'g'li ishlatgan hiyla-nayranglar haqida (shpallar, davlatdan qonunga xilof ravishda yog'och olish, shlyaxtalarga xos "Kunitskiy" familiyasini o'zlashtirish to'g'risida bir vaqtlar o'zingiz menga gapirib bergan edingiz) yetarli ma'lumot to'plab bersangiz, biz yutib chiqamiz, albatta. Uning pora bergani va soxta hujjatlar ishlatganini qo'qqisdan tintuv o'tkazish bilan isbotlash mumkin, chunki Kunik barcha hujjatlarni yotoqxonadagi parda orqasiga qo'yilgan po'lat sandiqda saqlaydi. Buni men o'zimga sodiq bo'lgan xizmatkorlardan bilib oldim. Shu boisdan ham men, agar o'zga yo'l bilan qutula olmasam, un coup d'etat qilmoqchiman. Lozim bo'lsa, ablahni shaxsan o'zim otib tashlayman. To'g'ri, bu ish o'zimga ham yoqmaydi, chunki men halol ilvasinlarni ov qilaman. Joyi og'ilxonada bo'lmagan taqdirda ham avaxtada yotishi lozim bo'lgan to'ng'iz Kunik esa bundaylar sirasiga kirmaydi. Yordamingizga umid qilaman, aziz xolajon, chunki Koborovoga egalik qila boshlagan zahotim Sizga ham, Zizya Kshepitskiyga ham barcha qarzlarimni protsentlari bilan to'layman va garchi yoshi o'tib qolgan hamda yuzini sepkil bosgan bo'lsa-da, faqat Sizni xursand qilish uchun, panna Xul'chinskayaga o'ylanaman. Pan Nikodim Dizma bu ishlarining hammasidan xabardor va au courant, shuning uchun ham u bilan maslahatlashib ish ko'rishingizni iltimos qilaman, chunki uning Varshavada, ayniqsa, hukumat doiralari tanish-bilishlari ko'p. Bu narsa, ma'lum darajada. Sizning ham manfaatlaringiz ko'zlanadigan mening ishimda katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Shu bilan xatni cho'zib yuborganim uchun kechirim so'rab va o'pib qoluvchi - Sizni umrbod yaxshi ko'radigan jiyaningiz

Jorj Ponimirski".

Graf juda badxat ekan, Dizma maktubni hijjalab o'qib chiqqunicha yarim soat o'tdi. Nikodim kurlyand shlyaxtasi to'g'risidagi gapdan xursand bo'lib ketdi, lekin Oksford universiteti uni tashvishga solib qo'ydi: xudo ko'rsatmasin, birorta odam unga inglizchalab murojaat qilsa bormi, chuyi chiqadi-qo'yadi.

Aslida u hali pani Pshelenskayanikiga borishga ahd qilmagandi. Bunga uni telba grafning topshirig'idan ham burun Nina bilan qilgan suhbat majbur qilmoqda edi. Nikodim juvonga akasi bilan pinhona uchrashuvlari haqida gapirmagan edi. Lekin ularning



ikkovidan olgan ma'lumoti va Kunitskiydan eshitgan gaplarini taqqoslab, Ponimirskiyning da'vosi sirtdan qaraganda ma'nisizdek tuyulsa ham zamirida ancha gap borligiga ishonch hosil qildi. Agar u pani Pshelenskayanikiga borishga jur'at etsa, ehtimol hammasi oydinlashar.

Shaxsiy manfaati ham borishni taqozo etardi: pani Pshelenskaya yuqori doiralar bilan aloqador bo'lib, Dizmaga Kunitskiyning ishlarini to'g'rilashda yordam berishi mumkin edi. Nikodimning taqdiri esa ana shu ishlarning hal qilinishiga bog'lanib qolgandi. Avtomobil' Praganing birinchi imoratlariga yaqinlashganda Nikodim shular haqida va hali qidirib topishi lozim bo'lgan polkovnik Vareda to'g'risida o'ylab borardi. Quyosh allaqachon botgan edi. Ko'cha fonarlari, go'yo Dizmani olqishlayotgandek, birdan yalt etib yondi.

- Yaxshi alomat, - dedi u sekin.

- "Yevropa"ga yurishni buyurasizmi? - so'radi shofyor.

- Ha, "Yevropa"ga haydang.

Nikodim juda yaxshi uxlab, o'rnidan kayfi chog' bo'lib turdi. U darhol shaharga yo'l oldi.

Harbiy ministrlikdan Dizmani shahar garnizonining ma'lumot byurosiga yo'llashdi. Byuroda Nikodimga, polkovnik Vatslav Vareda har yili yozni Konstantin da, "Gaiti" villasida o'tkazishini, Varshavaga faqat kunduz kunlari kelishini aytishdi.

Barcha u bilan hurmatini joyiga qo'yib gaplashdi, buni ko'rib Dizma, polkovnik Vareda katta mansabdor bo'lsa kerak, degan qarorga keldi. U hatto, Vareda qanday mansabda ishlaydi, deb so'ramoqchi ham bo'ldi-yu, lekin vaqtida tilini tiydi - axir uni davlat ishlaridan mutlaqo xabarsiz odam ekan, deb o'ylashlari mumkin edi-da.

Dizma Konstantinga borishga ahd qilganida hali soat o'n ham bo'lmagan edi. Ular yo'lga tushishdi. Yo'l juda yomon ekan, lekin shofer g'oyat tajribali, mashina esa yap-yangi bo'lgani tufayli ular yarim soatdan so'ng manzilga yetib borishdi. "Gaiti" villasini ular osongina topishdi. Bu shukuhdor ikki qavatli imorat ekan. Jimjimador panjara ortidan bog' va katta ayvon ko'rinish turardi. Pijama kiygan qandaydir erkak ayvonda gazeta o'qib o'tirardi. Mashina eshik oldiga borib to'xtaganida haligi erkak boshini ko'tarib qaragan edi, Dizma polkovnikni tanidi.

Polkovnik Dizmaning ta'zimiga javob berdi-da, anchagacha taniyolmay xira ko'zlarini unga tikib turdi. Nikodim eshikdan kirib, unga yaqinlashganidan keyingina u qichqirganicha sapchib o'rnidan turdi:

- Salom! Axir bu Terkovskiyning kushandasi-ku! Yaxshimisiz, pan Nikodim! Qayoqlarda g'oyib bo'lib yuruvdingiz! - Shunday deya polkovnik Dizmaning qo'lini olib silkita boshladi.

- Salom, polkovnik. O'shandan beri qishloqda edim, Varshavaga kecha keldim; menga sizni shu yerdan topishim mumkinligini aytishdi.

- Yashang! Ajoyib fikr! Men bilan nonushta qilasizmi? Unday desam, siz, qishloqlar azonlab turishga odatlangansizlar...

Polkovnik Dizmaning kelganiga chin ko'nglidan xursand bo'ldi. Bu odam unga juda yoqib qolgan edi, boz ustiga - ajoyib avtomobilini aytmaysizmi: demak, bugun Varshavaga borish uchun Vilyanov temir yo'lining xizmatidan voz kechsa bo'ladi.

- Kecha rosa ichgan edik, - dedi Vareda, - boshim og'risa kerak, deb o'ylovdim, lekin baxtinga, o'zimni yaxshi his qilyapman.

Chindan ham Vareda quvnoq tetik bo'lib, qonga to'lgan ko'zlarigina kechagi ichkilikbozlikdan dalolat berib turardi.

- "Baxtinga" deyishimning sababi bor, chunki sizning kelishingizni yuvishimiz kerak-da, - deya davom etdi Vareda. - Bilasizmi, Terkovskiy bilan bo'lgan mashmasha latifaga aylanib qoldi. Nihoyat bu qushchanning qanotini qirqib qo'yishga muvaffaq bo'ldik.

- Qo'ysangiz-chi, nimalar deyapsiz!

- Xudo haqqi! Uni bosh ministr idorasining boshlig'i qilib tayinlashganidan beri bosar-tusarini bilmay qoldi. Ahmoq, hamma mening tovonimni o'padi, deb o'yladi shekildi.

- Ministr Yashunskiyning ahvoli qalay? Hozir u nimalar qilyapti?

- Nima qilardi? - deya ajablandi polkovnik. - Hozir Budapeshtda, s'ezdda-ku, axir.

- Afsus.

- Nima, unda ishingiz bormidi?

- Ha, kichkinagina bir ish bor edi.

- Bir necha kun Varshavada tura turiig. Hech bo'lmaganda ko'ngil ochamiz-ku. Yashunskiy sizni tez-tez eslab turadi.

Dizma ajablanib polkovnikka qaradi. Vareda shosha-pisha tushuntira boshladi:

- Rost aytyapman, xudo haqqi. Hah, siz to'g'ringizda u nima degan edi-ya?.. Shoshmang, shoshmang!.. Ha, mana! "Bu Dizma hayotning nimaligini biladi; uning yoqasidan oladi-da, "tars" etib tumshug'iga tushiradi!" Qalay, zo'rmi? Yashunskiy usta bunaqa gaplarga... Men unga hatto aforizmlar kitobini nashr qilishni maslahat berdim.

So'ngra u Yashunskiyning ahvoli bir oz chatoqlashganini eshitdi: pomeschiklar va mayda yer egalari unga qarshi chiqishayotganmish. Buning ustiga o'z to'dasi bilan Terkovskiy ham unga cho' qaziyotgan emish. Qishloq xo'jaligi krizisga tushib qolibdi; chora yo'q ekan. Yashunskiyga achinadi kishi: ishbilarmon ekan, qolaversa o'z odamlari ekan.

Shundan so'ng Dizmaning ishlaridan gap ochilgan edi, polkovnik so'radi:

- Siz, pan Nikodim, Kunitskiyning yo qo'shnisi, yo sherigi edingiz shekilli?

- Unisi ham, bunisi ham - javob berdi Dizma, - bundan tashqari xotining ishonchli vakili ham bo'laman.

- Hali shunaqami? Buni qarang-a! O'sha grafinya Ponimirskaya-da. Kelishgangina malla soch juvon, shundaymi?

- Ha.

- Eshitishimga qaraganda, grafinya o'sha Kunitskiy bilan uncha yaxshi turasmish...

- Uncha emas, ancha deyavering, - kulib yubordi Dizma.

- Ochig'ini aytganda, buning hayron qoladigan joyi xam yo'q. Axir u keksayib qolgan, keyin o'zi ham o'rtamiyona bir odam shekilli. Unday desam, siz ularni mendan yaxshiroq bilasiz.

- Bilmay bo'ladimi, axir!

- Tushunaman, tushunaman, - deya uning gapiga qo'shildn polkovnik. - Buning otini ish deb qo'yibdilar. Kechirasiz, huzuringizda kiyinib olaman.

- Bemalol.

Ular ayvondan xonaga kirishgan edi, Vareda Dizmani qo'lbola kokteyl' bilan mehmon qilmoqchi bo'ldi. Bu orada denshik mundirni olib kirdi, yarim soatdan so'ng polkovnik yo'lga chiqishga shay edi.

Ular avtomobil' yoniga borishganida Vareda zavq bilan uni ko'zdan kechira boshladi. Polkovnik mashinani ancha yaxshi tushunar ekan shekilli, darhol shofer bilan avtomobilning iker-chikirlari haqida suhbatlasha ketdi. Dizma ularning suhbatidan hech nima

tushunolmadi.

- Ajoyib, ajoyib, - deya takrorladi Vareda Dizmaning yoniga o'tirar ekan. - Ancha qnmmatga tushgan bo'lsa kerak o'ziyam?.. Biror sakkiz ming dollar to'lagandirsiz, a?

Mashina joyidan qo'zg'aldi, shunda Dizma motorning gurillashidan foydalanib, javob qildi:

- He-he, undan ham ko'proq deyaering.

Yo'lda ular kechqurun "Vo'ha" restoranida uchrashishga kelishib olishdi.

- Hammasidan ham o'sha yer qulay, tanishlar ko'p bo'ladi. Ulyanitskiyni taniysizmi?

Dizma Ulyanitskiyni tanimasdi. Biroq uning biror mashhur shaxs chiqib qolishidan cho'chib, orqavoratdan eshitganman, deya javob qildi.

Polkovnikni shtabga olib borib qo'ygach, Dizma mehmonxonaga qaytdi va kechqurun soat o'nda kelishni buyurib, shoferga javob berib yubordi-da, o'zi kafega tushdi. U yerda Nikodim bo'sh stol topib o'tirdi-da, choy bilan pirojniy keltirishni buyurib, vaqtni qanday o'tkazish haqida o'ylay boshladi. Biroq miyasiga biror durustroq fikr kelmadi. Varshavada u, ya'ni katta mulk boshqaruvchisi Nikodim Dizma borib ko'rishi mumkin bo'lgan birorta odam yo'q edi. Bartiklarni eslaganda Dizma hatto seskanib tushdi. Ularning qurum bosgan xonasi Dizma uchun, ertami-kechmi o'zi qaytishi lozim bo'lgan achchiq voqelikning timsoli edi. Nikodim bu g'aroyib sarguzasht tez orada tugashini his etardi, biroq bu xaqda o'ylamaslikka harakat qilardi.

Biroq bekorchilik uni yana o'z ahvoli haqida o'ylashga majbur qilardi. Bu xayollardan chalg'ish uchun Dizma o'z xonasiga ko'tarildi. Bu yerda u Ponimirskiyning maktubini eslab, uni portfeldan oldi-da, yana bir marta o'qib chiqdi.

- E, nimadan qo'rqaman! - deya qo'l siltadi Nikodim. - Boraman. Meni pishirib yeyisharmidi...

Pani Yuzefina Pshelenskaya o'sha kuni chap yonboshi bilan turgan edi. Bu narsa ertalab soat o'nda oshxonada bir ovozdan tan olindi. Soat o'n birda esa uyda shunday to's-to'polon ko'tarildiki, go'yo bir kishi emas, o'ldim deganda, o'n kishi so'l yonboshi bilan turgandek edi.

Soat o'n ikkida muhtarama pani Pshelenskayaning uyida hamma narsa ostin-ustun bo'lib ketdi: bir chetda turgan qadimgi stolni, qayerga qo'ysak ekan, deb rosa u yoqdan-bu yoqqa surishdi va nihoyat, uni mechkay odamniki kabi ingichka oyoqlarini osmondan qilib, hovlining bir burchagiga eltib tashlashdi. Uy bekasi dovdirab qolgan xizmatkorlar oldiga tushib, go'yo jang maydonidagi val'kiriya kabi u yoqdan-bu yoqqa yugurar, og'zidan bodi kirib shodi chiqar, ortida esa shlafrogining etagi xuddi badaviylar yaktagi kabi hilpirardi.

Mehmonxonada chang yutgich tinmay gurillardi, hovlida esa qoqilayotgan gilamlarning tapillagani eshitilardi. Derazalar goh lang ochilardi, chunki bu chang-to'zonda bir minut ham nafas olib bo'lmasdi, goh sharaqlab yopilardi, xonalarga kirayotgan shabadadan kishi qulog'i shang'illardi. Buning ustiga telefon tinmay jiringlar, beka esa trubkani olib, unga qarq'ish yog'dirardi.

Shu payt ko'cha eshikning qo'ng'irog'i jiringlab qoldi. Toqati toq bo'lib turgan pani Yuzefina shaxsan o'zi ochish uchun eshik tomon yugurdi. Xizmatkor peshanasi sho'r mehmonni xayolan xudoga topshirib, dahshatdan qotib qoldi.

Eshik sharaqlab ochildi-da, uy bekasining:

- Sizga nima kerak? - deya shang'illagani eshitildi. Bunday iltifotsizlik bilan kutib olishganidan Nikodim dovdirab qolmadi.

Aksincha, u o'zini birdan ancha dadilroq his etdi - bu xonimning gapirishi va tashqi qiyofasi unga o'z tanish-bilishlarshsh eslatgan edi.

- Pani Pshelenskayani ko'rishim kerak.

- Sizga nima kerak, deb so'rayapman?

- Ishim bor. Borib paniga jiyanining o'rtog'i kelganini ayting.

- Qanaqa jiyani yana?

- Graf Ponimirskiyni aytyapman, - dedi bir oz mag'rurlanib Dizma.

Bu gap hurpaygan xonimga boshqacha ta'sir qildi. U, go'yo hujumdan o'zini muhofaza qilayotgandek, ikkala qo'lini oldinga cho'zib bijillay ketdi:

- To'lamayman! Jiyanim uchun bir tiyin ham to'lamayman! Qarz olishining sira ham hojati yo'q edi.

- Nima? - so'radi ajablanib Dizma.

- Uning kuyoviga murojaat qiling! Men bir tiyin ham bermayman, eshityapsizmi, bir tiyin ham! Bu g'irt ablahlik: qachon qarasa menga kelishadi, o'lar bo'lsam o'lib bo'ldim...

Bu gapdan Dizmaning g'azabi qaqshab ketdi. Uning miyasiga qon yugurdi.

- Buncha dod-voy qilasiz, jin ursin sizni! - deya o'shqirdi u bor ovozi bilan. Pshelenskayaning kapalagi uchib ketdi. U ko'zlarini katta ochib, kutilmagai bu mehmonga hayiqib qaradi.

- Sizdan hech kim pul so'rayotgani yo'q: aksincha, pulingizni qaytib berishmoqchi.

- Nima?

- Qaytib berishmoqchi, deyapman-ku.

- Kim qaytib bermoqchi? - so'radi Pshelenskaya borgan sari hayratlanib.

- Kim, kim? Eron shohi yoki turklar sultoni qaytib bermoqchi deb o'ylayapsizmi?.. Sizning jiyaningiz, mening do'stim qarzini to'lamoqchi.

Pshelenskaya ikkala qo'li bilan boshini changalladi:

- Voy, kechirasiz, bugun juda boshim og'rib turibdi, xizmatkorlarim qonimga tashna qilishdi. Xafa bo'lmaysiz endi! Marhamat, ichkari kiring.

Dizma Pshelenskayaning ortidan xonaga kirdi. U yerdagi mebelning yarmi ag'darilib yotardi, o'rtada esa parketni artadigan shchyotkaning dastasi qaqqayib turardi. Beka deraza oldiga stol qo'yib mehmonni o'tkazdi-da, hurpayib yurgani uchun kechirim so'rab, xonadan chiqdi va shu ketganicha yarim soatcha yo'q bo'lib ketdi.

"Bu jin urgur xotinga nima bo'lgan o'zi? - deya o'zicha mulohaza qila boshladi Dizma. - Xuddi qopog'on itday talab berdi-ya. Falokat bosib kelibman bu yerga. Xolasi ham jiyanidan qolishmaydiganga o'xshaydi! Juda hurmatli xonim, deyishgan edi, ko'rinishidan esa oqsoch xotindan farq qilmaydi!"

Anchagacha g'azabi qaynab turgan Dizma nihoyat jahlidan tushgach, bu xotinga Ponimirskiy sizga qarzini to'lamoqchi deb darrov aytib qo'yganiidan afsuslana boshladi.

"Meni ham jiyaniga o'xshagan telba deb hisoblagan bo'lsa kerak-da..."

Nihoyat beka qaytib keldi. Eidi u sochlarini tarab, go'shtdor burni va lo'ppi yuzlariga qalin upa surgan hamda lablarini bo'yab,

egniga to'q qizil shlafrok kiyib olgan edi.

- Meni kechirasiz, - deya gap boshladi beka, - juda charchab, diqqatim oshib turgan edi. Nikodim uning uzun va ozg'in qo'lidan o'pib, o'zini tanishtirdi.

Pshelenskaya ketma-ket savol bera boshladi. Nikodim hatto og'iz ochishga ham ulguradi. Shundai so'ng u Ponimirskiyning xatini olib, xonimga uzatdi.

Pshelenskaya shu zahoti:

- Ye xudoyim-ey, pensneni unutibman. Franya! Franya! Antoniy!!.. Franya! - deya ovozi boricha baqira boshladi.

Do'pir-do'pir oyoq tovushi eshilib, bir minutdan so'ng oqsoch xotin oltin gardishli pensneni olib keldi.

Pani Pshelenskaya xatni o'qishga tutindi. Uni o'qir ekan, xonim yuzlari qizarib, bir necha bor Dizmadan kechirim so'radi.

Maktub unga qattiq ta'sir qildi. Xonim uni yana bir o'qib chiqdi-da, bu ish juda muhimligini, yo'q, yo'q, Jorjik qarzini to'lamoqchi ekanligi uchun emas, umuman bu ishning katta ahamiyatga ega ekanligini aytdi.

U Nikodimdan Koborovoda nimalar bo'layotgani, "boyoqish Ninetkaning" kayfiyati qandayligi, "o'g'ri Kunik" xo'jalikni qanday boshqarayotgani to'g'risida surishtira boshladi va nihoyat, bu ishlar haqida suhbatdoshining fikri qandayligini so'radi.

Biroq suhbatdoshi bu to'g'rida o'ylab ko'rmagan edi, shu boisdan ham u ming'irlab javob qildi:

- Nima desam ekan... Menimcha, advokat bilan maslahatlashib ko'rish kerak.

- Juda to'g'ri aytdingiz, - deya uning gapini ilib ketdi Pshelenskaya. - Lekin bilasizmi, eng yaxshisi, oldin pan Kshepitskiy bilan gaplashib olish kerak. Pan Kshepitskiy taniysizmi?

- Yo'q, tanimayman. Kim ekan u?

- E, u juda qobiliyatli odam. Garchi hali ancha yosh bo'lsa-da, eski tanishimiz. Qechirasiz, siz mehmonxonaga joylashdingizmi?

- Ertaga sizni tushki ovqatga taklif qilsam, yo'q demaysizmi? Kshepitskiy ham keladi. O'shanda hamma ishni gaplashib olardik. Kelasizmi?

- Soat nechada?

- Agar sizga noqulay bo'lmasa, soat beshda.

- Yaxshi.

- Sizni iltifotsizlik bilan kutib olganim uchun meni kechirasiz. Xafa emasmisiz, ishqilib?

- Nega xafa bo'larkanman? - deya javob qildi Dizma. - Hammayam asabiylashishi mumkin.

U Pshelenskayaga durustroq razm soldi-da, xonim tuzukkina ekan, deb ko'nglidan kechirdi. Pshelenskaya elliklarga borib qolgan bo'lsa ham xipcha va serharakat bo'lgani uchun yoshroq ko'rinaradi. Xonim Dizmani eshikkacha kuzatib chiqdi va jilmayib xayrlashdi.

- Bu boyonlarni hech qachon tushunib bo'lmaydi, - to'ng'illadi Dizma eshikdan pastga tushar ekan.

U nariroqdagi mayxonaga kirib, ovqatlanib oldi. Nihoyat, yolg'iz o'zi o'tirib ovqatlanganidan Nikodim g'oyat huzur qildi. Axir birov qaramayaptimi, qachon qoshiqni ishlatish keragu, qachon vilkani deb bosh qotirishga hojat qolmagan edi-da.

Pshelenskayanikiga kirib chiqqach, Dizma, bularning hammasi quruq gapligicha qoladi, Ponimirskiyning umidlari chippakka chiqadi, degan qarorga keldi.

"Kunitskiy o'zini laqillatib qo'yadigan ahmoqlardan emas. Dog'uli u!"

Keyin Nikodim birdan: "Bu gaplarning hammasini Kunitskiyga aysam-chi? "В в Ъ" deya o'ylab qoldi. Lekin shu zahoti tilini tiygani ma'qulligini tushundi. Bundan tashqari, Ponimirskiy tutib berish - shunday ajoyib xotin Ninani ranjitib qo'yish bilan barobar edi...

Mayxonaning shundoq yonginasida reklama chiroqlari lipillab yonib turardi. Fil'm. Nikodimning kinoga tushmaganiga ham ancha bo'lgan edi! Dizma soatiga qaradi: hali uning ixtiyorida besh soat vaqti bor edi. Nikodim uzoq o'ylab o'tirmay bilet sotib oldi. Kartina juda qiziq, hatto maroqli ekan. Yosh qaroqchi ko'hlikkina qizni sevib qoladi. Biroq kutilmaganda qizni boshqa qaroqchilar to'dasi o'g'irlab ketadi. Ko'p g'aroyib sarguzashtlardan so'ng yosh qaroqchi o'z ma'shuqasini xalos etadi va fil'mning oxirida u bilan nikohdan o'tadi; eng qizig'i - ularni ajin bosgan yuzidan muloyim tabassum arimaydigan nuroniy chol, ruhoniy - qizning otasi nikohdan o'tkazadi.

Buni ko'rib Nikodim avvaliga juda ajablandi, biroq keyin, bu voqealar Amerikada bo'lyapti-ku, u yerda esa ruhoniylar uylanishi mumkin bo'lsa kerak, degan xayolga bordi.

Fil'm shu qadar qiziqarli ediki, Dizma uni bir varakayiga ikki seans ko'rdi. U kinodan chiqqanida ko'cha minglab chiroqlardan charog'on edi. Trotuarlarda to'da-to'da kishilar sayr qilib yurishardi. Kech tushganiga qaramay, havo issiq va dim edi. Dizma mehmonxonaga piyoda qaytar ekan, uzoqdan Kunitskiyning ko'rkam avtomobiliga ko'zi tushdi.

"Mening mashinam!" - deya dilidan o'tkazdi u va iljayib qo'ydi.

- Xo'sh, ishlar qalay? - so'radi u shoferning ta'zimiga javob bergach.

- Yaxshi. Rahmat.

- Vaqtini qanday o'tkazdingiz?

Shofer o'zi asli varshavalik bo'lgani uchun borib qarindosh-urug'larini ko'rganini aytdi. Ular bir minutcha gaplashib turishgach, Dizma nomeriga chiqib, qayta kiyinib tushdi.

"Bugun bir ziyofat uyushtiraman. Polkovnik bilan durustroq tanishib olish kerak. Unga shampanskoye qo'yib beraman".

Chorak soatdan so'ng Dizma "Voha"ga yetib bordi. Restoran hali bo'm-bo'sh bo'lib, ikki-uch stolgina band edi.

"Shoshilibman", - deya xayolidan o'tkazdi Nikodim.

U aroq bilan ovqat keltirishni buyurdi. Kel'ner unga, pan janobi oliylari, deb murojaat qilganicha, bir zumda stolga turli-tuman zakuska qo'ydi. Uning yoniga yana ikki ofitsiant qo'shilib, sardak solingan baliq. vetchina, pashtet va shunga o'xshash taomlar keltirishdi.

Nikodim polkovnikni kutib, ovqat yeyishga shoshilmadi. Orkestr qandaydir klassik muzikani chalmoqda edi. Zal asta-sekin odamlarga to'la boshladi.

Nihoyat, soat o'n birga yaqin polkovnik Vareda paydo bo'ldi. U bilan birga sochlari tim qora, past bo'yli, grajdancha kiyingan bir odam ham bor edi.

- E, shu yerdamisiz! - deya xitob qildi polkovnik. - Anchadan beri kutyapsizmi?

- Atigi chorak soatdan beri, - dedi shosha-pisha Dizma.

- Tanishtirishga ruxsat eting: pan Dizma, direktor Shumskiy! - deya ularni bir-biriga tanishtirdi polkovnik. - Hozir sevimli



oshnamiz Yas' Ulyanitskiy ham kelib koladi.

- O'sha askiyaboz-a? - dedn sevinib Shumskiy. - Juda ajoyib bo'пти-da!

- May oyida Krinitsada bo'lganimizda uning qanday qiliq ko'rsatganini xayolingizga ham keltirolmaysiz.

- Rostdanmi?

- Pansionatimizda Kurovskiy, Karkovskiy degan bir odam yashardi. Bilasizmi, haqiqiy jentl'menlardan: u kishi tennis deysizmi, Bayron, Bodler, Uayl'd, Kanale Grande, "Kazino de Pari" deysizmi, hammasidan bor edilar. Vinoning navlari, shohi- ipakning turlari - hammasini bilardi. Buning ustiga yuqori doiralarda qarindosh-urug'lari bor ekan. Xullas, u kishidan o'tadigani yo'q edi. Ayollar uni ko'rishganida es-hushlarini yo'qotib qo'yishardi. Stol atrofiga yig'ilganimizda har kuni suhbat o'sha suxandonning monologi yoki leksiyasiga aylanib ketardi. U tinmay gapirar, so'z o'yini qilar, o'nga yaqin tilda aforizmlar aytar, xullas, hammani og'ziga qaratib o'tirar edn.

- Ha, gap degan mana bunaqa bo'пти! - deya xitob qildi Shumskiy. - Agar uning tili chuchuk bo'lib, yana zontik tutib yurgan bo'lsa, o'lay agar, o'sha nusxa tashqi ishlar ministrligida ishlagan.

Polkovnik xaxolab kulib yubordi.

- O'lmang, topdingiz! Ont ichishim mumkin, zontknki qo'lidan qo'ymasdi.

- Xo'sh, u yog'i nima bo'ldi?

- Tasavvur qiling-a, beshinchimi, oltinchi kunimi tushlik ovqatga ketayotgan edik, Yas': "Xudo haqqi, ortiq chidayolmayman", - deb qoldi. Ovqat mahali u o'sha mahmadonaning qarshisiga borib o'tirdi. U jentl'men bo'lsa, sho'rva keltirishganida suxandonligini boshlab, quyuq ovqat keltirishganda ham gapini tugatmagan edi. Qani, nima bo'larkin, deb kutdim. Yas' indamay o'tirardi. Haligi nusxa bo'lsa, hamon irshayib, barchani maftun etishga urinardi, mahoratini namoyish etardi. Bir mahal u mavsumning moda bo'lgan rangi haqida gap boshlagan edi, oshnamiz Yas' pichoq bilan vilkani bir chetga qo'yib, o'rnidan turdi-da, haligi suxandon tomon engashib, bor ovozi bilai "o'-o'-o'-o'!" deb baqirsa bo'ladimi...

Dizma bilan Shumskiy o'zlarini kulgidan to'xtatisholmadi.

- Nima, - deya so'radi Shumskiy, - faqat "o'-o'-o'-o'" dedi-qo'ydimi?

- Ha, faqat "o'-o'-o'-o'" dedi-qo'ydi. Lekin Ul'yanitskiyning ovozi qanday yo'g'onligini bilasan-ku o'zing. Keyin nima bo'lganini bir ko'rsang edi! Haligi nusxa sholg'omday qizarib, pafasi ichiga tushib ketdi. Hamma yoq jimib qoldi, barcha labini tishlab yerga qarab o'tirardi. Shu payt kimdir chidayolmay piqillab kulib yubordi. Faqat shu yetmay turgan ekan. Qahqahadan hatto stol ham silkina boshladi. Xudo haqqi, odamlarning bunday kulishganini sira ko'rmagai edim.

- Yas-chi?

- Yasmi? Yas' indamay ovqatini yeyaverdi.

- Anavi nusxa nima qildi?

- Manfur odam ekan! U turib ketishini ham, joyida o'tiraverishini ham bilmay, dovdirab qoldi. Nihoyat, o'rnidan turib, chiqib ketdi. Keyin o'sha kunioy Krinitsadan tuyog'ini shiqillatdi.

- U yog'i nima bo'ldi? - so'radi bu voqea juda yoqib qolgan Nikodim.

- Bo'lak hech nima bo'lgani yo'q, - deya javob qildi polkovnik. - Faqat Ulyanitskiy o'sha voqeadan so'ng Krinitsada eng mashhur odam bo'lib qoldi.

Nihoyat, Ulyanitskiy ham keldi.

U juda novcha odam bo'lib, yuzi yapasqi, burni bodringday, ikki qoshi bilan mo'ylovi o'rniga to'rt tutam tim qora soch yopishtirib qo'yilgandek tuyulardi. Uning qoshlari bilan mo'ylovi pir-pir uchib turardi, ammo qa'riga tortgan kichkina ko'zlari bo'shliqning allaqaysi nuqtasiga qimir etmay tikilib turardi.

U stol yoniga o'tirishi bilanoq, kayfi oshib qolgan Nikodim o'z hurmatini izhor qila boshladi.

- Polkovnik bizga Krinitsada qilgan hazilingizni gapirib berdi. Qoyil! O'sha mahmadonaning rosa adabini beribsiz-da!

Ul'yanitskiyning yuziga tushgan bir tutam sochi qimirlab turardi.

- Shu ham gap bo'пти-yu! Sizning ko'proq omadingiz bor ekan. Terkovskiyning ta'zirini bergan odam, siz-ku, axir?

- Shu, shu, - deya tasdiqladi Vareda. - O'zimizning yigit. Sezib turibman, hali og'ayni bo'lib ketasizlar, Sizlarning salomatligingiz uchun.

Ular molday ichishib, vaqt yarim tundan og'gach, ikkinchi qavatdagi dansingga chiqishganida, hammasining kayfi oshib qolgan edi. Yana shampanskoye keltirishni buyurishdi. Stol yonida qizlar paydo bo'ldi. Djaz g'oyat sho'x bir kuyni chalgan edi, Dizma xonimchalardan birini taklif qilib, o'yin tushib ketdi. Ulfatlar uni diqqat bilan kuzatib turishdi. Nihoyat, Nikodim joyiga kelib o'tirgach, bir ovozdan Dizmaning haqiqiy ulfat ekanligi tan olinib, u bilan brudershaft qilib ichish taklif etildi... Bu taklifga hech kim e'tiroz bildirmadi, albatta. Shundan so'ng ular orkestr polkovnik Varedaning talabi bilan chalgan "Ko'p yil yashagin..." kuyining sadolari ostida brudershaft qilib ichishdi.

To'rt oshna Kunitskiyning avtomobiliga chiqib o'tirishganida tong ota boshlagan edi. Polkovnikni uyiga olib borib qo'yishga qaror qilishdi. Konstantinga yetib borishgach, shofer passajirlarni uyg'otdi. Shumskiy Dizma bilan muloyimgina xayrlashdi - uning Varshavaga qaytgisi kelmay qolgandi.

- Vatseknikida tunab qo'ya qolarman. Xayr, Nikodimchik, yaxshi bor!

Ulyanitskiy Nikodim Koloniya Stashitsaga olib borib qo'ydi-da, so'ng o'zi mehmonxonaga qaytdi.

Uxlashdan oldin Dizma bugungi voqealarni eslamoqchi bo'ldi, biroq miyasining g'uvullashi va tinimsiz hiqichoq tutishi, fikrini bir joyga to'plashga xalal bermoqda edi. Shundan so'ng u, bor-e, degandek, qo'lini siltadi-da, o'zini to'shakka tashladi.

U uyg'onganida boshi og'rimoqda edi. Vaqt peshinga yaqinlashib qolgandi. Nikodim frak bilan shimini yechmay yotganini sezib qoldi - kostyumi g'ijimlanib ketibdi. U avvaliga o'zidai jahli chiqdi, biroq keyin Vareda va ikki nufuzli amaldor bilan qilgan ichkilikbozligi ministrning oldiga kirishga qo'l kelishini o'ylab bir oz yengil tortdi.

Shundan so'ng Nikodim bugun Pshelenskayanikiga tushlik ovqat qilgani borishi lozimligini esladi. Kostyumini dazmollatish kerak.

Kunitskiyga Nikodim, ministrning yo'qligi sababli Varshavada tutilib qolishini xabar qilib, telegramma yubordi.

Pshelenskayanikiga Dizma avtomobilda jo'nadi: uying derazalari ko'chaga qaragan bo'lib, ehtimol, birona odam mashinani ko'rib qolishi mumkin. Buning esa katta ahamiyati bor edi.

Ochig'ini aytganda, Dizma Ponimirskiyning xolasi va yana allaqanday Kshepitskiy bilan nima to'g'rida gaplashishini bilmasdi, eng muhimi esa, bu gaplardan biron foyda chiqishiga ko'zi yetmasdi. U shunchaki kiborlar xonadonini ko'rishga qiziqib qolganidai



borishga rozi bo'lgan edi.

Dizma ostonadan hatlab o'tishi bilanoq bu uyga birinchi marta kelganidagi besaranjomlik shunchaki favqulodda hodisa bo'lganini fahmladi. Endi hamma yoq sokin va batartib bo'lib, kishini qandaydir salobat bosardi. To'g'ri, bu kvartirani Kovorovodagi uyga taqqoslab bo'lmasdi, albatta. Biroq uning allaqanday jozibali tomoni bor ediki, ana shu o'ziga xoslik Dizmaga juda yoqdi.

Xizmatkor unga mehmonxonaning' eshigini ochib berdi va oradan bir necha minut o'tgach, pani Pshelenskayaning o'zi ham paydo bo'ldi. Bu gal endi u haqiqiy aristokrat xonimlardek kiyinib olgandi. U bilan birga o'ttiz beshlarga borgan bir kishi ham kirib keldi.

- Pan Kshepitskiy! Pan Dizma! - deya ularni bir-biriga tanishtirdi Pshelenskaya.

Kshepitskiy nazokat bilan ta'zim qildi. Uning o'zini beparvo tutishi va dimog'i bilan gapirishi Nikodimga yoqmadi. Lekin u, Kshepitskiyning kelishgan yigitligi va hatto Liskovdagi sud kotibi, butun uyezdda xotinlarga xushomad qilishga ustaligi bilan mashhur bo'lgan pan Yurchakdan ham chiroylroq ekanligini tan olishga majbur bo'ldi.

- Siz bilan tanishish sharafiga muyassar bo'lganimdan g'oyat xursandman. Siz to'g'ring'izda ko'p eshitgandim, - dedi Kshepitskiy va shimining pochasinini tortib kresloga o'tirdi.

Bu odam boshidanoq ayyor va ikki yuzlamachi bo'lib ko'ringanidan Dizma u bilan ehtiyot bo'lib gaplashishga qaror qildi. Shu boisdan ham u dudmolgina javob berdi:

- El og'ziga elak tutib bo'larmidi - doim biror narsani gapirishadi.

- Meni kechirasiz, - gap qotdi pani Pshelenskaya, - sizning qanday ajoyib siyosatchi ekaningizni faqat bugun pan Kshepitskiydan eshitdim. Uyat bo'lsa-da, tan olishim kerak, biz ayollar siyosiy masalalarni mutlaqo tushunmaymiz.

- E, juda oshirib yubordingiz-ku, - deb e'tiroz bildirdi Kshepitskiy va shimining boshqa pochasinini ham tortib qo'ydi.

Dizma nima deyishini bilmay tomoq qirdi. Uning baxtiga, shu payt mehmonxonaga xizmatkor kirib, ovqat tayyor ekanligini xabar qildi. Ovqat mahali Pshelenskaya bilan u, goh familiyasini atab, goh oddiygina qilib Zizya deya murojaat qilinayotgan Kshepitskiy Dizmadan Koborovoda nimalar bo'layotganini surishtirisha boshlashdi. Pshelenskayani asosan "boyoqish Ninaning" eri bilan akasiga munosabati qiziqtirardi, Zizya esa Nikodimdan ko'proq Kunitskiyning daromadi, Koborovodagi ishlarning ahvoli to'g'risida so'rardi. Dizma bexosdan bu masalalarni yaxshi tushunmasligini sezdirib qo'ymaslik uchun iloji boricha qisqaroq javob berishga harakat qilardi.

- Marhamat qilib aytasangiz, Jorjning kasali juda sezilarlimi, uni huquqdor shaxs sifatida tan olish mumkinmi?..

- Nima desam ekan... U telba, albatta, lekin, ehtimol, biror muddat o'zini tiyib tura olar...

- Juda to'g'ri aytdingiz, - gapni ilib ketdi Pshelenskaya. - Uning kasali ham xuddi ana shu o'zini tiyib turish markazlarining zaiflashib qolganidan iborat: lekin u zaruratni tushunsa, menimcha, ma'lum muddat o'zini tiyib tura oladi.

- Ehtimol... - deya ming'irladi Dizma.

- Faqat bir narsadan xavfim bor, - davom etdi Pshelenskaya, - Nina bizning rejamizga qo'shilmasligi mumkin.

- Unga bu ishlarni aytishning nima hojati bor? - deya yelkasini qisdi Kshepitskiy. - Hammasini imi-jimida bajaramiz. Eng muhimi adliya ministrligidan odam topish. Lekin taqdir pan Dizmadek odamii bizga ko'makka yuborgan ekan, buning tashvishini qilmasak ham bo'ladi. Shunday emasmi?..

- Eh, Jorjning sizdek kasbdoshi, do'sti u bilan xuddi shu paytda uchrashib qolganingiz juda soz bo'ldi-da! - deya xitob qildi pani Pshelenskaya.

Qahva ichnsh uchun kichik mehmonxonaga o'tishdi. Kshepitskiy cho'ntagidan yon daftari bilan qalam oldi.

- Men qisqagina doklad tayyorlashni lozim topdim, - deya gap boshladi u. - Ruxsat etasizmi?.. Xo'sh, umuman olganda, ishning ahvoli mana bunday. Bizga quyidagilar ma'lum: kir yuvuvchi xotin Genavefa Kunikning o'g'li, asli Krakovdan bo'lgan oltmish olti yoshli muttaham Leon Kunik bir vaqtlar o'g'rilangan narsalari sotib olishdan gumon qilingan. Bu narsa L'vov politsiyasining aktlarida qayd etilgan. Keyinchalik u sudxo'rlik bilan shug'ullangan va har xil nayranglar ishlatib, Ponimirskiylar oilasining boyligini o'zlashtirgan...

- Pani Kunitskayaning aytishicha esa, - deya uning gapini bo'ldi Nikodim, - bu yerda hech qanday nayrang bo'lmagan emish.

- Ha, albatta... Lekin har bir faktni turlicha talqin qilish mumkin. Xe-xe-xe... Agar prokuror kerakli ko'rsatma olsa, qanday ish tutishni o'zi biladi. Bundan tashqari, bizga Kunikning to'qqiz yil muqaddam yangi hujjat olgani va unga otasining ismini yozdirib, familiyasini "Kunitskiy" qilib o'zgartirgani ma'lum. Bu esa qonunga xilof ish. Keyin, hammamiz uning temir yo'l qurilishiga shpal yetkazib berish xususida sudlashganini bilamiz. Afsuski, o'shanda bu shpallarning aslida bo'lmaganligi isbotlanmagandi. Kunitskiy begunohligini tasdiqlovchi hujjatlar yordamida o'zini oqlashga muvaffaq bo'lgan edi. Ammo, turgan gap, bu hujjatlarning hammasi qalbaki... Ularni yozib bergan temir yo'l xizmatchisi keyinchalik qochgan va dom-daraksiz g'oyib bo'lgan. Bu hujjatlarning hammasini topib, yana sudga taqdim qilish mumkin. Xo'sh, bunga nima deysizlar?

- Ha, albatta! - xitob qildi Pshelenskaya.

- Men ham shunday fikrdaman, - deya gap qotdi Dizma, Kshepitskiyga gumonsirab qarar ekan. Kshepitskiyning qiyiq ko'zlarida qandaydir o't chaqnashi, yuzining uchib turishi, qirra burni va uzun iyagi uning sergakligi va har daqiqada qarshi hujumga o'tishi mumkinligidan dalolat berib turardi. Kshepitskiy tilining uchi bilan yuqori labini yaladi-da, davom etdi:

- Eng muhimi - undan Koborovoni tortib olish kerak. Barcha qiyinchilik ana shunda. Yuridik jihatdan Koborovo pani Ninaning tasarrufida hisoblanadi. U esa bu ishga sirayam rozi bo'lmaydi.

- Ha, rozi bo'lmasa kerak... - dedi Dizma Kshepitskiyning fikriga qo'shilib.

- Shu boisdan ham, - deya davom etdi Kshepitskiy, - yagona chora Jorjning Kunitskiy ustidan prokurorga ariza berishidir. U o'z arizasida singlisini soxta guvohlik berish uchun Kunitskiy majbur etganini ko'rsatishi lozim...

- Hmm...

- Bunday aybni esa Jorj faqat huquqdor shaxs sifatida tan olingandan keyingina qo'yishi mumkin. Shuning uchun ham sud organlaridan Jorjning ruhiy holatini ikkinchi marta tekshirib ko'rish uchun ruxsat olish kerak! Men advokat bilan maslahatlashdim. U qoidaga muvofiq qaytadan ko'rish mumkinligini aytdi. Faqat bu haqda Jorjning qarindoshlaridan birontasi iltimos qilishi kerak ekan.

- Men o'lsam ham bunday qilmayman! - deya e'tiroz bildirdi Pshelenskaya. - O'lsam ham! Boshimga shuncha tashvish orttirganim ham yetar. Bir kami gazetalarda nomimni bulg'ashlari qoluvdi...

- Juda yaxshi, pani Fina, - dedi zardasi qaynay boshlagan Kshepitskiy. - Demak, siz, bu ishni Nina qilishi mumkin, deb hisoblar ekansiz-da?

- Yo'q, - deya gapga aralashdi Dizma, - Nina bunday qilishga hecham rozi bo'lmaydi.

- Jorjning esa boshqa qarindoshi yo'q, - dedi Kshepitskiy tirnog'i o'siq bashorat barmog'ini yuqori ko'tarib.

- Baribir bu ishga aralashmayman... Baribir...

Kshepitskiyning jahli yuziga tepdi.

- Mayli, - dedi u quruqqina qilib. - Demak, bu haqda ortiq gapirishning hojati yo'q. Bu ishingiz bilan Jorj siz bilan menga beradigan qirq ming zlotiyni hamda Bibi Xul'chinskayaning turmushga chiqishini yo'qqa chiqardingiz.

Oraga jimlik cho'kdi.

- Afsus, - deya qo'shimcha qildi Kshepitskiy, - faqat pan Dizmani bekordan bekorga o'vora qildik.

- Aralashmayman, xudo haqqi, aralasholmayman! - o'z gapida qattiq turib oldi Pshelenskaya.

- Shoshilib nima qilamiz! - dedi bir oz o'ylab ko'rgach Nikodim, - Bu masalani keyinroq gaplashsak ham bo'ladi.

- Bu orada biror chora topilib qolar, - dedi yengil tortib pani Pshelenskaya.

Kshepitskiy sapchib o'rnidan turdi.

- Bu orada, bu orada! Bu orada menga pul kerak, juda kerak!..

- Sizga bir oz pul topib berishga urinib ko'raman, - deya ming'irladi ikkilanib Pshelenskaya.

- E, topib beradigan o'sha besh yuz yoki ming zlotiyingizni boshimga uramanmi! - dedi qo'l siltab Kshepitskiy.

Pshelenskaya qip-qizarib ketdi.

- Balki, buni keyinroq gaplasharmiz. Bu gaplar pan Dizmani qiziqtirmasa kerak, deb o'ylayman.

- Kechirasiz, - deya to'ng'illadi Kshepitskiy.

- Yana kofe ichasizmi?

Pshelenskaya chashkalarga kofe quydi-da, so'ng dedi:

- Ehtimol, siz, pan Dizma, Ninaga gapirib ko'rarsiz. Agar u erini yomon ko'rsa... Pan Dizma har qanday to'siqlarni ham yengishga, har qandan xarakterga ham ta'sir ko'rsatishga qodir odam ko'rinadilar.

- Ha, albatta, lekin u kishiga bundan nima foyda, - dedi bir oz hayosizlik bilan Kshepitskiy.

- Zizya, - deya e'tiroz bildirdi Pshelenskaya, - pan Dizma Jorjning do'sti-ku, axir! Shunday emasmi? Menimcha, shuning o'zi ham kifoya qiladi.

Kshepitskiy basharasini bujmaytirib, barmoqlarini qirsillatdi.

- Keling, ochiqchasiga gaplashaylik... Men dunyoda beg'araz odamlarning borligiga ishonmayman. Meni kechirasiz, muhtaram pan Nikodim, ishonmayman, vassalom! Menimcha, siz... hm... ishbilarmon odam sifatida... Ochig'ini ayting, Jorj sizga biror narsa va'da qilganmi?

- Bu nima deganingiz? - tushunmadi Dizma.

- Biror narsa va'da qilganmi, deb so'rayapman?

- Pul beraman, deb va'da qilgan, demoqchimisiz?

Pshelenskaya Dizmaning ranjishidan cho'chib, Kshepitskiy mutlaqo unday demoqchi emasdi, siz uning gapini boshqacha ma'noda tushunmang va hokazo, va hokazo, deya kechirim so'ray boshladi. Darvoqe, Kshepitskiyning o'zi ham haddidan oshirib yuborganini sezib, Jorjning sudlashishi munosabati bilan bo'ladigan xarajatlarni nazarda tutganini aytdi.

Ishning qovushmayetganini payqagan Pshelenskaya bu haqda keyinroq gaplashishini taklif qildi va Dizmaning Varshavada yana ikki haftacha turishini eshitgach, uni kelasi seshanbada uyida bo'ladigan bridj o'yiniga taklif qildi. Dizma avval bridj o'yinini bilmasligini bahona qilib, kelishdan bosh tortdi, biroq unga karta o'ynash shart emasligini aytishgach, rozi bo'ldi.

- Yigirma-o'ttiz odam bo'ladi, - dedi uni ko'ndirish uchun Pshelenskaya, - ular orasida tanishlaringizii ham uchratasiz: menikiga general Rujanovskiy, ministr Yashunskiy, rais Grodzitskiy, vitse-ministr Ulyanitskiylar kelib turishadi.

- Polkovnik Vareda-chi? - birdan yangi oshnasni eslab so'radi Dizma.

- Ilgarilari kelib turardi. Siz u bilan tanishmisiz?

- Ha, u mening do'stim, - dedi beparvogina qilib Nikodim.

- U holda polkovnikni ham taklif qilaman. Juda uddaburon odam. Agar yanglishmasam, prokuror Vajik bilan yaxshi munosabatda.

U esa, esimda bor, Varedaning birinchi xotiniga uylangan...

- Ha, ha, - deya tasdiqladi kulib Kshepitskiy. - Gamel'beyn xonimni aytyapsiz-da! Vajik esa bizga katta yordam berishi mumkin.

Dizma Pshelenskaya bilan xayrlasha boshladi, Kshepitskiy ham Mokotovga borishi lozimligini aytib, o'-nidan turdi.

- Men sizni eltib qo'yaman, - deya taklif qildn Dizma. - Mashinam darvoza oldida turibdi.

Pshelenskaya Kshepitskiyni olib qolmoqchi bo'lgan edi, biroq u qat'iyon bosh tortdi.

- Yo'q, qololmayman. Kechqurun ovqatlangani kelaman. Hozircha xayr!

- Pani Pshelenskaya qarindoshingiz bo'ladimi, - deya so'radi Dizma ular ko'chaga chiqishgach.

- Yo'q, shunchaki eski tanishim. Uning eri bilan do'st edik.

- Nima, pani Pshelenskayaning eri o'lganmi?

- Tirik, - dedi javoban Kshepitskiy ko'zlarini xiyol qisib. - Faqat hozir kim bilan yashayotganini bilmayman. Chet elda kayf-safo qilib yuribdi. Eh-e, avtomobilingiz juda zo'r-ku! Birinchi sort! Benzinni ko'p yeydimi?

- O'ttiz litrdan ortiq sarflaydi, - dedi jilmayib shofer va eshikni yopib qo'ydi.

- Qani endi shunaqa mashina bo'lsa, soz bo'lardi-ya, - deya gap qotdi Kshepitskiy.

Yo'lda u, agar pulini ololsa, nimalar qilmoqchi ekanligi to'g'risida gap sotib ketdi. Suhbatdoshining sukut saqlashidan Kshepitskiy, Dizma juda ayyor, ehtiyotkor odam bo'lsa kerak, degan qarorga keldi.

Nihoyat u Politexnika instituti oldida tushib qolgach, shofer Dizmaga o'girilib dedi:

- Men bu panni taniyman - Kshepitskiy. Bir vaqtlar poygachi otlari bor edi. Lekin omadi kelmadi.

- Pixini yorgan odam-a?

- Ehe-a, nimasini aytasiz, - dedi boshini chayqab shofer.

## 7-bob

Bu devorlariga to'q yashil gulqog'oz yopishtirilgan, derazalari shiftga tegay deb turgan Lui-Filipp uslubidagi keng bir kabinet edi. Kattakon yozuv stoli yonida boshini qo'lga tirab o'tirgan ministr Yashunskiy deyarli bir soatdan beri qishloq xo'jaligining ahvoli haqida ming'irlab axborot berayotgan mansabdorning gaplarini tinglardi.

Mansabdor goho-goho bloknotini bir chetga qo'yardi-da, semiz portfelidan gazeta kesmalarini olib, maqolalardan ayrim joylarini

o'qib berardi. Maqolalarda raqamlar bilan birga nuqul: "eksport", "sentner", "bug'doy", "fojiali ahvol" so'zlari takrorlanardi. Chamasi, bu axborot yaxshilikdan darak bermasdi, chunki ministarning peshanasi tirishib turardi. Bu ajin hatto u jilmayib, aniq va puxta tayyorlangan axborot uchun mansabdorga minnatdorchilik bildirganida ham yo'qolmadi. Chet eldan qaytgach, Yashunskiy ishlar g'oyat qo'rqinchli ahvolga tushib qolganini ko'rdi. Qishloq xo'jaligidagi qiyinchiliklar, kutilayotgan mo'l xosil oppozitsion matbuotning qattiq hujumiga sabab bo'ldi: hatto hukumat doiralari yaqin gazetalar ham norozilik bildirib, to'ng'illay boshlashdi.

Yashunskiy hamkasblari bilan qilgan suhbatidan obro'siga ancha putur yetganiga va mabodo iste'foga chiqqudek bo'lsa, barcha ministrlar mamnun bo'lishiga ishonch hosil qildi. Rost, buni unga to'g'ridan-to'g'ri aytishgani yo'q. Ammo hukumatning yanglish iqtisodiy siyosati munosabati bilak biron odam baloga yo'liqishiga shama qilishdi. Bosh ministr basharasini bujmaytirib, mazkur vaziyatda butun kabinetning iste'fo berishi mumkin emasligi va qisman rekonstruksiya yo'li bilan qutulish lozimligini ochiqdan-ochiq aytdi.

Bu o'rinda bosh ministrga gapi o'tadigan Terkovskiyning xolis xizmat qilgani shubhasiz edi.

Ish pirovardiga yaqinlashib qolgandi, shu boisdan masalani uzil-kesil hal qilish kerak edi. Ammo Yashunskiy o'z o'rinbosari, vitse-prezident Ulyanitskiy bilan maslahatlashmay turib bir qarorga kelishni istamadi.

U Ulyavitskiyni ertalabdan beri kutardi. Ministr hatto bir necha bor o'rinbosarining uyiga telefon ham qildi, biroq har gal uiga, xo'jayin hali uxlab yotibdilar, deb javob berishdi.

Shuning uchun ham soat ikkilarga yaqin Ulyanitskiy kabinet eshigida paydo bo'lganida, Yashunskiy uni koyiy ketdi:

- Nima, esingni yeb qo'ydingmi? Tuni bilan ichasan, bu yerda esa asfalasofilinga ketay deb turibmiz.

- Avval salomlashsak bo'lardi, - dedi mo'ylovini silab Ulyanitskiy.

- Yaxshi, salom, - to'ng'illadi ministr. Ulyanitskiy kresloga o'tirib, papiros tutatdi. Yashunskiy esa qo'llarini cho'ntagiga tiqqanicha katta-katta qadamlar bilan xonada u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi.

- Sen yaxshi shartnoma tuzibsən. Tabriklayman, - do'rilladi Ulyanitskiy.

- Tabriklaydigan joyi yo'q, - deya quruqqina javob qildi ministr, - chamasi, bundan keyin yana bittagina qog'ozga qo'l qo'ysam kerak.

- Nega unday deyapsan?

- Chunki navbatda qo'l qo'yadigan qog'ozim iste'fo haqidagi ariza bo'ladi.

- Nikodim Dizmani bilasanmi? - so'radi Ulyanitskiy bir oz sukut saqlab turgach.

- Bilaman. Terkovskiyning ta'zirini 6ergan odam-da. Uning bu ishga nima aloqasi bor?

- Biz bugun ertalabgacha birga ichdik. Bir necha kundan beri u bilan ichyapman.

Yashunskiy yelkasini qisdi:

- Battar bo'l.

- Aksincha, juda yaxshi bo'ldi.

- He, jin ursin!.. Ochiqroq gapir! Hozir topishmoq o'ynashga hushim yo'q!

- Quloq sol. Biz u bilan krizis haqida gaplashdik. Men unga ahvolning chatoqligi va uning yaxshilanishi amri maholligini aytdim. Hech qanday chora yo'q, dedim unga. Nikodim bo'lsa bunga javoban: "Chora bor - davlat g'alla zapaslarini sotib olishi kerak", - deydi.

Ulyanitskiy gapirishdan to'xtab, ministarning ko'ziga tikildi. Yashunskiy yelkasini qisdi.

- Davlat g'allani sotib olishi kerak, deydimi?

- Ha, ha!

- Bo'lmagan gap! Davlatning puli yo'q.

- Shoshma, shoshma, men ham unga shunday dedim. U bo'lsa: "Pulmi? Pulning keragi yo'q", - deydi.

- Qanaqasiga endi? - deya ajabladi Yashunskiy.

- Quloq sol. Juda ajoyib gap. Eshitib og'zimiz ochilib qoldi. Baxtimizga hamma g'irt mast edi, hech kim eshitmadi.

- Qani, qani, gapir!

- Bo'lmasam eshit! Pulning keragi yo'q, gap pulda emas, deydi. Davlat obligatsiya chiqarishi mumkin. Masalan, yuz million yoki ikki yuz million zlotiylik, deylik. Pul o'rniga ana shu obligatsiya to'lanadi - vassalom. Olti yillik muddat bilan to'rt protsentlik obligatsiya. Olti yil ichida esa g'alla bozorida o'ldim deganida, bir marta qulay vaziyat yuzaga keladi. Ana o'shanda bor g'allani mamlakatimizning o'zida yoki chet elda sotib yuborishimiz mumkin.

- Shoshma, shoshma, - deya uning gapini bo'ldi ministr, - ancha durust fikr.

- Durustmish-a! Genial fikr!

- Xo'sh, keyin nima dedi?

- Men senga aytsam, bu Dizmaning kallasi juda ishlar ekan. Buning foydasi juda katta, deydi. Birinchidan, narh-navo barqarorlashadi, ikkinchidan, muomaladagi pul ko'payadi. Shu yo'l bilan davlat yuz-ikki yuz million zlotiylik pul chiqarish imkoniga ega bo'ladi. Chunki obligatsiyalarda egasining nomi ko'rsatilmaydi va shu yo'sinda naqd pul o'rnida ishlatilaveradi. Undan tafsilotlarini so'rgan edim, "Men mutaxassis emasman", - deb qo'ya qoldi. Hammasini senga aytib bermoqchi.

- Menga?

- Ha, senga. Uning senga ixlosi baland.

- Shoshma-chi, demak, ishning mohiyati... Ulyanitskiy Dizma bilan qilgan suhbatini takrorladi-da, butun rejani raqamlar bilan bayon qilib berdi.

U bu loyihaga shu qadar qiziqib ketdiki, hatto mashinistkani chaqirib, gazetaga maqola ham yozdirmoqchi bo'ldi. Biroq vazminroq Yashunskiy uni to'xtatdi. Masalani har taraflama o'ylab, muhokama qilib pishirish lozim edi. Bu fikr unga ham juda yoqib qolgan edi. Ammo bunaqa ishlarda shoshqaloqlik qilish yaramasdi.

- Avvalo bu gap mutlaqo sir saqlanishi lozim. Ikkinchidan, o'sha Dizma bilan yana bir marta gaplashib olish kerak.

- Unga hoziroq qo'ng'iroq qilishim mumkin.

- U hali ham Varshavadami?

- Bo'lmasam-chi. "Yevropa" mehmonxonasida turibdi. Bir ishrat qilish uchun kelgan ekan.

Ministr ajabladi.

- Yo'g'e, nimalar deyapsan? Ishratbozga o'xshamaydi-ku. Meni bilishimcha, u ko'proq irodali odamlar sirasiga kirsa kerak.



Bunday odamlar yo'l boshchi, tashkilotchi bo'ladi...

- Tillo yigit, - deya oshnasini maqtadi Ulyanitskiy.

- Qolaversa, o'zimizning odam. Qani endi uddasidan chiqsak! Unda Terkovskiyning shaykasi dumini qisib qolardi. Men-chi?

Ya'ni, biz-chi? Tushunyapsanmi, Yas'?

- Bo'lmasam-chi...

Ular shu bugun kechqurunoq Dizma bilai gaplashib olishga qaror qilishdi. Ministr o'z tashrifnomasiga bir necha so'z yozib, Dizmani chaqirib kelish uchun "Yevropa" mehmonxonasiga odam yubordi. Yashunskiyning xatini olib kelishganida, Dizma endigina uyg'ongan edi. Xatda ko'rsatilgan vaqtgacha u kiyinib, shoshilmay ovqatlandi. Ministrlikka bir necha minutda yetib borsa bo'lardi. Shu boisdan ham Nikodim cho'ntak soatiga qarab qo'ydi va u yerga piyoda jo'nadi. Yetib borgach, u qo'ng'iroq chugmasini bosgan edi, shveysar eshikni ochib, Dizmaga xo'mrayib qaradi-da, dedi:

- Sizga nima kerak? Idora allaqachon yopilgan.

- Sekinroq! Sekinroq, - deya kekkayib pishilladi Dizma. - Men ministr Yashunskiyning oldiga keldim.

Shveysar ta'zim qilib bukchaydi.

- Afv etasiz, bilmay qolibman. Ministr pan Ulyanitskiy bilan birga sizni kabinetda kutyaptilar.

U tavoze bilan Dizmaning pal'tosini yechib oldi.

- Kuzatib qo'yishga ruxsat eting... Kabinet shu yerda, ikkinchi qavatda joylashgan.

Nikodim hali bu voqeaning ahamiyatini oxirigacha tushunib ulgurmagan edi: bir minutdan so'ng u ministr bilan suhbatlashadi; u Koborovodan jo'nayotgan paytida mutlaqo haqiqatga to'g'ri kelmaydigandek tuyulgan narsalar endi ma'lum bir shakl kasb etib, amalga oshmoqda edi. Voqealar yo'nalishi go'yo shiddatli oqimdek Dizmani olib ketayotgandi. U buni his etsa ham, biroq voqealar mohiyatini anglay olmasdi. Nima sababdan bu ishlarga u, ya'ni Nikodim Dizma aralashib qolganini tushunmasdi.

Taklifnoma olgach, u darhol gap g'alla obligatsiyalarini chiqarish to'g'risida, Ulyanitskiy zavq bilan eshitgan Kunitskiyning o'sha rejasi haqida borajagini tushundi. Nikodim hammasidan ham ministr undan bu ishning tafsilotlarini so'rab-surishtirishidan cho'chirdi. Ehtiyot bo'lish kerak! Eng muhimi - shuncha paytdan beri joniga oro kirib kelayotgan uslubni qo'llab, kamroq gapirish kerak.

Ulyanitskiy bilan Yashunskiy uni samimiy kutib olishdi.

Dizma bilan Ulyanitskiy allaqachon senlashib gaplasha boshlaganlari boisdan suhbat darhol do'stona tus oldi. Yashunskiy gapni maqtovdan boshlab, Nikodimga 15 iyuldagi banketda Terkovskiy bilan g'ijillashib qolganini eslatdi.

- O'shandayoq men: agar mamlakatimizda siz kabi odamlar ko'proq bo'lganida, ishlarimiz butunlay boshqacha bo'lardi, degandim.

Ha, ha, imonim komil, butunlay boshqacha bo'lardi.

- Bunday maqtovga arzirmikinman...

- Nikodim, o'zingni ko'p kamtarlikka solaverma! - Quvnoqlik bilan do'rilladi Ulyanitskiy.

So'ng g'alla obligatsiyalari haqida gap ochildi. Dizmani ikki kishilashib so'roqqa tutishdi. To'g'ri, ikkala amaldor ham qishloq xo'jaligida hech vaqoni tushunmasliklarini aytishdi, biroq shunga qaramay Dizma qovun tushirib qo'yishdan cho'chib, juda ehtiyotkorlik bilan gaplashdi. Uning xotirasi yaxshiligi joniga oro kirdi: Nikodim asta-sekin Kunitskiy aytgan hamma gaplarni esladi. Har ehtimolga qarshi u "o'zining" rejasi haqida Ulyanitskiydan eshitganini ham qo'shib qo'ydi.

Yashunskiy juda xursand bo'lib ketganidan kaftini kaftiga ishqardi. Qosh qoraya boshladi. Chiroqni yoqar ekan, ministr sho'x ohangda dedi:

- Xo'sh, azizim pai Dizma, ochig'ini aytsam, sizni so'zamol deb bo'lmas ekanu, lekin kallangiz yaxshi ishlarkan. Demak, hamma ish joyida. Bir narsa yodingizda bo'lsin - bu gaplar mutlaqo sir saqlanishi lozim! Vaqtincha albatta. Chunki hali bu masala ustida ko'p bosh qotirish kerak. Yas' qonun loyhasini tayyorlaydi. Keyin unn miiistrlar kabinetining iqtisodiy komitetiga taqdim qilamiz, men esa ertaga bosh ministr bilai gaplashaman. Fahmlashimcha, yagona qiyinchilik - bu omborlar masalasi. Yangilarini qurish haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas. Bizga kredit berishmaydi. Darvoqe, eng katta qiyinchilik hatto bu ham emas. Harqalay, pan Nikodim, ajoyib loyihangizni amalga oshirishda o'zingiz ham qatnashasiz. Gapimga ishonavering.

- Ha, albatta, - deya do'rilladi Ulyanitskiy.

- Siz hukumat bilan hamkorlik qilishdan bosh tortmaysizmi, ishqilib? Shunga umid qilsa bo'ladimi?

Dizma gardanini qashib qo'ydi:

- Nega endi bo'lmas ekan, ishlayveramiz-da...

- Sizga chin qalbidan minnatdorchilik bildiraman. Mening fikrimcha, eng muhimi - u yoki bu ishni kim bajarishiga bog'liq.

Bunda shaxs masalasi birinchi o'rinda turadi!

Yashunskiy yozuv stolining tortmalarini qulflab qo'ydi. Ulyanitskiy shveysarga qo'ng'iroq qildi.

Nikodim Kunitskiyning iltimosini bajarishga qulay fursat kelganini angladi.

- Pan ministr, - deya gap boshladi u, - mening sizdan bitta iltimosim bor edi.

- Shunaqa deng? Marhamat, qulog'im sizda. - Shunday deya ministr Dizmaga qiziqib tikildi.

- Gap bunday... Grodnodagi davlat o'rmonlari direksiyasida allaqanday Ol'shevskiy degan odam ishlar ekan. O'sha Ol'shevskiy nuqul Koborovo taxta tilish zavodiga pand berib kelyapti... U Kunitskiyni yomon ko'radi, shuning uchun doim haligi... anovi-chi... davlat o'rmonidan beriladigan yogoch kontingentini kamaytirgani kamaytirgan.

- Ha, rost, - deya uning gapini bo'ldi ministr, - esimda bor: hatto qandaydir shikoyatlar ham bo'lgan edi. Bu Kunitskiy juda qiziq odam ko'rinadi. Unga biror aloqangiz bormi?

- Xudo saqlasin, faqat ish yuzasidan.

- Nikodim, uning qo'shnisi, Kunitskaya xonimning ishonchli vakili. Kunitskiy esa shu kunda xotini bilan arazlashib yurgan ekan, - deya tushuntirdi Ulyanitskiy.

- Pan Nikodim, sizga ochig'ini aytaman, - dedi javoban ministr, - men Ol'shevskiyning buyruqlarini bekor qilishni istamasdim.

Eshitishimcha, Kunitskiy firibgar, muttaham odam ekan. Lekin sizga so'zsiz ishonaman. Ayting-chi, chindan ham yog'och kontingentini oshirish davlatga foydalimi? Ha yoki yo'q, deb javob qilavering.

- Ha, - bosh irg'adi Dizma.

- Ol'shevskiy pani Qunitskayaning taxta tilish korxonalariga befordan beforda to'sqinlik qilayotgani rostmi?

- Rost.

- Bo'пти, kelishdik. Men boshqarish san'ati tez qaror qabul qila bilishidan iborat, deb hisoblayman.



Yashunskiy tashrifnomasini olib, allanimalar yozdi-da, so'ng uni Dizmaga uzatib, jilmaydi.

- Marhamat! Mana Ol'shevskiyga ko'rsatma yozdim. Shunga qaramay ertaga ertalab unga kerakli telefonogramma yuborishlarini buyuraman. Siz qishloqqa qachon qaytmoqchisiz?

- Indinga.

- Afsus. Lekin sizni tutib turmayman. O'zim xabar yuboraman. Yas', senda pan Dizmaning adresi bormi?

- Bor. Innaykeyin, biz u bilan ertaga pani Pshelenskayanikida bo'ladigan bridj o'yinida uchrashamiz, Nikodim ham u yerga borib turar ekan.

- Juda yaxshi. Xo'p, sizga yana bir bor katta rahmat, oq yo'l tilayman.

Shunday deya ministr Nikodimga ikkala qo'lini uzatdi. Hammalari pal'tolarini kiyishdi. Ulyanitskiy Dizma bilan birga borib ovqatlanmoqchi edi, biroq ministr qo'ymadi.

- Yana o'lgudek ichasan, vaziyat esa juda jiddiy, qiliq ko'rsatadigan payt emas hozir.

Ular Krakov qasabasiga chiqib xayrlashishgach, Nikodim mehmonxona tomon yo'l oldi.

Yo'lda u yoritilgan vitrinalardan birining oldida to'xtab, cho'ntagidan ministrning xatini oldi-da, o'qib chiqdi:

"Direktor Ol'shevskiyga. Grodno.

Nikodim Dizmaning Koborovo taxta tylish zavodi ishi bo'yicha qo'ygan talablarini darhol ijobiy ma'noda hal qilishingizni so'raymai.

Yashunskiy".

Nikodim maktubni avaylab karmoniga solib qo'ydi.

- Obbo jin urgur-ey! - dedi u balaid ovozda. Uning bu xitobidan ham mamnunligi, ham ajablanganligi va hammasidan ham ko'proq o'ziga o'zi qoyil qolganligi sezilib turardi.

Dizma o'zini ancha dadil seza boshladi. Yaqinginda o'zi tenglashishi mumkinligini xayoliga ham keltirmagan bu begona muhit odamlari undan, ya'ni Dizmadan allaqanday fazilatlar topishgan edi. Qim bilsin, ehtimol, ular haqdirlar...

Ha, Dizma o'zidan juda xursand edi.

Mehmonxonada Nikodimni yana bir xushxabar - uning nomiga yozilgan ensiz och kul rang konvert kutib turgan ekan. Konvertdan tanish atir hidi anqib turardi. Pochta qog'ozining varag'i bir tekisda chiroyli yozuv bilan to'ldirilgan bo'lib, tagiga Nina Kunitskaya deb imzo chekilgan edi.

Nikodim jilmaydi:

- Buni qara-ya! Qani o'qib ko'raylik-chi, nima deb yozgan ekan.

U karavot yonidagi chiroqni yoqib, botinkasini yechdi-da, o'rnashibroq yotib, o'qiy boshladi:

"Hurmatli pan Nikodim!

Sizni mening maktubim, ehtimol, undan ham ko'proq iltimosim hayratga solsa kerak. Agar Sizga murojaat qilishga jur'at etgan bo'lsam, bu faqat Sizning menga ko'rsatgan mehribonligingiz tufayli, jahlingiz chiqmasligiga umid qilganimdan, xolos.

Gap kichik bir narsani xarid qilish ustida ketyapti: men Grodnoda yaxshi tennis to'plarini izlab topolmadim. Agar Siz Varshavadan bir dyujina to'p olib kelsangiz, Sizdan g'oyat minnatdor bo'lardim.

To'g'ri, magazinniig o'ziga xat yozishim mumkim edi, ammo men Sizning o'zingiz tanlab olib kelishingizni istayman. Ehtimol, Sizning Varshavadaligingizda vaqtingizni olmasligim kerak edi. Chunki u yerda Siz uchun vaqt juda qimmatli bo'lsa kerak. Axir ishingiz ko'p. Buning ustiga ko'ngil ochishingiz kerak - teatrlar, qabul marosimlari va qolaversa... Kasyaning og'zidan gullashicha, jazmanlariga gul yuborishni yaxshi ko'radigan go'zal ayollar... Koborovoda go'zal ayollar yo'q, lekin bu yerning gullari Varshavanikiga qaraganda chiroyliroq...

Qachon qaytasiz?

Aslini olganda, men "qaytasiz" so'zini ishlatmasligim kerak edi. Axir, kishi faqat, o'z yaqinim deb hisoblaydigan odamning oldiga qaytadi, inson hayot yo'li yoki dilidagi muhabbat tuyg'usi bog'lab turgan kimsaning oldigagina qaytishi mumkin...

Koborovo bugun ma'yus va noxush. Mana bir necha kun bo'ldiki, u menga shunday tuyulyapti. Uni qanchalik sevishimni va qanchalik nafratlanishim lozimligini o'zingiz bilasiz-ku, axir. Sizdan iltimos qilaman, o'z hasratlarimni to'kib, kayfiyatingizning quvnoq garmoniyasini buzganim uchun mendan ranjimang. Nimayam derdim, tan olaman: menga Sizning suhbatlaringiz yetishmayapti, juda yolg'izman.

Koborovo Sizning qaytishingizni kutyapti, pan Nikodim, - kechirasiz, men yana o'sha so'zni ishlatdim, - ha, u Sizning kelishingizni kutyapti.

Nina Kunitskaya".

Dizma xatni ikki marta o'qib chiqib, konvertni hidlab ko'rdi-da, o'ylay boshladi. "Unga yoqib qolibman... Nimayam derdim, hali yosh, eri esa munkillab qolgan. Balki, foydalanish kerakdir?"

Lekin shu payt, agar Kunitskiy biror narsani sezib qolsa, oldiga solib quvmasmikin, deya diliga g'ulg'ula tushdi. Ammo shu zahoti endi ahvol keskin o'zgarib ketganligini esladi.

"G'ing deb ko'r-chi, aljigan chol! Endi kekirdagingdan xippa bo'g'ib olishim mumkin! Kim bilan gaplashayotganligingii bilasanmi? Kimsan, ministrning do'sti bilan-a?! Tushundingmi?"

Nikodim o'rnidan turib, sarpoychang oyna oldiga bordi. U hamma lampalarni yoqdi-da, ikki qo'lini beliga tirab, boshini yuqori ko'targanicha o'zini oynaga sola boshladi. U shu paytgacha o'z husnimga yetarli baho bermagan ekanman, degan xulosaga kelmaguncha shu alfozda turdi.

"Odam yoshligidan o'zini oynada ko'raverib ko'nikib ketadi. Ko'nikkanidan keyin esa o'ziga o'zi oddiygina odam bo'lib ko'rinaveradi..."

Nikodimning g'oyat dimog'i chog' edi. U kinoga bordi, so'ng mayxonaga kirib ovqatlandi. Keyin ertasiga peshinga qadar uxladi. Nonushtadan so'ng magazinlarni aylanib, bir yo'la Ninaga tennis to'plari sotib oldi. Peshinda yaxshilab ovqatlanib olgach, qosh qorayguncha qadar xonasida yotdi. Uni shofyor kelib uyg'otdi: frak kiyib, yo'lga tushish kerak edi. Shahar minglab chiroqlardan charog'on edi, reklamalarning qizil neon chiroqlari ilon izidek o'chib-yonib turardi.

Marshalkovskaya va Xmel'naya ko'chalari burchagida to'xtashga to'g'ri keldi. Politsiyachi ko'ndalang ko'chadagi izvosh va avtomobillarni o'tkazmoqda edi. Nikodim beixtiyor yo'lovchilarni tomosha qilib, ajoyib avtomobilning yumshoq o'rindig'ida o'tirish qayoqda-yu, trotuarda turtinib-surtinib yurish qayoqda, deb o'ylay boshladi.

Birdan u kimdir o'ziga tikilib qarab turganini sezib qoldi: Marshalkovskaya ko'chasi bu yerdd uncha yaxshi yoritilmagandi, shu

boisdan ham u qizni anchagacha taniyolmay turdi.

Man'ka!

Nikodimning eti junjikib ketdi. U boshini ichiga tortib, yuzini yoqasi bilan yashirmoqchi bo'ldi. Biroq kechikdi.

Man'ka tirsagi bilan yo'l ochib, trotuar, chetiga keldi. Mana u shu qadar yaqinlashdiki, hatto qo'lini cho'zib Dizmaning yelkasidan tutishi mumkin edi. Ammo Man'ka bunday qilishga jur'at etmadi... Nihoyat, u bo'g'iq ovoz bilan so'radi:

- Nikodim! Tanimayapsanmi?

Ortiq mug'ambirlik qilib bo'lmasdi. Nikodim qizning to'polon ko'tarishidan, ro'mol o'ragai manovi qizni shofer sezib qolishidan cho'chirdi. Shuning uchun hiyla ishlatishga qaror qildi; u qiz tomon o'girilib, barmog'ini labiga qo'ydi-da:B :

- Jimm... Ertaga kelaman, - deya shivirladi.

Qiz, tushundim, degandek bosh irg'ab, o'z navbatida pichirlab so'radi:

- Soat nechada?

Biroq u javob olishga ulgurmasdi. Politsiyachining qo'lidagi tayoq imosi bilan avtomobil' bir silkinib, shitob bilan joyidan qo'zg'aldi.

Man'ka oldinga engashib, anchagacha avtomobilning ortidan qarab turdi.

"Jin ursin! - deya xayolidan o'tkazdi Dizma. - Gaplashmoqchi bo'lganiga o'lasanmi. Tasqara! Avtomobilni ham o'g'irlagan bo'lsa kerak, deb o'ylagandir-da".

O' o'zicha kulib qo'ydi, biroq bundan buyon kechqurunlari Marshalkovskaya ko'chasidan yurmaslikka ahd qildi.

Qiz bilai uchrashishning va, umuman, o'tmishni eslab ko'nglini buzishning nima hojati bor?

Pshelenskayaning uyini Dizma uchinchi marta ko'rayotgandi va har gal bu kvartira unda yangicha taassurot qoldirmoqda edi.

Bugun barcha eshiklar lang ochiq bo'lib, hamma yoq charog'on edi. Ikki-uch xonaga yangigina ko'k movut sirilgan karta stollari hamda oppoq dasturxon yozilib, ustiga pirojniy va buterbrod to'la patnislar terilgan oddiy stollar qo'yib qo'yilgandi.

Mehmonlar hali yig'ilishmagan ekan. Dizma bir necha xonani aylanib chnqdi-da, mehmonxonadagi divanga borib o'tirdi. Binoning narigi chetidagi allaqaysi xonadan ikki kishining borgan sayin balandroq ovoz bilan janjallashayotgani eshitilib qoldi.

- Shunday qilib bermaysanmi? Ayt, bermaysanmi, - deya baqirardi erkak kishi.

Ayol kishi bunga javoban uzoq gapirib, allanimalar dedi.

Biroq Nikodimning qulog'iga chertib aytilayotgan ayrim qarg'ish so'zlariga chalindi:

- Ish yoqmas yalqov... Bunday tekinox'rlarni... Tovlamachi!.. Nonko'r!

- Oxirgi marta so'rayapman!.. - do'rilladi erkakning ovozi. - Ikki yuz zlotiy berasanmi, yo'qmi?

- Bermayman!

Shu payt ko'cha eshikdagi qo'ng'iroq jiringlab qoldi. Jaijal tinib, bir zumdan so'ng mehmonxonaga lablarida tabassum bilan pani Pshelenskaya kirib keldi. Uning ortidan nazokat bilan jilmayib Kshepitskiy kelmoqda edi. Ko'cha eshik tomondan taqir boshini yaltiratib allaqanday bir chol paydo bo'ldi.

Mehmonlarni bir-biri bilan tanishtirar ekan. Pshelenskaya hozirgi erkaklarning sira aytgan vaqtlarida kelmasliklaridan shikoyat qila boshladi. Ular, professor, deya murojaat qilishayotgan cholning qulog'i ancha og'ir ekan, chunki uy bekasi erkaklarning beburdligi haqidagi gapini to'rt marta takrorlagan bo'lsa-da, professor hamon:

- Kechirasiz, nima, nima? - deya qayta so'rardi. Toqati toq bo'lgan Pshelenskayaning joniga Kshepitskiy ora kirdi. U oldinga o'tib jilmayganicha:

- Tara-tara-bum-toq-toq, qari ahmoq! - dedi. Bunga javoban chol bosh irg'ab, ishonch bilan:

- Ha, ha, kechqurunlari ancha sovuq bo'lyapti, - dedi. Dizma xaxolab kulib yubordi. Unga Kshepitskiyning xazili juda yoqib tushgan edi. U pani Pshelenskayaning yangi mehmonlarni kutib olish uchun chiqib ketganidan foydalanib:

- Shoshmang, men ham unga biror narsa aytaman, - dedi.

- Faqat juda qattiq gapirmang! - ogohlantirdi uni Kshepitskiy.

Nikodim professorga qarab dedi:

- Basharangni it yaladi, qari tasqara!

- Kechirasiz, nima, nima?

- It yaladi!

- Kechirasiz, eshitmadim. Nima dedingiz?

Dizma kulgidan, o'zini tiyolmay qoldi. Chol ularning shumligini sezgandek bo'lib, shubhalana boshladi. Shu payt Kshepitskiy gapga aralashdi, u professorning qulog'iga:

- U sizga yangi latifa aytib bermoqchi! - deya qichqirdi.

- Ha, eshitaman, eshitaman.

Bu orada mehmonxonaga yana bir necha odam kirib keldi. Ular yangi mehmonlar bilan ko'rishib ulgurishmasdanoq, eshikda polkovnik Vareda paydo bo'ldi. Bu hol Dizmani latifa aytishdan qutqarib qoldi.

- Salom, Nikus! O'zingmisan! - deya xitob qildi polkovnik.

- Salomatmisan Vatsus'?

- Xo'sh, qalay? Yashunskiydagi ishingni bitkazdingmi?

- Rahmat, hammasi joyida.

Mehmonxona va qo'shni bo'lmalar gavjum bo'lib ketdi. Asosan erkaklar kelishgan bo'lib, ularning orasida faqat besh-oltitagina yoshi o'tib qolgan xonimlar ko'rinardi. Ba'zilar allaqachon bridj o'ynagani o'tirishgandi.

Nikodim Vareda bilan hol-ahvol so'rashib bo'lguncha Ulyanitskiy yetib keldi. Ministr ehtiyot choralarini ko'rib qo'ygan bo'lishiga qaramay, polkovnik Dizmaning loyahasidan xabardor ekan. Ulyanitskiy sira tortinmay loyiha to'g'risida gapira boshladi. Uning aytishicha, ish juda yurishib ketganmish. Vareda Nikodimni tabrikladi va unga o'zining ulkan loyahasini amalga oshirishda muvaffaqiyat tiladi.

Shu payt ularning yoniga pani Pshelenskaya kelib, bridj o'ynamaysizlarmi, deb so'radi. Vareda bilan Ulyanitskiy bu taklifni bajonu dil qabul qilishdi.

Hamma partiyalardagi o'rinlar band bo'lganidan Pshelenskaya, meni sherik qilinglar, deb taklif qildi. Dizma bridj o'ynashni bilmasdi, shuning uchun to'rtinchi o'ringa qandaydir ozg'in bir janobni chaqirishdi: Dizma keyinchalik bilsa, bu odam politsiyaning katta amaldorlaridan biri ekan.

Nikodim avval o'yinni tomosha qilib turdi, so'ng joniga tekkach, o'yinda ishtirok qilmayotgan erkaklar oldiga bordi. Ular orasida Kshepitskiy ham bor edi.

Dizma nari ketgan zahoti politsiyachi amaldor Pshelenskayadan so'radi:

- Pan Dizma kim bo'ladilar?

- Pan Dizma? - ajablendi Pshelenskaya xonim, - Nahotki uni tanimasangiz?

- Afsus, tanimas ekanman...

- Rosti bilan-a? - so'radi Ulyanitskiy. - Terkovskiy mashmashasi esingizdami?

- Eh, shunaqa deng. Tushunarli.

- Pan Dizma, - deya gap qotdi pani Pshelenskaya, - juda obro'li odam. U mening jiyanim Jorj Ponimirskiy bilan Oksford universitetida birga o'qigan. Ular o'shandan beri do'st.

- Pomeshchikmi?

- Ha. Asli Kurlyandiyadan. Hozirgi kunda jiyanimning mulkida boshqaruvchi bo'lib ishlayapti.

- Nikodimning boshi oltin! - deya xonimning gapini tasdiqladi Ulyanitskiy. - Yashunskiy, u hammamiz o'ylaganimizdan ham uzoqroq boradi, deyapti.

- Quling o'lgursin yigit! - qo'shimcha qildi Vareda.

- Juda yoqimtoy kishi! - deya ishontirdi uy bekasi.

- Chindan ham, - dedi ishonch bilan politsiya amaldori, - juda jiddiy odam ko'rinadi.

- Ikki chillik, - deya e'lon qildi Ulyanitskiy qalin qoshlarini yuqori ko'tarib.

- U holda biz uch chillik deymiz, - gap qotdi Ulyanitskiy bilan sherik bo'lib o'ynayotgan pani Pshelenskaya.

Dizma zerika boshladi. Manovi o'yinga berilib ketgan kishilarni ko'rib u o'zicha hayratlanardi. Nikodim bir talay buterbrod bilan pirojniy yeb, bir necha qadah kon'yak ichdi. Uyinda qatnashmayotgan mehmonlar xalqaro siyosat va ot poygasi haqida suhbatlashib o'tirishardi. Dizma bu ikkala mavzuga mutlaqo befarq edi. U qanday qilib chiqib ketsam ekan, deb o'ylay boshladi. Bir payt uy bekasi bir zum stol yonidan turgan edi, Dizma fursatdan foydalanib, unga yetib oldi va:

- Kechirasiz, men ketishim kerak, - dedi.

- Afsus! Chindan ham ketishingiz shartmi?

- Ha, ertaga azonlab jo'namoqchiman, uxlab olmasam bo'lmaydi.

- Men anovi ish haqida siz bilan batafsilroq gaplashib olmoqchi edim...

- Hechqisi yo'q, gaplashamiz hali: men yaqinda yana Varshavaga kelaman.

Dizma aslida tezroq borib uxlashni xayoliga ham keltirmagan edi. U ertalab soat yettida Koborovoga jo'nashga shay bo'lib kelishni buyurib, shofyorga javob berib yubordi-da, o'zi piyoda ketdi.

Tun allamahol bo'lib, ko'chalar huvillab qolgandi. Onda-sondagina kechikkan yo'lovchilar uchrab qolardi. Faqat Yangi dunyo maydonigina g'avjum edi. Bu yerda qiliqlaridan kasbi korlari shundoq ko'rinib turgan ko'plab ayollar sayr qilib yurishardi.

Dizma qarab-qarab, oxiri qorachadan kelgan, baland bo'yli bir juvonna tanladi. Ular tezda bir bitimga kelishdi.

Nikodim mehmonxonaga qaytganida endigina tong ota boshlagan edi. U Man'kani eslab, tunni u bilan o'tkazmaganiga afsuslanib qo'ydi.

Osmon qora bulutlar bilan qoplangan edi. Soat yettiga yaqin yomg'ir yog'a boshladi.

Dizma mehmonxona haqini to'ladi. Shu payt soyaboni ko'tarib qo'yilgan avtomobil' yetib keldi-yu, Nikodim ob-havoni la'natlab, mashinaning bir burchagiga biqinib o'tirib oldi.

U Grodno tomon yo'l oldi. Nikodim Kunitskiyning hayratda qoldirish uchun Koborovoga tayyor natija bilan kirib bormoqchi edi.

Aslida bunday muvaffaqiyatdap o'zining ham boshi qotib qolgandi. Nikodim Kunitskiy bayon qilib bergan rejani ustalik bilan takrorlagani uchungina ministrning ko'magiga erishganini juda yaxshi tushunardi. Agar bir oz bosh qotirib, mulohaza qilgudek bo'lsa, birovlarining fikrini o'ziniki qilib ko'rsatish g'oyat foydali ekan degan xulosa kelib chiqardi.

Dizma bu uslubni kengroq qo'llashga qaror qildi. Lekin ancha ehtiyot bo'lish kerak, albatta. U shu paytgacha o'ziga erishib bo'lmaydigandek tuyulgan kiborlar jamiyatiga aralashib yurish imkoniyatidan g'oyat xursand edi. Endi u bu jamiyat bilan el bo'lib ketishiga ishona boshlagandi. Nikodim, Kunitskiy endi meni haydash u yoqda tursin, menday boshqaruvchiga tish-tirnog'i bilan yopishib oladi, deb qat'iy ishonardi.

"Ana shunda bir narsalik bo'lib qolish mumkin. Qani, maoshimni oshirmay ko'rsin-chi, ablah".

Nikodim kaftini ishqab qo'ydi. U o'z hayotida yangi sahifa ochilganini his etardi. Bu sahifa kim tomonidan va nima sababdan yozilganligi esa uni qiziqitmasdi. Yashunskiy bilan qilgan suhbatidan u g'alla loyihasini amalga oshirishda o'zi, ya'ni Dizma chetda qolmasligini bilardi. U ministr nimani nazarda tutganligini tasavvur qilolmas va shu boisdan, menga mukofot berishsa kerak, deb o'ylardi. Liskovdagi pochta kontorasi boshlig'i pan Bochek bir kuni okrug pochta direksiyasining chinovniklaridan biri xatlarga shtampel' qo'yishning yangi usulini kashf etgani uchun ming zlotiy mukofot olganini aytib bergan edi. Unga esa ko'proq berishsa kerak, chunki g'alla xat emas-da, sizga!

Nikodim pan Bochek bilan Liskovni eslar ekan, jilmayib qo'ydi.

"Agar ular hozir mening qanday maosh olib, qanaqa odamlar bilan ulfatchilik qilib yurganimni bilishsa, nima deyisharkin?"

Hammasining esi og'ib qolsa kerak! Juldurvoqilar!"

Ministrlar, graflar... Kimsan, pani Pshelenskayadek xonim uni ziyofatga taklif qildi-ya...

Darvoqe, bu narsadan Nikodim unchalik hursand emasdi. Unga, Ponimirskiyning ishiga aralashib bekor qildim, degan fikr azob berardi. Bu ishdan baribir hech nima chiqmaydi. Lekin falokat bosib bu haqda Kunitskiy bilsa bormi, boshi baloga qolishi mumkin. Muttaham! U shu qadar badavlatki, Dizmadan albatta o'ch olishi mumkin.

Ponimirskiyga xolasi hech nimani eshitishni istamaganligi, qarzini esa allaqachon kechib yuborganligini aytib undan qutulish kerak. Yagona yo'li shu.

Dizma Grodnoga yetguncha yo'lda ana shularni o'ylab bordi.

Shaharni yaxshi biladigan shofyor mashinani to'g'ri o'rmon direksiyasi joylashgan kazarmaga o'xshash g'ishtin uy oldida to'xtatdi.

Soat besh bo'lib qolgandi. Shu boisdan Dizma idorada navbatchidan bo'lak hech kimni topolmadi.

- Men pan Ol'shevskiy oldiga keldim. U shu yerdami?

- Yo'q. Qabul paytida keling, - deya quruqqina javob qildi navbatchi.

Dizma o'shqirib berdi.

This is not registered version of TotalDocConverter

- Qana pay, sizning o'yoq uchun emas. Keyin, umuman, xushmuomalaroq bo'ling, kim bilan gaplashayotganingizni bilmaysiz hali.

- Nahot qo'pollik qilgan bo'lsam? - deya o'zini himoya qila boshladi navbatchi. - Kim bilan gaplashayotganimni qayoqdan bilay? Hatto ismingizni ham aytganingiz yo'q-ku, axir.

- Bo'ldi, bo'ldi, ko'p takallufsizlik qilavermang. Qani, zing'illab, o'sha pan Ol'shevskiyning oldiga boring-da, ministrning topshirig'i bilan pan Dizma kelganini ayting. Darhol yetib kelsin, mening vaqtim yo'q.

Qo'rquvdan kapalagi uchib ketgan navbatchi ta'zim qila-qila, bu yerdan ketishga haqi yo'qligini, lekin direktorning uyiga qo'ng'iroq qilishi mumkinligini aytdi.

U Nikodimni boshlig'ining kabinetiga kuzatib qo'ydi va bu dimog'dor odamning direktor kreslosiga yalpayib o'tirib olganidan sira ajablanmadi.

Oradan chorak soat ham o'tmay Ol'shevskiy yetib keldi. Ko'rinishidan u hozirgiya uyqudan turgan edi. Direktorning hayajonlanayotgani yaqqol sezilib turardi: to'rtburchak yuzining bir tomoni lipillab uchar, ingichka malla mo'ylovi ikki yoqqa cho'zilib, lablari ehtrom bilan tabassum qilardi. Ol'shevskiy mehmon uning kreslosini egallab olganidan dovdirab qolgan bo'lsa-da, sir boy bermaslikka harakat qildi.

- Ol'shevskiy! G'oyat xursandman...

- Xursandmisiz, yo'qmi, buni bilmayman, - deya javob qildi Nikodim o'rnidan xiyol ko'tarilib, qo'lini uzatar ekan. - Dizma!

- Nega endi, xursandman, albatta... Xuddi shu bugun ertalab ministrlikdan telefonogramma oldim.

- Ishdan bo'shatilganingiz haqida buyruq olmaganingiz uchun xudoga shukur qiling.

- Lekin, pan Dizma, - deya hayajonlanib e'tiroz bildira ketdi Ol'shevskiy, - menda ayb yo'q. Men doim barcha ustav va buyruqlarga so'zsiz rioya qilib kelganman. Ularning biror harfini ham buzgan emasman...

- Xo'sh, nima qilibdi? - istehzo bilan so'radi Dizma. - Ba'zan o'z mamlakatimiz firmalariga chiqindi yog'och berib, qolganini arzon-garovga chet elga pullayotganingizda ham o'sha harfga rioya qilganmisiz?

Ol'shevskiy behisob sana va paragraflarni ro'kach qilib, o'zini oqlay boshladi. Shundan so'ng Dizma Kunitskiyning ko'rsatmalari bilan to'lib ketgan yon daftarini oldi-da, hujumga o'tdi. U Ol'shevskiyning rasmiyatchilikda aybladi. Direktor ba'zan biror qaror qabul qilish qanday qiyinligini aytib, kechirim so'ray boshlagan edi, Nikodim sira tutilmay Yashunskiyning aforizmini takrorladi:

- Boshqarish san'ati tez qaror qabul qila bilishdan iborat, azizim!

U cho'ntagidan Yashunskiyning tashrifnomasini olib, amaldorning qo'lga tutqazdi. Ol'shevskiy qo'llari qaltirab, pensnesini uzoq qidirdi va nihoyat uni topib, tashrifnomadagi xatni o'qib chiqqach, yanada muloyimroq bo'lib qoldi.

U doim qonunga rioya qilganligi, xotini va to'rt bolasi borligi, idorasidagi xizmatchilarning hech ishga yaramasliklari, ko'rsatmalarning esa ko'pginasi bir-biriga zid kelishi va shu boisdan ham ularni turlicha ijro etishga majbur bo'layotganligini aytib, Dizmani o'z tajribakorligiga ishontira boshladi. Mazkur ish bo'yicha esa hammasini pan Kunitskiyning o'zi chalkashtirib yuborganmish, biroq, u ya'ni Ol'shevskiy, hozir buning uchun hech qanday to'sqinlik ko'rmay, unga bemalol yog'och beraverishi mumkin emish.

Nihoyat, maxsus mashinistka chaqirilib, ular Kunitskiy ko'rsatmalarining "harfiga" rioya qilgan holda hujjatlarni rasmiylashtira boshlashdi.

Ishni tugatishganida qorong'i tushgan edi. Ol'shevskiy Dizmani kechki ovqatga taklif qildi. Biroq Nikodim ministrning do'sti degan shuhratdan mahrum bo'lmaslik uchun minnatdorchilik bildirib, ovqatlanishdan bosh tortdi. Dizma amaldor bilan xayrlashar ekan, uning yelkasiga qoqib dedi:

- Xo'sh, hamma ish joyida bo'ldi. Bundan buyon men bilan tortishib o'tirmaslikni maslahat beraman, azizim. Chunki siz uchun oqibati baxayr bo'lmaydi.

AvvalgiI- qismB Keyingi